

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM,  
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

*Qo'lyozma huquqida*

**UDK: 821.512.133'06.09-1**

**PAYZULLAYEVA RA'NO MAXMUDOVNA**

**SIROJIDDIN SAYYID IJODIDA VATAN  
OBRAZINING POETIK TALQINI**

**10.00.02 – O'zbek adabiyoti**

filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

ilmij darajasini olish uchun yozilgan

**DISSERTATSIYA**

**Ilmiy rahbar: Abduhamid Xolmurodov**

filologiya fanlari doktori, professor

**Navoiy – 2024**

## MUNDARIJA

|   |            |
|---|------------|
| <b>KIRISH.....</b>  | <b>3</b>   |
| <br>  |            |
| <b>I BOB. VATAN OBRAZI TALQININING GENEZISI, POETIK TAKOMILI<br/>VA BADIY-ESTETIK OMILLARI.....</b> | <b>11</b>  |
| 1.1-§. Folklor namunalari va ilk yozma manbalar Vatan tasvirining g‘oyaviy-poetik asosi.....        | 11         |
| 1.2.-§. Mumtoz adabiyot an’alarining Vatan obrazi talqinidagi poetik sintezi....                    | 32         |
| 1.3-§. Vatan obrazi tasvirida jahon adabiyotining ta’siri va tarjimaning o‘rni.....                 | 50         |
| <br>  |            |
| <b>II BOB. POETIK MAZMUN VA SHAKLNING VATAN OBRAZI<br/>TALQINIDAGI O‘RNI.....</b>                   | <b>66</b>  |
| 2.1-§. Vatan obrazi tasvirining mazmunda ifodalanish tamoyillari.....                               | 66         |
| 2.2-§. Obraz talqinida poetik shaklning o‘rni.....  | 87         |
| <br>  |            |
| <b>III BOB. VATAN OBRAZI TALQINIDA IJODKOR USLUBINING<br/>BADIY-ESTETIK VAZIFASI.....</b>           | <b>106</b> |
| 3.1-§. Vatan obrazi talqinida individual ijodiy uslubning namoyon bo‘lishi.....                     | 106        |
| 3.2-§. Badiy publitsistik uslubning Vatan obrazi talqinidagi o‘rni.....                             | 127        |
| <br>  |            |
| <b>UMUMIY XULOSALAR.....</b>  | <b>141</b> |
| <br>  |            |
| <b>ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....</b>  | <b>145</b> |

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbliги va zarurati.** Jahon adabiyotshunosligida badiiy adabiyot umumbashariy mohiyat kasb etib, insoniyat ruhiy olamini ifodalashdagi o‘ziga xosligi, poetik shakl va mazmun mutanosibligi, turfa badiiy obrazlarni qo‘llash imkoniyatlarini ochib berish amalga oshirilmoqda. Har bir millat adabiyotida Vatan va vatanparvarlik masalasi fundamental muammo hisoblanib, mazkur mavzu asos qilib olingan badiiy-ilmiy tafakkur durdonalari zamonaviy yondashuv va tamoyillar asosida talqin qilinmoqda. Mazkur muammoni adabiyotning yetuk vakillari misolida ijodkor iste’dodi, adabiy-estetik tafakkuri, poetik mahorati va individual uslubini yoritish adabiyotshunoslik oldidagi dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Dunyo adabiyotshunosligida Vatan mavzusini poetik talqin etish, yurt obrazining badiiy tasvirini yaratish, lirikaning ijtimoiylashuvi, turli janrlarning mumtoz va zamonaviy adabiy an'analar ta'sirida taraqqiy etishi va natijada ijodkor lirik “men”ining shakllanish jarayoni tadqiqi etilmoqda. Bugungi davr she’riyatiga xalq og‘zaki ijodi va ilk yozma manbalarning ta’siri, mumtoz va jahon adabiyotining hozirgi adabiy jarayon bilan sintezlashuvi natijasida yanada yuksak umuminsoniy mazmun kasb etgan Vatan tasvirining poetik talqinlarini aniqlash va nazariy tahlil etish hayotiy va ma’naviy ehtiyojga aylanmoqda. Xususan, lirik va nasriy asarlarda adabiyotning yetakchi mavzusi bo‘lgan Vatan timsolini yanada teranroq anglash, mazkur mavzudagi asarlarning janriy tabiat, semantik-struktur jihatlari, badiiyat va individual uslub muammolarini yangi ilmiy tamoyillar asosida tadqiq etish dolzarb vazifadir.

Mamlakatimizda Uchinchi Renessans davriga poydevor qo‘yilayotgan bugungi kunda ilm-fan, ma’naviy qadriyatlar va milliy adabiyotning taraqqiyoti borasida muhim ishlar amalga oshirilmoqda. “O‘zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotini xalqaro miqyosda o‘rganish va targ‘ib qilish, ko‘pqirrali bu mavzuni bugungi kunda dunyo adabiy makonida yuz berayotgan eng muhim jarayonlar bilan uzviy bog‘liq holda tahlil etib, zarur ilmiy-amaliy xulosalar chiqarish, kelgusi

vazifalarimizni belgilab olish”<sup>1</sup> katta ahamiyatga ega. Shu jihatdan Sirojiddin Sayyidning o‘zbek xalq og‘zaki ijodi, ilk yozma manbalar, mumtoz va jahon adabiyoti ta’sirida yaratgan Vatan lirikasiga oid she’rlari, nasriy asarlari va publitsistikasi bilan birga shoirning jahon adabiyotidagi mavjud ko‘plab she’riy janr va shakllardan ijodiy foydalanganligiga alohida e’tibor qaratish zarurati yuzaga kelmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 13-maydagi PF-4797-son “Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to‘g‘risida”, 2023-yil 12-sentabrdagi PF-158-son “O‘zbekiston – 2030 strategiyasi to‘g‘risida” farmonlari, 2017-yil 13-sentyabrdagi PQ-3271-son “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ib qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to‘g‘risida”gi Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 16-fevraldagagi 124-F-sonli “O‘zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotini xalqaro miqyosda o‘rganish va targ‘ib qilishning dolzarb masalalari” mavzusidagi xalqaro konferensiyani o‘tkazish to‘g‘risidagi”gi Farmoyishi hamda sohaga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarning amalga oshirilishida ushbu tadqiqot muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Juhon adabiyotshunosligida she’r tabiatni to‘g‘risidagi ilmiy-nazariy qarashlarning ilk namunalari antiq yunon adabiyotiga borib taqaladi.<sup>2</sup> Rus adabiyotshunoslardan V.G.Belinskiy,

<sup>1</sup> Мирзиёев Ш.М. Ўзбек замонавий ва мумтоз адабиётини халқаро миқёсда ўрганиш ва тарғиб қилишнинг долзарб масалалари. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг халқаро конференциядаги нутқи // Халқ сўзи. 2018 йил 8 август.

<sup>2</sup> Арасту. Поэтика. – Тошкент: Faafur Fулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1980. – Б. 150.

N.G.Chernishyevskiy, N.A. Dobrolyubov, L.I.Timofeyev, G.N.Pospelov, V.Kojinov, V.Ivanisanko, L.Ozerov, N.D.Tamarchenko, E.Y.Fesenko, G.Xazagerov I.Lobanov, M.Polyakov, D.A.Medrish, T.I.Silmanlar<sup>3</sup> she'riyatning poetik tasviri, shakliy o'zgarishlar birligi xususida tadqiqotlar olib borishgan. O'zbek adabiyotshunosligida I.Sulton, O.Sharafiddinov, N.Karimov, I.G'afurov, A.Rasulov, U.Normatov, B.Nazarov, H.Umurov, N.Rahimjonov, Q.Yo'ldoshev, N.Jabborov, D.Quronov, U.Qosimov, S.Meliyev, U.Hamdamov, B.Karimov, U.Jo'raqulov, Sh.Hasanov, U.Qobilov, M.Xolova, M.Davronova, S.Raimova, X.Yuldasheva, G.Doshanova, G.Oripova<sup>4</sup> va boshqalar tomonidan she'riyatda badiiy obraz, shakl va mazmun mutanosibligi muayyan darajada o'rganilgan. Biroq joriy tadqiqotlarda Sirojiddin Sayyid ijodida mavzu va janr rang-barangligi, an'ana

---

<sup>3</sup>Белинский В.Г. Адабий орзулар. –Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1979. – 262 б; Чернишевский В.Г. Танланган адабий-танқидий мақолалар. – Тошкент, 1956. –451 б; Добролюбов Н.А. Адабий-танқидий мақолалар. –Тошкент, 1959. – 468 б; Тимофеев Л.И. Основы теории литературы. –Москва: Просвещение, 1966. – 478 стр; Пospelов Г.Н. Теория литературы. – Москва: Высшая школа, 1978. – 351 стр.; Кожинов В.В. Как пишут стихи. – Москва: Просвещение, 1970. – 160 стр.; Иванисанко В.И. Поэзия, жизнь. Человек. – Москва: Сов.писатель, 1962. – 228 стр.; Озеров Л. Начало и концы. – Москва, Сов.Россия, 1989. – 279 стр.; Тамарченко Н.Д. Теория литературы. В двух томах. 1-том. Учебное пособие. 3-е издание. – Москва: Академия, 2008. – 512 стр.; Фесенко Э.Я. Теория литературы. Учебное пособие. Издание второе, исправленное и дополненное. –Москва: Едиториал УРСС. 2005. – 336 стр.; Хазагеров Г., Лобанов И. Основы теории литературы. – Ростов на Дон, Феникс, 2009. – 316 стр.; Поляков М. Вопросы поэтики и художественной семантики. – Москва: Сов.писатель, 1986. – 480 стр.; Медриш Д.Н. Литература и фольклорная традиция. – Саратов, 1980. – 294 стр.; Сильман Т.И. Теория стиля. – Москва: Искусство, 1968. – 228 стр.;

<sup>4</sup>Иzzat Султон. Адабиёт назарияси. 2-нашри. –Тошкент: Ўқитувчи, 1986. – 408 б.; Шарафиддинов О. Замон. Қалб. Поэзия. – Тошкент, 1962. – 232 б.; Шарафиддинов О. Талант – ҳалқ мулки. – Тошкент, 1979.; Аб.Қаҳхор. Позия – юқсан санъат. Асарлар. 6-том. – Тошкент, 1971. – 426 б.; Воҳидов Э. Шоиру шеъру шуур. – Тошкент, 1987.; Каримов Н. XX аср адабиёти манзаралари. – Тошкент: Шарқ, 1997. – 330 б.; Faфurov И. Мангу латофат. 8 жилдлик. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2022. – 512 б.; Расулов А. Танқид, талқин, баҳолаш. – Тошкент, Фан, 2006. – 232 б.; Норматов У. Ижод сехри. –Тошкент: Шарқ, 2007. – 352 б.; Назаров Б. Ҳаётйлик – безавол мезон. – Тошкент: Фан, 2008. – 224 б.; Умурев X. Тирик шеърлар поэтикаси. – Тошкент: Наврӯз, 2015. –128 б.; Раҳимжонов Н. Мустакиллик даври ўзбек шеърияти (Тамойиллар, тажрибалар, сабоклар). – Тошкент: Фан, 2007. – 260 б.; Йўлдошев К. Ёник сўз. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2006. – 488 б.; Жабборов Н. Замон, мезон, шеърият. – Тошкент: F.Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2015. – 304 б.; Қуронов Д. Назарий қайдлар. – Тошкент: Академнашр, 2018. – 128 б.; Qosimov U. Adabiy-estetik tafakkur: A.Navoiy, A.Qodiriy, A.Qahhor, T.Murod. Monografiya. – Toshkent, 2023. – 180 б.; Мели Сувон. Сўзу сўз. “Адабиёт фалсафаси”га чизгилар. – Тошкент: Шарқ, 2020. – 528 б.; Ҳамдамов У. Янги ўзбек шеърияти. – Тошкент, Мухаррир, 2012 – 362 б.; Каримов Б. Руҳият алифбоси. – Тошкент, F.Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи. 2018 – 364 б.; Жўрақулов У. Назарий поэтика масалалари. – Тошкент: F.Ғулом номидаги нашриёт-матбаа уйи, 2015. – 356 б.; Ҳасанов Ш. Истеъододнинг рангин жилолари. Бадийлик ва маҳорат. – Самарқанд, СамДУ нашри, 2011 – 151 б.; Qobilov U. Nubuvvat motivi va tumtoz poetika. Monografiya. – Samarqand: SamDU nashri, 2019. – 158 б.; Холова М. Ўзбек модерн шеърияти: тарихи ва назарияси. – Тошкент: Мухаррир, 2018. – 116 б.; Давронова М. Ҳозирги адабий жараёнда услуг поэтикаси. Монография. – Тошкент, Наврӯз, 2019. – 136 б.; Раимова С. Мустакиллик даври ўзбек шеъриятида диний-маърифий мавзунинг бадий талқини. Фил.фан. бўйича фалсафа доктори (PhD) диссер. – Тошкент: 2021. – 132 б.; Yuldasheva X. Erkin Vohidov she'riyatida milliy ruhning badiiy ifodasi. Fil.fan.bo'yicha falsafa doktori (PhD) disser. – Toshkent, 2023. – 129 б.; Doshanova G. Hozirgi o'zbek she'riyatida kichik lirik shakllar takomili. Fil.fan.bo'yicha fal.d-ri (PhD) disser.автoref. – Urganch, 2022. – 62 б.; Oripova G. Mustaqillik даври o'zbek lirkasi. Filol.fan.d-ri...disser. avtoref. - Farg'она, 2024. – 82 б.

va shakliy izlanishlarning o‘zaro dialektik birligi, xususan, Vatan obrazining poetik talqini maxsus obyekt sifatida monografik tadqiq etilmagan.

**Dissertatsiya tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya Navoiy davlat pedagogika instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining “O‘zbek zamonaviy adabiyotini o‘rganishning yangicha tamoyillari” (№K-29, 2021-2024-yy.) yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi:** Sirojiddin Sayyid ijodida Vatan obrazi poetik talqinining o‘ziga xosligini aniqlash, shoir asarlarida Vatan mavzusining asosiy tamoyillari, badiiy-estetik vazifasi va tarbiyaviy ahamiyati, obraz yaratish mahorati, shakl va mazmun mutanosibligi, individual uslubi va publitsistikasi muammolarini ochib berishdan iborat.

### **Tadqiqotning vazifalari:**

Xalq og‘zaki ijodi va ilk yozma manbalarda Vatan mavzusining genezisi, g‘oyaviy-poetik talqinini aniqlash orqali uning Sirojiddin Sayyid ijodiga ta’sir doirasini ochib berish;

shoir iste’dodi, ijodining jahon va o‘zbek mumtoz she’riyatidagi an’analardan ilhomlanish omillarini asoslash;

Sirojiddin Sayyid asarlarida Vatan mavzusining poetik timsoli va mazmun ifodasini o‘rganish, poetik shaklning mazkur mavzuni ifodalashda o‘ziga xos badiiy-estetik vosita ekanligini dalillash;

Vatan obrazi talqinida shoir individual uslubining o‘ziga xosligini aniqlash, publitsistik asarlarida Vatan mavzusining yoritilishi, uslublararo sintezlashuvning namoyon bo‘lishini aniqlash.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida Sirojiddin Sayyidning 2018-2019 yillar oralig‘ida chop etilgan to‘rt jildlik “Asarlar”<sup>5</sup> asos qilib olingan.

**Tadqiqotning predmetini** Sirojiddin Sayyidning Vatan obrazi talqinini yaratishda xalq og‘zaki ijodi, ilk yozma manbalar, mumtoz va jahon adabiyotining

---

<sup>5</sup> Сиројиддин Сайид. Асарлар. I жилд. –Тошкент: SHARQ, 2018. –478 б.; II жилд. –Тошкент: SHARQ, 2018. –566 б.; III жилд. –Тошкент: SHARQ, 2019. –574 б.; IV жилд. –Тошкент: SHARQ, 2019. – 608 б.

ta'sirini o'rganish, poetik tasvirda shakl va mazmunning mutanosibligi, bu mavzudagi lirkasida individual uslubning namoyon bo'lishi, publitsistik asarlarining tub o'zagida Vatan va vatanparvarlik masalasini tadqiq etish tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot mavzusini yoritishda qiyosiy-tarixiy, qiyosiy-tipologik, badiiy tahlil, germenevtik, biografik, psixologik va analitik tahlil usullaridan foydalanildi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

Sirojiddin Sayyidning Vatan mavzusidagi "Birlashgan el", "Bobojonimning Vatani", "Hamillardlik", "O'zbek-turkman manzumasi" kabi she'rlarida folklor va "Matonat manzili", "Obod qishloq manzumasi", "Suv keltirgan elda aziz" kabi she'rlarida ilk yozma manbalarning ta'siri natijasida yurt timsoli va vatanparvarvarlik g'oyalarini badiiy aks ettirgani dalillangan;

shoir ijodida Vatan obraqi talqinining o'zbek mumtoz adabiyoti an'analari bilan janriy va mazmuniy sintezlashuvi, yurt timsoli tasvirida jahon adabiyoti tajribalarining adabiy ta'sir va tarjimachilik asosida badiiy takomillashuvi ochib berilgan;

ijodkorning poetik mahorati va novatorligi o'zbek she'riyatida an'anaviy va shakliy-uslubiy xususiyatlar yaxlitligining yangilanishiga omil bo'lgani aniqlanib, "Vatanni anglash", "Dehqon madhiyasi", "Mard-u maydon o'g'lonlar", "Chamandirsan chamandan tashqarida" kabi she'rlarida shakl va mazmun mutanosibligi, obyektiv anglash va subyektiv ijodiy tafakkur birligi shoir individual uslubining o'ziga xosligini ta'minlovchi muhim asos ekanligi isbotlangan;

Sirojiddin Sayyidning "Birinchi so'z", "Ey, menga daryoday dil bergen Vatan", "Vatanni o'rganish", "Vatan bo'lmas Vatandan tashqarida" kabi publitsistik asarlarida Vatan mavzusining epik ifodasi, tasvir usullarining poetik o'ziga xosligi, ijodkor dunyoqarashi va badiiy mahoratining nasrda namoyon bo'lishi kabi badiiyat masalalari yoritilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

she’riyatda Vatan mavzusining adabiy-estetik kategoriya sifatidagi ilmiy ahamiyati Sirojiddin Sayyidning asarlari misolida ochib berilgan;

xalq og‘zaki ijodidan boshlangan mavzu an’analarining mumtoz adabiyotda u yoki bu darajada o‘rin olishi, o‘zaro ta’sir masalasi, keyingi yillar she’riyati misolida o‘zaro uyg‘unlashuvi dalillangan;

Sirojiddin Sayyid she’riyati va nasriga tahliliy yondashgan holda Vatan mavzusining badiiy talqinlaridagi individualligi, poetik obraz yaratish mahorati yoritilgan;

Vatan mavzusining badiiy mezonlar asosidagi talqinlari, poetik shakl va mazmun, individual uslub, publitsistik uslubdagi o‘ziga xoslik, poetik idrok haqidagi tushunchalar tahlili natijasida “Adabiyotshunoslik nazariyasi”, “Hozirgi adabiy jarayon”, “O‘zbek adabiy tanqidchiligi tarixi” fanlari uchun zarur ilmiy tavsiya va takliflar ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** muammoning aniq qo‘yilganligi, tadqiqot vazifalariga hamohang holda, bir-birini to‘ldirib boruvchi qiyosiy-tarixiy, qiyosiy-tipologik, badiiy tahlil, germenevtik, biografik, psixologik va analitik tahlil usullaridan foydalanish natijasida aniq ilmiy xulosalar chiqarilganligi va ular vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shoir Sirojiddin Sayyid asarlarini tadqiq etish orqali chiqarilgan xulosalar, nazariy qarashlar tanqid, adabiyotshunoslik uchun yangi ilmiy-nazariy ma’lumot va xulosalar berishi, mavjud darslik, qo‘llanmalarning takomillashuvida yordamchi manba bo‘lib xizmat qilishi mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati istiqlol davri she’riyatining poetik obraz yaratishdagi turfa ohangdorligini tahlil etishda va shu jihatdan o‘rganishda, oliy o‘quv yurtlari, litseylar, ixtisoslashtirilgan ijodiy maktablardagi dars mashg‘ulotlari, maxsus kurs va seminarlar, to‘garaklarni olib borishda, Istiqlol mafkurasi asosida yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda, yangi avlod darsliklarini yaratishda, o‘quv qo‘llanmalar yozishda va majmualar tuzishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Sirojiddin Sayyid ijodida Vatan obrazining poetik talqini yuzasidan olingan ilmiy natijalar asosida:

Sirojiddin Sayyidning Vatan mavzusidagi “Birlashgan el”, “Bobojonimning Vatani”, “Hamdardlik”, “O‘zbek-turkman manzumasi” kabi she’rlarida folklor va “Matonat manzili”, “Obod qishloq manzumasi”, “Suv keltirgan elda aziz” kabi she’rlarida ilk yozma manbalarning ta’siri natijasida yurt timsoli va vatanparvarvarlik g‘oyalarini badiiy aks ettirgani haqidagi xulosalaridan Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy tadqiqot institutining FA-F1-G002 raqamli “Qoraqalpoq folklori va adabiyoti janrlarining nazariy masalalarini tadqiq etish” mavzusidagi fundamental tadqiqot loyihasida foydalanilgan (Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy tadqiqot institutining 2024-yil 9-sentabrdagi 385/2-son ma’lumotnomasi). Natijada loyiha nazariy qismining ilmiy dalillar va xulosalar bilan boyitilishiga xizmat qilgan;

shoir ijodida Vatan obrazi talqinining o‘zbek mumtoz adabiyoti an’analari bilan janriy va mazmuniy sintezlashuvi, yurt timsoli tasvirida jahon adabiyoti tajribalarining adabiy ta’sir va tarjimachilik asosida badiiy takomillashuviga oid qarashlaridan Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy tadqiqot institutida amalga oshirilgan FA-F-1-005 raqamli “Qoraqalpoq folklori va adabiyoti tarixi tadqiqi” mavzusidagi fundamental tadqiqot loyihasini bajarishda foydalanilgan (Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy tadqiqot institutining 2024-yil 9-sentabrdagi 386/2-son ma’lumotnomasi). Natijada loyiha ishi badiiy asar poetikasi tahliliga doir yangi ilmiy ma’lumotlar bilan boyitilgan;

ijodkorning poetik mahorati va novatorligi o‘zbek she’riyatida an’anaviy va shakliy-uslubiy xususiyatlar yaxlitligining yangilanishiga omil bo‘lgani aniqlanib, “Vatanni anglash”, “Dehqon madhiyasi”, “Mard-u maydon o‘g‘lonlar”, “Chamandirsan chamandan tashqarida” kabi she’rlarida shakl va mazmun mutanosibligi, obyektiv anglash va subyektiv ijodiy tafakkur birligi shoir individual uslubining o‘ziga xosligini ta’minlovchi muhim asos ekanligi to‘g‘risidagi xulosalardan Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy tadqiqot institutining FA-F1-G002 raqamli “Qoraqalpoq folklori va adabiyoti janrlarining nazariy

masalalarini tadqiq etish” mavzusidagi fundamental tadqiqot loyihasida foydalanilgan (Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy tadqiqot institutining 2024-yil 9-sentabrdagi 385/2-son ma’lumotnomasi).

Sirojiddin Sayyidning “Birinchi so‘z”, “Ey, menga daryoday dil bergen Vatan”, “Vatanni o‘rganish”, “Vatan bo‘lmas Vatandan tashqarida” kabi publitsistik asarlarida Vatan mavzusining epik ifodasi, tasvir usullarining poetik o‘ziga xosligi, ijodkor dunyoqarashi va badiiy mahoratining nasrda namoyon bo‘lishi xususidagi fikrlaridan Navoiy viloyati teleradiokompaniyasining “Assalom, yangi kun”, “Qadriyat”, “Adabiy muhit”, “Nazm va navo”, “Tarixdan saboqlar” kabi ko‘rsatuv va radioeshittirishlarida foydalanilgan (Navoiy viloyati teleradiokompaniyasining 2023-yil 7-iyuldaggi 01-10/112-son ma’lumotnomasi). Natijada ko‘rsatuvarlar mazmuni Vatanni sevish, yurtga sadoqat, o‘tmish ajdodlarimiz ma’naviyatiga muhabbat tuyg‘usini oshirishga doir nazariy fikr-mulohazalar bilan boyitilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Dissertatsiya ishi natijalari 6 ta, jumladan, 4 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ma’ruza ko‘rinishida bayon etilgan va aprobatsiyadan o‘tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e’lon qilinishi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha 18 ta ilmiy ish, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta, xorijiy jurnalda 1 ta maqola chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya 144 sahifadan iborat bo‘lib, kirish, uch asosiy bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan tashkil topgan.

# I BOB. VATAN OBRAZI TALQININING GENEZISI, POETIK TAMOYILI VA BADIY-ESTETIK OMILLARI

## 1.1-§. Folklor namunalari va ilk yozma manbalar Vatan obrazi tasvirining g‘oyaviy-poetik asosi

O‘zbek xalqining eng qadimgi davrdan shu kunga qadar yetib kelgan madaniy meroslaridan biri xalq og‘zaki badiiy ijodidir. Ilmiy adabiyotda qo‘llanadigan folklor atamasi og‘zaki badiiy ijod namunalarini o‘z ichiga oladi. Folklor asarlarida ijodkor xalqning ko‘p asrlik tarixi, turmush tajribasi, tabiat hodisalariga munosabati, ijtimoiy jarayonga nisbatan o‘ziga xos qarashlari, muayyan kurash va intilishlari, ozodlik, shaxs erki kabi tushunchalar badiiy ifodalangan.

Xalq og‘zaki ijodidagi turli janrlar tarkibidagi namunalarga e’tibor qaratilsa, ularda xalqimizning azaliy orzu-umidlari, Vatan erki va ozodligi tushunchasi teran badiiy talqin etilganligi, ezgulik,adolat, haqiqat g‘oyalari Vatan obrazini yoritishga, vatanparvarlik tuyg‘ularini ifodalashga xizmat qilgani ko‘zga tashlanadi. Xususan, folkloarning ilk namunalaridan mif, afsona, rivoyat va eposlardagi To‘maris, Shiroq, Zarina, Rustam, Siyovush, Go‘ro‘g‘li, Algomish, Ravshan kabi epik qahramonlar timsolida azaldan vatanparvarlik markaziy mavzu bo‘lib kelganligi folklorshunoslikda batafsil o‘rganilgan.<sup>6</sup>

“To‘maris” afsonasida qabila mustaqilligini himoya qilish, yurt sha’nini asrash asarning g‘oyaviy mazmunini tashkil etsa, “Shiroq” asarida vatanparvarlik va xalqparvarlik, tinchlik va ozodlikni sevish kabi tushunchalar ulug‘lanib, bosqinchilik va zulm qoralanadi.

Miflarga nazar tashlar ekanmiz, mif xalq dunyoqarashi va xalq og‘zaki ijodining qadimi shakllaridan biri sifatida insoniyat badiiy tafakkuri taraqqiyotida katta o‘rin tutishida ham o‘ziga xos uzviylik mavjuddir. Miflarning yozma badiiy adabiyotga ta’siri, asotiriy syujetlar va obrazlardan foydalanish jarayonida ijodkorming badiiy mahorati masalasi nuqtayi nazaridan bir qator olimlar tadqiqot

<sup>6</sup> Жуманазаров У. Жасорат ва садоқат талқини. Тошкент: “Фан”, – Б. 168; Shu muallif: Халқ прозаси ва ижтимоий тарихий хаёт. Ўкув қўлланма. Жиззах: “Сангзор”, – 2006. –Б.180.

ishlarini amalga oshirganlar. Xususan, M.Jo‘rayev, U.Jumanazarov, T.Xo‘jayev, M.Narziqulova<sup>7</sup> kabi olimlarning tadqiqotlarida miflar bilan aloqador u yoki bu darajadagi nazariy muammolar tahlil qilingan. Bu mulohazalarni qayd qilishdan asosiy maqsadimiz yozma badiiy adabiyotning bugungi kungacha shakllanishi va taraqqiyotida xalq og‘zaki ijodining sezilarli o‘rni mavjudligini asoslashdan iborat.

Tahliliy yondashuvlarimizda folklorda Vatan obrazi talqinlarining genezisi qachon paydo bo‘lgan? Uning takomili qaysi davrlarga mos keladi? Vatan obrazining talqinlarida qaysi bir badiiy estetik omillar yetakchilik qilgan, degan savollarga javob berishni lozim topdik. Bu masalalar keng qamrovli va alohida izlanishni talab etsa-da, bizning imkoniyatlarimiz cheklangan. Shu boisdan bu o‘rinda faqatgina xalq dostonlari misolida Vatan obrazi talqinlarining genezisi, poetik talqini va badiiy estetik omillari haqida so‘z yuritamiz.

Vatan obrazi talqinlarining genezisi eng qadimgi davrlarda yaratilgan, og‘zaki tarzda ijro etilgan xalq dostonlari va ularning kuylovchilari faoliyatiga borib taqaladi. Xalq baxshilari – xalq tarixi, hayoti, mehnati, kurashi va orzu-umidlarining bayonchisi, kuylovchi – ijrochilaridir. Shu ma’noda, baxshi-shoirlar kuylagan yuzdan ortiq xalq dostonlaridagi bosh mavzu oila va Vatan. Milliy folklorlarimizda eng salmoqli mavqega ega bo‘lgan barcha xalq dostonlarida oila mustahkamligi, yurt obodligi, osoyishtaligi, farovonligi kabi masalalarining tarannum etilishi ustuvorlik qilgan. Aslida, ayni mavzu jahon etnik ijodiyotida yetakchi o‘rin egallasa ham, har bir xalq kuychisi oila, Vatanga bo‘lgan muhabbat tuyg‘ularini o‘zlarining milliy mentaliteti va qadriyatlaridan kelib chiqqan holda talqin qilishgan. Masalaga chuqurroq yondashadigan bo‘lsak, har bir xalqning Vatanga bo‘lgan mehri va vatanparvarlik tuyg‘usi epik makon va epik zamonda, ya’ni aniq bir tarixiy geografik joy yoki vaqtini aniqlab bo‘lmaydigan davrda ifodalangan. Ulardagi talqin qilingan geografik joy yoki muayyan vaqt (zamon) – hammasi fantastik tasvir bilan bog‘liq. Ammo eng muhim jihat shundaki,

<sup>7</sup> Жўраев М. Мифларнинг ёзма адабиётга муносабати // Ўзбек тили ва адабиёти. –Тошкент, Фан, 1980. 6-сон; Жуманазаров У. Тарих, афсона ва дин. –Тошкент, 1990; Хўжаев Т. Мифик образ ва ёзма адабиёт // Адабий мерос. – Тошкент, 1991. 2-сон.; Нарзикулова М. “Сабъаи сайёр” достонида фольклоризм ва ўзбек фольклорида Баҳром сюjetининг талқини. Филол. фан.номз... дисс. автореферати. – Тошкент, 2006.

eposlarda ma'lum bir xalqning uzoq asrlik falsafiy, hayotiy, badiiy-estetik qarashlari to'liq mujassamlashgan bo'ladi.

Bu mulohaza o'zbek folkloridagi xalq dostonlari va ularning kuylovchilari – ijrochilariga ham bevosita taalluqlidir. Masalan, jahonshumul ahamiyatga ega bo'lgan, yaratilishi va kuylanishiga ko'ra IX-X asrlarga borib taqaladigan, uzoq tarixiy bosqichlarni bosib o'tgan mashhur "Alpomish" dostonida Hakimbekning Barchinoyga uylanishi, uning qonuniy nikoh uchun, oila uchun – o'z uyi, Vatani uchun kurashi va oxir-oqibatda Qo'ng'irotning yana qayta birlashishi va mustahkamlanishi dostonning bosh mavzusi sanaladi. Fozil shoir bu mavzuni xalqimizning qahramonlik haqidagi ideallari, mardlik tuyg'usi bilan uzviy aloqadorlikda yolqinli badiiy bo'yoqlar orqali hayratomuz bir tarzda, ko'tarinki, jangovar bir uslubda tasvirlaydi. Alpomish tilidan aytilgan mana bu satrlar buning yorqin dalilidir:

*Oq kirovka, oltin Sovut kiyaman,  
Bor kuchimni bilagima jiyaman,  
Olmos olsam, qirmizi qon qo'yaman.  
G'animlarning tanasini uyaman.  
Qarchig'ayman, dushman boshin qiyaman,  
Esim olsa, bo'tadayin bo'zlayman,  
Dushman ko'rsam, kesib bag'rim tuzlayman,  
Aslim sherman, o'zim yo'lbars izlayman...<sup>8</sup>*

Ko'ramizki, bu misralarda jasurlik va qahramonlikni ulug'lash, mardlik tuyg'ulari vatanparvarlik g'oyalari bilan uzviy bog'liq holda talqin etilgan.

O'zbek xalq dostonchiligining nisbatan keyingi taraqqiyot bosqichlarida, taxminan XIII-XIV asrlarda yaratilgan "Chambil qamali" dostonida ham Vatan mudofaasi va vatanparvarlik mavzusi ustuvorlik qilgan. Ayni mavzu O'rta Osiyo xalqlarining o'tmishda arab bosqinchilariga qarshi olib borilgan tarixiy kurash fonida olib borilgan. Dostonda epik qahramon Yunus pari mustahkam irodali, aqli va Vatan uchun jonkuyar, mard ayol sifatida talqin qilingan. Islom shoir bu

<sup>8</sup> Ўзбек халқ ижоди ёдгорликлари. Алпомиш, I жилд. – Toshkent: 2015. – Б.31.

ayolning tengdoshlariga murojaatini g‘oyatda yuksak mahorat bilan tasvirlaganki, ko‘z o‘ngimizda jasur kurashchi, uddaburon sarkarda, yurt podshosining yo‘qligini bildirmaydigan sadoqatli ayol obrazi namoyon bo‘ladi:

*G‘am yema, savashga o‘zim chiqaman,  
Dushmanlarning qaddi bo‘yin bukarman!  
Oy Yunusni Go‘ro‘g‘lidan kam dema!*<sup>9</sup>

Dostondaadolatli, yurt – Chambilning rahnamosi bo‘lmishi Go‘ro‘g‘li ham xalqparvar, yurt, Vatan uchun jonkuyar, el-yurtini dushmanidan ozod qiluvchi rahbar sifatida talqin etilgan. Uning dushmanga qarshi kuchli nafratini Islom shoir katta mahorat bilan gavdalantira olgan:

*Quloq soling so‘zning yolg‘on-rostiga,  
Ot chopilar qirning baland-pastiga.  
Tirik odamning elin dushman olarmi?!  
Ot qo‘yinglar, Rayhon podsho ustiga.*<sup>10</sup>

O‘zbek xalq dostonlarida Vatan obrazi talqinining genezisini aniqlash, poetik takomili va badiiy estetik omillarining qay darajada muhimligiga munosabatimizni bildirish maqsadida taxminan XVII-XVIII asrlarda yaratilgan “Tohir va Zuhra” dostoniga murojaat qilishni lozim topdik.

Dostonda Vatan obrazining poetik talqinlari epik makon va epik zamon bilan bog‘liqlikda, Vatan nima, uning epik qahramon hayotidagi o‘rni qanday, keng qamrovli Vatan yoki yurt tushunchasi nima uchun aziz va mukarram, – degan qator mukammal talqinlarning berilganligi dostonni kuylagan Qora baxshi Umirovning yuksak mahoratini ko‘rsatuvchi adabiy, badiiy-estetik omil sanaladi. Dostondan olingen bir parchaga e’tibor qilaylik:

“Zolim Qoraxon Tohirga: ... Suvdan quruq chiqqan bo‘lsang, joningni saqlab o‘sha yerlarda kuningni ko‘rib yuraversang bo‘lmasmidi, bu yerda senga nima bor? – deganda, Tohir bir so‘z aytib turibdi:

*Bunda chaman, gulim bordir,*

<sup>9</sup> Пўлкан шоир. Ўзбек халқ ижоди бўйича тадқиқотлар. III китоб. – Тошкент: “Фан”, 1976. – Б.62.

<sup>10</sup> O‘sha asar. – B.62.

*O'ynab o'sgan xilim bordir,  
Tohirjon deb boshim silab  
Erkalatgan elim bordir.  
  
Bunda gul, yaprog 'im bordir,  
Bunda ko 'z qarog 'im bordir,  
Kindik qonim shunda tomgan,  
Ona yurt tuprog 'im bordir...<sup>11</sup>*

Badiiy dalil sifatida tahlilga jalb etilgan ushbu parchada, ya'ni epik qahramon Tohirning zolim Qoraxonga bergan javoblarida Vatan deganda nimalarni tushunish zarurligi, nima uchun uni sevish va qadrlash insoniy burchga aylangani to'lig'icha o'z ifodasini topgan. Biz alohida ta'kidlagan so'zlarining hammasini jamlab his etsak, anglatgan tushunchalarni birma-bir ko'z oldimizga keltirsak, ularning har biridan ajrash o'zligimizdan ajrash ekanini tushunamiz.

Yuqoridagi tahliliy yondashuvlardan ayon bo'ladiki, o'zbek xalq dostonlarida Vatan obrazi, ona-yurt talqinlari qancha yuksak pafosda, badiiy teranlikda kuylanmasin, muayyan epik makon va epik zamonda o'z ifodasini topgan bo'ladi. Xususan, Chambil, Boysun, No'g'ay, Bog'i Eram va shular singari epik nomlarda yashagan Go'ro'g'li, Avaz, Alpomish, Barchin, Yunus pari, Kuntug'mishdek doston qahramonlari misolida vatanparvarlik g'oyalari ulug'langan, Vatan obrazining takomil bosqichlari talqin etilgan.

XX asrga kelib Vatan obrazining takomil bosqichlari yana bir pog'ona ko'tarildi: xalq baxshilari eposda Vatanga muhabbat g'oyalarini aniq makonda O'zbekiston diyoriga bag'ishlab talqin etilganligi kuzatiladi. Buni dastlab Ergash Jumanbulbul, Po'lkan shoir, Fozil Yo'ldosh o'g'li, Islom shoir Nazar o'g'li, Umir shoir Safar o'g'li kabi doston kuylovchilarining sermahsul ijodida o'z ifodasini topgan bo'lsa, Qodir baxshi Raximov ijodida alohida yuksak pog'onaga ko'tarildi. Bunday qutlug' an'ana XX asrning boshlarida Janubiy O'zbekistonda yashab kelayotgan Qora baxshi, Chori baxshi, Abdurasul baxshi Umirovlar, Xushvaqt

<sup>11</sup> Жуманазаров У. Эргашев А. Бўстонлардан аъло ўзинг бир бўстон. Монография. – Тошкент: “Innovatsiya-Ziyo”, 2021. – Б. 3-4

baxshi Mardonaqulov, Shoberdi baxshi Boltayev, Mamatmurod baxshi Rajabov, Muhammad baxshi Eshboyev, Baxrom baxshi Raximov, Musurmon baxshi, Ochil baxshi singari xalq kuychilarining har biri repertuarlarida bardavom bo‘ldi.<sup>12</sup>

Xullas, xalq ijodida, xususan, dostonlarda Vatan obrazining genezisi va poetik talqini IX-X asrlarda yaratilgan “Alpomish” dostonidan boshlangan bo‘lsada, bu og‘zaki ijod jarayoni uzoq tarixiy bosqichlarni, qariyb o‘n asrni boshidan kechirdi. Muayyan badiiy-estetik omillar asosida eng yuksak bosqichga ko‘tarildi. Eng muhimi, mustaqillik yillarida Vatan madhini rang-barang tarzda badiiy yuksak holatda madh etuvchi xalq dostonlarining hozir ham yaratilayotgani bu jarayonning hamon davom etayotganidan dalolat bera oladi.

Xalq og‘zaki ijodidagi mavjud ijodiy an’analalar faqat yozma badiiy adabiyotning vujudga kelishi uchun asos bo‘lib qolmasdan, balki yuksak badiiy mukammallik kasb etishiga ham zamin bo‘ladi. Shuning uchun har bir davr adabiyotining yuksalishida xalq og‘zaki ijodi ta’sirining turli nuqtayi nazardan o‘rganilishi bejiz emas. Hatto badiiy obrazlar galereyasining shakllanishida, mavzularning turfa xil tarzda talqin etilishida ham uning ta’siri sezilarli darajada ekanligini inkor etib bo‘lmaydi. Badiiy asarlarda folkloridan ijodiy oziqlanish mezonlari muallifning folklor syujetlaridan, uning motivlaridan unumli foydalaniши hamda mavzularga ijodiy yondashuvlari nuqtayi nazaridan o‘rganilishiga bog‘liq bo‘ladi. Chunki syujet va mavzularning badiiy jihatdan qayta ishlanishi o‘ziga xos poetik mahoratni talab etadi. Bu jarayon esa folkloarning yozma adabiyot taraqqiyotidagi o‘rni beqiyos ekanligidan va mustahkam ijodiy aloqadorlikda bo‘lishidan dalolat beradi. Yozma adabiyot taraqqiyotida folkloarning kuchli ta’siri mavjudligi sababli har qanday badiiy matn biror bir muammo nuqtayi nazaridan o‘rganilayotganda, albatta, folklor ta’siri jihatidan ham tahlil qilinadi.

Akademik Naim Karimov: “Har bir adabiyotning milliyligi shu xalq folklori va mumtoz adabiyotning barhayot an’analari bilan, bu an’analarning adabiy

<sup>12</sup> Qarang: Жуманазаров У. Эргашев А. Бўстонлардан аъло ўзинг бир бўston. Монография. – Тошкент: “Innovatsiya-Ziyo”, 2021. – Б.135; Shu mualliflar: Бахшичилик санъати ва достончилик мактаблари. Ўкув кўлланма. – Тошкент: “Innovatsiya-Ziyo”, 2021. – Б.101.

jarayondagi real o‘rni va ishtiroki bilan belgilanadi”<sup>13</sup> deya qayd etganlari asosli. Haqiqatan, milliylik zamirida xalq og‘zaki ijodi va mumtoz an’analarning bugungi vorisi bo‘lgan o‘zbek she’riyati yuksalish sari intildi. Ona-Vatanni kuylashning turfa usullaridan, poetik zalgorni mukammallashtirish yo‘lidan davom etdi.

Folklor milliy mumtoz va zamonaviy so‘z san’atining rivojlanishiga samarali ijodiy ta’sir ko‘rsatdi. Yozma adabiyot shakllana boshlagach, folklor uning shakl va ifoda vositalariga, badiiy xususiyatlariga faol ta’sir ko‘rsatdi. Aslida, xalq og‘zaki ijodidan oziqlanmagan, undan ma’naviy kuch-quvvat olmagan ijodkor yo‘q. Mumtoz adabiyotimizning yetakchi darg‘alaridan Mahmud Koshg‘ariy, Yusuf xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, Lutfiy, Atoyi, Navoiy, Bobur, Ogahiy, Muqimiy, Furqat singari, yangi o‘zbek adabiyotida esa Abdulla Avloniy, Cho‘lpon, Abdulla Qodiriy, Oybek, G‘afur G‘ulom, Hamid Olimjon, Mirtemir, Odil Yoqubov, Primkul Qodirov, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov kabi o‘zbek adabiyotining ko‘plab namoyandalari ijodida xalq og‘zaki ijodi ta’siri sezilib turadi.

Mustaqillik davri o‘zbek adabiyotida ham shoir va yozuvchilarimiz xalq og‘zaki ijodi tajribalaridan o‘rganib va ularni ijodiy rivojlantirib, yangi badiiy tafakkur namunalarini yaratib kelishmoqda. Xurshid Do‘stmuhammad, Nazar Eshonqul, Ulug‘bek Hamdam, Luqmon Bo‘rixon, Faxriyor, Sobir O‘nar, Abduvali Qutbiddin, Matnazar Abdulhakim va boshqa o‘nlab ijodkorlar asarlarida xalq og‘zaki ijodining samarali ta’sirini sezish mumkin. Akademik To‘ra Mirzayev qayd qilganidek, “Mustaqillik sharoitida jamiyat yetukligi, ijtimoiy ong teranligi va inson ma’naviy dunyosi boyligini ta’minlashda, badiiy madaniyatning, jumladan, folkloarning roli va ahamiyati yana-da oshib bormoqda. Zeroki, folklor asarlari ajdodlar va avlodlar jonli aloqasi va vorisligini o‘zida mujassamlashtiradi, xalq ijtimoiy-maishiy hayoti bilan bevosita bog‘langanliklari tufayli har kishiga o‘z xalqi, uning tarixi va kelajagi, istiqboldagi orzu-umidlari bilan vobastalikni his

---

<sup>13</sup> Каримов Н. XX аср адабиёти манзаралари. Биринчи китоб. – Тошкент, Ўзбекистон, 2008. – Б.228.

etishga, amaliy faoliyatda esa yuksak axloqiy ideallarni asos qilib olishga yordam beradi”.<sup>14</sup>

Folklorning yozma adabiyotga ijodiy ta’siri har bir ijodkorning og‘zaki ijod an’analarini o‘zlashtirib, ulardan ijodiy foydalangan holda, o‘ziga xos badiiy mahorat qirralarini namoyon etishi yozma adabiyot taraqqiyotida hamisha muhim ahamiyat kasb etib keladi. Shu jihatdan, boshqa ijodkorlarda bo‘lgani kabi Sirojiddin Sayyid ijodida ham bu an’analar izchillik bilan davom etmoqda.

Shoir ijodida o‘z ifodasini topgan yurtga sadoqat, vatanparvarlik, xalqiga muhabbat, elni ulug‘lash tuyg‘ulari zamirida bevosita xalq dostonlarida talqin etilgan milliy va umumbashariy g‘oyalarning muhim hissasi mavjudligini ta’kidlash lozim. Bu xususida shoирning o‘zi “Harf o‘rganish” she’rida xalq og‘zaki ijodiga bo‘lgan muhabbatini ta’kidlab, o‘zini vatanparvar farzand qilib tarbiyalagan, she’riyatni taqdiriga bitgan ana shu dostonlar ekanligiga urg‘u bergen:

*Dostonlar tilimni ravon qilurlar,  
Ravon suvlar misol so ‘ylaydi tilim.  
Yuraklardan tortib taqdirlargacha,  
Taqdirlardan tortib yuraklargacha  
Oppoq navo yanglig ‘to ‘shalgan  
“Alpomish”ning satrlari –  
bu mening yo ‘lim.* (I, 58)

Shoir qalbidagi nekbin tuyg‘ularning mavjudligi misralarning “quyma” shaklda yuzaga chiqishiga asos bo‘lmoqda. Xalq dostonlari uning tilini “burro” bo‘lishiga zamin bo‘lganligini, buning asosi esa “Alpomish” ekanligini ta’kidlagan.

“Televizor bilan suhbat” she’rida shoир televizorga murojaat qilish barobarida “Alpomish”, “Go‘ro‘g‘li”, “Avazxon” dostonlarini tinglab katta

---

<sup>14</sup> Мирзаев Т. Силсила дostonлар. Қаранг: Гўрўғли. Ўзбек халқ дostonлари. Айтувчи Раҳматилла шоир Юсуф ўғли. – Тошкент, Шарқ, 2006. – Б.3.

bo‘lganini faxr bilan tilga oladi. U “yam-yashil bolaligi”ni o‘g‘irlagan televizorga shunday deydi:

*O‘sha kun so‘rida o‘tirgandim men,*

*“Alpomish”,*

*“Go‘ro‘g‘li”,*

*“Avazxon” tinglab.*

*Sen mening yam-yashil bolaligimga*

*Kirding yolg‘izgina zangor ko‘z bilan.*

*...Meni dostonlardan judo aylading. (I, 98)*

Bolaligini bezab turgan dostonlar va doston qahramonlari shoir uchun shunchalar qadrdonki, televizor sabab ular uzoqlashgani sari u qattiq nadomat chekadi:

*...Otini kishnatib Avazxon ketdi,*

*Yollarida shamol – mening kunlarim. (I, 98)*

Sirojiddin Sayyid vatanparvar shaxs obrazini yaratishda bevosita ana shunday xalq qahramonlaridan andoza olgan va ularni millatning o‘g‘il-qizlari uchun namuna qilib ko‘rsatgan:

*Do‘mbiraning qo‘sh tori yo*

*Oybarchin kokillari –*

*Qirlaringning kiftlaridan*

*tushgan temir yo‘llari.*

*Baland-baland tog‘laringdan*

*g‘urur olmish, qalb olmish,*

*Har qizing bir Oybarchindir,*

*har o‘g‘ling – bir Alpomish. (IV, 129)*

Yoki “Suv keltirgan elda aziz” she’rida shoir “Alpomish” dostonidagi “*Ot chopsa gumburlar tog‘ning darasi*” misrasini keltirish orqali dostondagi qahramonlik, vatanparvarlik g‘oyalarini zamonaviy adabiyotga, xususan, o‘z she’riyati ruhiyatiga olib kirgan:

*Ming yillardir garchi asr-u zamonlarning orasi,*

*Ot chopsa gar gumburlaydi hamon tog ‘lar darasi.*

*Insoniyat ibtidosin Teshiktoshga qaratgan,*

*Mard elimsan, or-nomusning qo ‘rg‘onlarin yaratgan. (IV, 127)*

“Alpomish” dostonidagi har bir misra shoir shuuriga singib ketgan. Dostondagi “*Ustimizdan o ‘tgan oylar*” misrasi baxshiyona talqin etilib, xalqona poetik mushohadalar sifatida shoir misralari qa’riga singdiriladi:

“*Ustimizdan o ‘tgan oylar*”

*Yarim edi to ‘lin edi.*

*Ko ‘nglim edi, ko ‘ngling edi*

*Ustimizdan o ‘tgan oylar.*

*Suvlar u payt billur edi,*

*Ketmasak ham bo ‘lur edi.*

*Bir narsani bilur edi*

*Ustimizdan o ‘tgan oylar. (II, 13)*

Misralarga nazar tashlar ekanmiz, “o‘tgan oylar” zamonning taloto‘plarini anglashga, tarixdan saboq olishga undaydi. Shoirning lirik kechinmalari qoliplarni inkor etadi, tuyg‘ular olamini ma’lum bir shakllarga solib bo‘lmasligini isbotlaydi. Shuning uchun ham xalq ohangida yaratilgan she’rlarida inson qalbini anglash, o‘zlik tamoyillarini his etish an’anasi yetakchilik qiladi. Chunki shoir she’rlarini atayin yod olmaysiz, uni his etish anglashning o‘ziyoq kitobxon qalbidan o‘rin olib borishini ko‘ramiz:

*Kiyik ko ‘zing – suziklarining.*

*Sirg‘alaring, uzuklarining,*

*Sening bilakuzuklarining –*

*Ustimizdan o ‘tgan oylar.*

*Keyin olma rangga to ‘ldi,*

*Qancha qizlar yanga bo ‘ldi.*

*To ‘ylaringda tanga bo ‘ldi.*

*Ustimizdan o ‘tgan oylar. (II, 13)*

Shoirning lirik qahramoni go‘zallikni juda teran his etadi, uning qalbida armonlari bor, bu armonlar esa uni titroqqa soladi, shuning uchun “*ustimizdan o‘tgan oylar*” barcha tarixdan guvoh bo‘lib turganligini urg‘ulaydi. Oddiy, ammo xalqona usuldagи bir qator she’rlarida ham teranlikni, fikriy yaxlitlikni kuzatamizki, buning asosida folklor uslubida yozilgan she’rlarida badiiy mukammallik aks etganining guvohi bo‘lamiz.

Xalq og‘zaki ijodining yana bir mustaqil yo‘nalishi – ertak janri ham Vatan va vatanparvarlik tuyg‘ularini keng talqin etishning qulay vositasi sanaladi. Bu janr namunalardagi markaziy obrazlar har qanday to‘sinq va qiyinchiliklarga qaramasdan yurt manfaati, el tinchligi va farovonligi uchun kurashgan epik qahramonlardir. “...ertaklarning epik qahramoni – xalq ideali. U beqiyos kuch va qudratning obrazli ifodasi, tinchlik, mustaqillik, mardlik, qahramonlik hamda to‘g‘rilik, mehribonlik, adolatparvarlikning ramziy ifodasi. Uning faoliyati yagona maqsad umumxalq manfaati tomon yo‘naltirilgan”.<sup>15</sup> Darhaqiqat, ertaklardagi Tohir, uch og‘a-ini botirlar, Ziyod botir, Baxtiyor botir, Malikayi Husnobod va Husniyabonu singari qahramonlarning har bir harakatida shiddatkorlik, xalqona ruh, vatanparvarlik xarakteri sezilib turadi.

Shu nuqtayi nazarni e’tiborga olganimizda, Sirojiddin Sayyid she’rlarida ertaklardan bahramandlik, ta’kidlangan qahramonlarning yuksak insoniy fazilatlari badiiy talqin etilganligini kuzatdik. Shoir “Ilk og‘riq” she’rida Kenja botir, Tohir va Zuhro kabi ertaklaridagi qahramonlarni tilga olish orqali, birinchidan, ertaklarga bo‘lgan muhabbatini namoyon etsa, ikkinchidan, o‘zini shu qahramonlarga qiyos etgan holda qalbida cheksiz g‘urur tuyadi:

*Osmonlarni xushladim,  
Chaqmoqlarni ushladim  
Va tog‘larga slashdim,  
Bir kenja botir bo‘ldim.*

---

<sup>15</sup> Ўзбек фольклори очерклари. Уч томлик. Иккинчи том. – Тошкент: Фан, 1989. – Б. 70

*Menga bolish – tog‘, sahro,  
Xayolimda – gul Uzro.  
U – yerdagi bir Zuhro,  
Men esa Tohir bo ‘ldim.* (III, 126)

Shoirning lirik qahramoni – ertaklardagi xalq qahramonlarining ezgu fazilatlarini bevosita o‘zida mujassamlashtirgan, ulardagi ijobiy jihatlarni o‘zida shakllantirishga intilgan qahramon sirasiga kiradi. Ijodkor ertaklardagi bu kabi vatanparvar, mard va fidoyi obrazlarni har bir yurt farzandiga o‘rnak sifatida ko‘rsatadi.

Xalq qo‘shiqlari mazmunan serqirra bo‘lib, boshqa folklor janrlaridan ifoda va ijro usuli, ohangi, tasvir kuchi bilan alohida ajralib turganligi ularda kuylangan g‘oyalarning rang-barangligi, ayniqla, millatsevarlik, yurtparvarlik qarashlari xalqona usulda ifoda qilinganligi adabiyotshunosligimizda o‘rganilgan. Vatan kelajagi haqida qayg‘urish, dushmanlardan himoyalash g‘oyalari lirik qahramonning quyidagi murojaatida o‘z ifodasini topgan:

*Alyor bo ‘lsin-ay,  
Xo ‘jam yor bo ‘lsin-ay.  
Xo ‘jam bergen bu davlatga  
Dushman zor bo ‘lsin-ay.*<sup>16</sup>

Vatanni tarannum etuvchi shu kabi xalq qo‘shiqlarini buvisi-yu onasidan eshitib ulg‘aygan shoir ularga ritmik uyg‘unlik, mazmunan hamohanglik kiritadi, usluban sodda va ravon she’rlar yaratadi. Shoir ijodida xalqona ohingga yo‘g‘rilgan, Vatan tasviri mohirona chizilgan ko‘plab she’rlari orasida uning “Bobojonimning Vatani” she’ri mohiyatan xalq qo‘shiqlariga hamohangligi bilan ajralib turganligini ta’kidlash lozim:

*Bobojonimning Vatani,  
Otajonimning Vatani,  
Bolajonimning Vatani,*

---

<sup>16</sup> Ўзбек халқ оғзаки поэтик ижоди. Тошкент: Ўқитувчи, 1990. – Б.128.

*Ko ‘ksimni tog ‘qilib yurdim-ey,*

*Boltalar kesmagan murtim-ey.* (III, 139)

Shoirning keng qamrovli she’riyatini o‘rganish davomida uning lirik qahramoni nafaqat yurtining quvonchli onlarini kuylab qalbi faxr-u iftixorga to‘lganini, xalq iztiroblariga ham darddosh, millat qayg‘usiga yelkadosh bo‘lganligini kuzatdik. Birgina dalil: uning “Hamandardlik” she’rida millat va el tashvishi xalqona usulda ifodalangan:

*Bu safar men so ‘z aytmayin baxtingdan,*

*O‘zingniki bo ‘lgan toj-u taxtingdan,*

*Jindakkina bayon aylay dardingdan,*

*Kech kuzlarda zirqiragan belim-ay,*

*Belin ushlab elim degan elim-ay!* (II, 300)

Ijodkor xalq qo‘shiqlarining ruhi, ohangi, obrazlari, fikr va kechinmalarini, ularning ifodalanish usullarini chuqur anglagan. Buni esa uning asarlari aniq ko‘rsatib turadi.

Sirojiddin Sayyid og‘zaki ijodning turli janrlaridan unumli va samarali foydalana olgan. Ayniqsa, xalq maqollarida ilgari surilgan qarashlarni stilizatsiya usuli yordamida she’rlariga mohirona singdirib yuborgan va bu jihat ijodkorning yuksak poetik mahoratidan dalolat beradi:

*O‘tar dunyo – biz mehmon,*

*Har giyohdan terdik don.*

*Eling omon bo ‘lganda,*

*Yurting ham bo ‘lar qo ‘rg‘on.* (III, 103)

Shoir “El-u yurting omon bo ‘lsa, rang-u ro‘ying somon bo ‘lmas” maqolidagi asrlar davomida xalq donishmandligi asosida vujudga kelgan qimmatli fikrlarni mahorat bilan tasvirlaydi. “Do‘mbiradan aytilgan” deb nomlangan bu she’r Shoberdi baxshiga bag‘ishlangan, undagi kechinmalarga singdirilgan badiiy mazmun juda asosli ifodalangan. Quyida esa “Bulbul chamanni sevar, odam – Vatanni” maqolida bayon etilgan fikrning shoir lirik ijodidagi ifodasiga e’tibor qarataylik:

*Bulbul yashay olmas chamansiz, ona,  
Inson xor bo 'lgaydir Vatansiz, ona.  
Vatan barchamizga buyuk Onadir,  
Siz buyuk Vatansiz, Vatansiz, ona.* (IV, 86)

Bulbul chamanzorsiz yashay olmagani kabi insonning ham Vatansiz umrguzaronlik qilishi juda og'irligiga, Vatanning ham onaday mo'tabar va yagonaligiga urg'u berilgan. Bu misralar har qanday kitobxонни sergak tortishga, mulohaza qilishga undashi tabiiydir.

Shoir boshqa bir o'rinda *irsoli masaldan* unumli foydalanib, "O'z uying – o 'lan to 'shaging" xalq maqolini ham badiiy stizilatsiyalashtiradi:

*O'z uying – o 'lan to 'shaging,  
Bo 'stoning bor, chamaning bor.  
Asrlar kelar yashaging,  
Boqib to 'ymas Vataning bor.* (IV, 117-118)

Yana bir she'rida mazkur maqol mohiyati quyidagicha ifoda etilgan:

*Eng buyuk baxt – o 'z quyosh, o 'z oyining ekan,  
O'z makoning, o 'z uying, o 'z joying ekan.* (III, 410)

Shoir ijodidan o'rin olgan Vatan mavzusi keng qamrovga ega. Bu hodisa ijodkor mahorati bilan bevosita uzviy bog'liq. Shoir she'riyatidagi, har bir misrasidagi lirik qahramon kechinmalarining badiiy ifodasi muallifning mavjud an'analardan oziqlanishini, bahramandlik asosida Vatan mavzusini ifodalashda o'ziga xos va boshqalardan farqlanuvchi uslub egasi ekanligini ko'rsatadi.

"O'zbek-turkman manzumasi" she'rida "*Yolg'iz otning changi chiqmas, changi chiqsa ham dong'i chiqmas*", "*Birlashgan o'zar, birlashmagan to'zar*" singari xalq maqollari mohirlik bilan misralar qa'riga singdirilgan:

*Yolg'iz otning dong'i chiqmayin to 'zar,  
Oqil zotlar Vatan qurib, el tuzar,  
Birlashmagan to 'zar, birlashgan – o 'zar,  
Ahd-u paymonlari turkman, o 'zbekning.* (III, 340)

“Birlashgan el” she’ridagi mohiyat o‘z takomiliga yetgan, ya’ni u bundan-da ta’sirchan bo‘lib, insonlarni birdamlikka, Vatan taraqqiyoti uchun jipslashishga undagan:

*Birlashmagan el doim xor bo‘lar, talosh bo‘lar,*

*Bunday elning bag‘ri dog‘, ko‘zlarida yosh bo‘lar.* (IV, 146)

Sirojiddin Sayyid she’riyatini o‘rganar ekanmiz, uning lirik qahramonidagi tizginsiz kechinmalar, o‘y-u xayollarning barchasi insondagi o‘zlikni anglashga chorlaganligini kuzatdik.

Ayniqsa, Vatanning poetik obrazini yaratishda xalq maqollaridan unumli foydalanishi zamirida hayotga mehr bilan qarash, uni teranroq tushunishga bo‘lgan intilish, zamondoshlarni turfa olamni anglashga chorlash niyati bilan birga, o‘z qalbidagi chin insoniy fazilatlar va vatanparvarlik g‘oyalarining ta’sirchanligini oshirish maqsadi ustuvorligiga amin bo‘ldik.

Shoir haqiqatni boricha poetik tasvirlab, xulosani zukko va ziyrak kitobxon hukmiga qoldiradi. Shu bilan birga, imonli inson ruhiyatidagi xususiyatlarni – ulug‘lik va insoniylikni, Vatan qadri va qudratini o‘ziga xos uslubdagi pafos bilan ifodalashga harakat qilgan. Shoir she’riyatiga qayta-qayta murojaat qilar ekanmiz, lirik ifodalarga xalq og‘zaki poetik ijodi ruhiyatining samarali ta’sirini, folklor an’analariga ijodiy yondashib, lirik qahramon fazilatlari va donishmandligini xalq ohanglari asosida tasvirlashga va uning xarakteriga singdirishga harakat qilganligi va buning uddasidan chiqqanligini kuzatdik.

Vatan mavzusi insoniyat tamaddunining barcha davrlarida badiiylikning asosiyligi tasvir obyektlaridan biri sifatida e’tirof qilingan. Turkiy xalqlarning madaniy yodgorligi hisoblangan O‘rxun-Enasoy toshbitiklarida bu mavzu juda go‘zal tarzda ifodalangan. Mazkur tarixiy manbalarga nazar tashlar ekanmiz, o‘z davrining buyuk yo‘lboshchilari Bilga xoqon, To‘nyuquq, Kul Tiginning el-yurt mudofaasi uchun mardonavor kurashlari, qat’iyatli chaqiriqlari zamirida insonni, borliqni, olamni, Vatanni muhofaza etishga davat talqinlarining mavjudligini ko‘ramiz. Ilk yozma manbalardayoq Vatan tushunchasining o‘ziga xos turfa talqinlari barobarida Vatan obrazining genezisi namoyon bo‘ladi.

“Bilga xoqon” bitiktoshida Vatan tuyg‘usi yuksak pafosda talqin qilingan. Bilga xoqon turk xalqining abadiy ozod bo‘lishi uchun kurashgan, Vatanni asrash faqat xoqonning o‘ziga emas, xalqqa ham bog‘liqligini uqtirgan hukmdordir. Qadimgi bitiktoshda Bilga xoqonning davlatniadolatli boshqarganligi, ko‘pgina xalqlarni birlashtirgani hamda mamlakatni iqtisodiy jihatdan yuksaltirgani, xoqonning bu sifatlarini Yo‘llug‘ tigin tomonidan mahorat bilan tasvirlaganini akademik Aziz Qayumov ham alohida e’tirof etadi.<sup>17</sup>

Bitiktoshda Bilga xoqon tilidan “O‘zim xoqon bo‘lib turganimda to‘rt jihatdagi xalqni tuzatdim, tikladim”, – deya ta’kidlanadi.<sup>18</sup> Hali davlatchilik asoslari endi shakllanayotgan, yagona davlat tuzishga intilishlar kuzatilayotgan ziddiyatli, murakkab bir davrda bu kabi mardonavor harakatlarni juda yuksak baholash o‘rinlidir.

Xoqon fikricha, budun (el) o‘z xoqonining yo‘l-yo‘riqlarini amalga oshirishi lozim, aks holda boshiga ko‘p kulfatlar kelishi mumkin.<sup>19</sup> Ayni g‘oya Sirojiddin Sayyid ijodida ham o‘ziga xos uslubda berilgan:

*U ne yanglig‘ xalq bo‘lgaydir, millat bo‘lgay,  
Elningki o‘z peshvosiga vafosi yo‘q.* (III, 38)

“To‘nyuquq” – bitiktoshlar orasida Vatan mavzusi keng talqin etilgan, Vatan obrazining genezisini belgilovchi epik durdona sanaladi. Uning asosiy syujetida vatanparvar shaxsning yurtparvarlik qarashlari o‘z ifodasini topgan. “To‘nyuquq yodnomasining har bir satrida Vatan va vatanparvar shaxs obrazi bor. Vatan tushunchasi, vatanparvarlik va erk g‘oyalari asosiy o‘rin tutadi”.<sup>20</sup> Ushbu matnning boshidan so‘ngiga qadar To‘nyuquqning qahramonligi, vatanparvarligi, yurt ravnaqi uchun jonkuyarligi epik bayon qilingan. Unda nafaqat To‘nyuquqning, balki ozodlik va erk uchun kurashgan butun turk elining armon-u iztiroblari, ellik

<sup>17</sup> Каюмов А. Қадимият обидалари. – Тошкент, 1973. – Б.109.

<sup>18</sup> Қадимий ҳикматлар. Фафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, Тошкент: 1987 – Б.33.

<sup>19</sup> Н.Рахмон. Турк ҳоқонлиги. Тошкент: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 1993. – Б.72.

<sup>20</sup> Н.Рахмон. Турк ҳоқонлиги. Тошкент: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 1993. – Б.83.

yil tabg‘achlar zulmi ostida yashagan turk xalqi asta-sekin uyg‘onib, o‘zligini anglay boshlagani tasvirlanadi.

U.Jumanazarovning ta’kidlashicha, o‘z xalqiga sadoqatli, mard va bahodir sarkarda To‘nyuquq kimga qarshi va nima maqsadda kurashayotganini aniq bilgan, do‘sit va dushmanni farqlay oladigan qahramondir. Uning oljanobligi ham shundadir. Bu narsa quyidagi momentda ham ko‘zga tashlanadi: To‘nyuquq boshchiligidagi qo‘sishin dushman bilan jang qilish uchun “Irtish suvini kechiksiz kechib”, “Oltin Yushni yo‘lsiz otib”, “Balchuchka” degan joyga tong otish paytida yetib keladi. Shu payt qo‘lga tushgan bir asir “Yoruz cho‘lida o‘n ming dushman terilgandir”, – degan xabarni beradi. Asirning xabari ba’zi beklarni sarosimaga tushirib qo‘yadi. Ular hatto orqaga qaytishni maslahat beradilar. Ana shunday qiyin vaziyatda tadbirkor sarkarda To‘nyuquqning sobitligi, vatanparvarligi o‘z beklariga aytgan so‘zlarida yana-da anqlik, yorqinlik kasb etadi:

*Men bunday dedim:*

*Men Bilka To‘nyuquq,*

*Oltin Yushun osha keldim.*

*Irtish suvin kecha keldimiz.*

*Kechganlar alplar, dedim...*

*Nega to‘zarmiz, ko‘p deyin,*

*Nega qo‘rqarmiz, oz deyin,*

*Nega yengilamiz, bosamiz, dedim.<sup>21</sup>*

Qo‘rqmas jangchi To‘nyuquqning murojaatidan so‘ng shiddatli jang boshlanadi. Bu jangda To‘nyuquq qo‘sishnlari g‘alaba qiladi. G‘alabaning ertasi kuni Yabg‘u qabilasi bilan jang qiladi va dushmanlarning bir qismini asir oladi, qolgan qismini jang maydonida o‘ldiradi. To‘nyuquq qo‘sining harbiy yurishlari va bu yo‘ldagi erishgan zafarlari, qolaversa, muayyan voqealarning real tasviri bitikda asosiy o‘rinni egallaydi.

*Yoydimiz, qozonin tutdimiz,*

*Yabg‘usin, shodin unda o‘ldirdi.*

---

<sup>21</sup> Каюмов А. Қадимият обидалари. – Тошкент, 1972. – Б.121-122.

*Ellikcha er tutdimiz...<sup>22</sup>*

Mazkur yozuvda To‘nyuquq boshliq turk qabilalarning dushmanlarga qarshi olib borgan shiddatli jang epizodlari birma-bir bayon qilinadi. Muallif jangdagi mardona harakatlarni bayon qilish orqali, bir tomondan, turk qabilasining bosh sarkardasi To‘nyuquqning shaxsiy bahodirligi va qahramonligini ko‘rsatsa, ikkinchidan, muayyan qabilalar o‘rtasidagi urush va janglarning tarixan aniq sodir bo‘lganligini ham ta’kidlaydi.<sup>23</sup>

“Kul Tigin” bitiktoshi jasoratlari Bilga xoqonning ukasi sharafiga qo‘yilgan bo‘lib, unda uning faqat qahramonligi madh etilibgina qolmagan, balki Turk xoqonligidagi ijtimoiy-siyosiy turmush, davlat va xalq o‘rtasidagi munosabat, mamlakatni boshqarishda xoqonlarning layoqati, vatanparvarligi talqinlari o‘z ifodasini topgan. Professor N.Rahmonov bitiktoshda “xalq va davlat taqdiri” hikoyachining diqqat markazida turishini ta’kidlaydi.<sup>24</sup>

Kul Tigin nomiga bitilgan yozuvlarda tasvirlanishicha, xoqonlikning bosh qo‘mondoni Kul Tigin 20 yasharligida sug‘d aholisining bir qismiga so‘ngra Tabg‘achlarga qarshi yurish qiladi. Tabg‘achliklik sarkarda O‘ng Tutuq boshchiligida 5000 qo‘shin (yozuvda 5 tuman deyilgan, **U.J.**) Kul Tigin askarlariga qarshilik ko‘rsatadi. Ikki tomon o‘rtasida shiddatli jang boshlanadi. Bu urushda Kul Tigin piyoda holda dushmanga tashlanib, katta mardlik va qahramonlik namunalarini ko‘rsatadi. Tabg‘achliklarning bosh sarkardasi O‘ng Tutuqni qurol yarog‘i bilan asir oladi va uni Qog‘on huzuriga olib keladi:

*Olti So‘g‘d o‘lkasiga qarshi  
Yurish qildimiz, buzdimiz,  
Tabg‘ach O‘ng Tutuq besh tuman askar tortdi,  
Urushdimiz.  
Kul Tigin piyoda holda dushmanga tashlandi,  
O‘ng Tutuqning yaroqli zirhli qo‘lini tutdi.*

<sup>22</sup> O‘sha asar. – B. 164.

<sup>23</sup> Жуманазаров У. Эргашев А. Бўстонлардан аъло ўзинг бир бўстон. Монография. – Т.: “Innovatsiya-Ziyo”, 2021. – Б.24-25

<sup>24</sup> Н.Рахмон. Турк ҳоқонлиги. Тошкент: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 1993. – Б.65

*Yaraqlig‘ zirqlikda qozonga duch keltirdi,  
U qo‘sinni o’sha o’rda yo‘q qildik biz.*<sup>25</sup>

Ushbu bitikda turkiy xalqlarning qahramonlik haqidagi ideallari, mardlik tuyg‘usi yorqin ifodasini topgan. Undagi qahramonlik, jasoratni ulug‘lash, mardlik motivlari vatanparvarlik tuyg‘usi bilan mantiqiy aloqadorlikda beriladi. Bitikning butun ruhi xalq va Vatan uchun qayg‘urish, uning tinch va osoyishta, to‘q va farovon yashashini ta’minalash yo‘ldagi intilishlar bilan chambarchas bog‘liq.

Bitik qahramoni hamma vaqt o‘z eli, o‘z diyorining g‘am-alamiga sherik bo‘ladi, shu el, shu diyor uchun jon kuydiradi. Uni dushmanlar hujumidan ehtiyoj bo‘lishga chaqiradi, ayrim nodon xoqonlarning bu yo‘lda yo‘l qo‘ygan xato qilmishlarini qattiq qoralaydi. Qahramonning o‘z qabilasi va yurtiga bo‘lgan vatanparvarlik tuyg‘ulari, ayniqsa, ularni yagona xalq sifatida birlashtirishida, hayoti va turmushini yaxshilashida yana-da yorqinlik, ta’sirchanlik kasb etadi. Qahramonning bu yo‘ldagi xayrli ishlari bitiklarda ichki monolog tarzida berilgan:

*Kuchim bor uchun, ulug‘im bor uchun,  
O‘layotgan budunni tiriklikka ko‘tardim  
Yalong‘och budunni to‘nli,  
Jig‘oy budunni boy qildim,  
Oz budunni to‘kis qildim,  
To‘g‘ri elga yaxshilik qildim.  
To‘rt bo‘limdagи budunni  
Tinch qildim.*<sup>26</sup>

Ichki monologda qahramonning fidoiyligi, el yurt, ona Vatan taqdiriga qay vaziyatda bo‘lmasin daxldorligi o‘ta ishonarli yoritilgan. Bitiklarda Kul Tiginning ana shunday mardona harakatlari, yurishlari va bu yo‘ldagi g‘alabalari birma-bir bayon qilinadi. Ularda ona Vatani, xalqining hayoti va osoyishtaligini saqlab

<sup>25</sup> Каюмов А. Қадимият обидалари. – Тошкент, 1972. – Б.146-147.

<sup>26</sup> O‘scha asar. – B.146-147.

qolish uchun astoydil harakat qilgan, tadbirli boshliq, mohir sarkarda hamda qahramon jangchining o‘ziga xos shakl-u shamoyilini ko‘ramiz.<sup>27</sup>

Sirojiddin Sayyid bitiktoshlardagi Kul Tiginning kuchli siyosatli rahbar ekanligining asosi tarqoq xalqni birlashtirishi, uni to‘kis va badavlat qilishdagi samarali faoliyati, eng muhimmi “yurt sardori xalq va Vatan uchun hamisha javobgar”ligi g‘oyasidan ijodiy ta’sirlangan, undagi fikrlarni mantiqan rivojlantirgan va boyitgan:

*Ya ’ni mas ’ul erur har kim har ishda,*

*Xalq-u Vatan uchun mas ’uldir podshoh.* (I, 88)

Ijodkorning “Mening shoirligim” she’rini mutolaa qilar ekanmiz, unda ham To‘nyuquq, Bilga xoqon, Kul Tigin singari el-yurt fidoyilarining hayot yo‘lini badiiy gavdalantirganligi va ular kabi Vatanga o‘zini daxldor, mas’ul ekanligini his qilishi, insonning avvali ham, oxiri ham Vatan ekanligiga iqror keltirganiga amin bo‘ldik:

*Ulug ‘lar hokini ko ‘zlarga surtdim,*

*Vatanday muhtasham so ‘zlarga surtdim.*

*Bularsiz hech mening she ’rim, tugalmas,*

*Bular bordir – mening she ’rim tuganmas.*

*Uning qo ‘rg ‘oni yuz ming jon va tandin,*

*Vatandin boshlanib, bitgay Vatandin.* (III, 67)

Tadqiqotda qo‘yilgan muammoning yechimini topish uchun ilk yozma manbalarda Vatan obrazi talqinining genezisini aniqlash maqsadida “Avesto”ga murojaat qilishni lozim topdik.

“Avesto” falsafasida insonga xos bo‘lgan poklik, ezgu niyat, pokiza tuyg‘u, tuproqni muqaddas bilish, Vatanni anglash singari olajanob fazilatlarni yuksak axloqiy me’yorlar va tafakkur tarzi orqali ifoda etadi.<sup>28</sup> Haqiqatan ham, qadimgi yozma manbalardan hisoblangan Markaziy Osiyo va Eron xalqlarining noyob

<sup>27</sup> Жуманазаров У. Эргашев А. Бўстонлардан аъло ўзинг бир бўстон. Монография. – Т.: “Innovatsiya-Ziyo”, 2021. – Б. 27-28

<sup>28</sup> Авесто. (Асқар Махкам таржимаси) – Тошкент: Шарқ, 2001. – Б.6.

yodgorligi “Avesto”da yurt birligi, tabiatni asrash, Vatanni dushmandan himoyalash singari g‘oyalar yetakchilik qiladi:

*Makonni asragaymiz,  
Tark etmay uni aslo!  
Xonadonni asraymiz,  
Urug ‘ni asragaymiz,  
Elni tark etmagaymiz,  
Mamlakatni avaylab,  
Dushmandan qudratli qo ‘l,  
Asragan kabi barin.*<sup>29</sup>

Abu Rayhon Beruniyning fikricha, “Avesto” davlat yaxlitligi va birligini ta’minlashda, boshqaruvda umummanfaat va g‘oyalar mushtarakligini vujudga keltirishda muhim dastur hisoblangan. Manbada ilk davlatchilik qurilishi, ya’ni ilk shaharlar va ularning atroflari tuzilishi yoritilgan. Asardagi barcha g‘oyalar yurt tinchligi va xalq farovonligi atrofida birlashadi. Uning “Yasht” qismida ma’budlar madhiga bag‘ishlangan 6-bo‘limidagi misralar mazmunini ham Vatanni sharaflash, uning ravnaqi uchun xizmat qilish tashkil etadi:

*Men – Ahura Mazda uning Yaratguvchisi,  
Parvardigori,  
Xonadonlar va qishloqlar,  
Viloyatlar, mamlakatlar yashnasin uchun,  
Qo ‘riqlash uchun,  
Hifa-himoyat qilmoq uchun  
Bunyod ayladim.*<sup>30</sup>

“Avesto” saboqlaridan bahramand bo‘lgan iste’dodli shoir Sirojiddin Sayyid saylanmasining to‘rtinchi jildidan o‘rin olgan “Matonat manzumasi” bobidagi har bir she’r bilan tanishganimizda, eng avvalo, ular “Avesto”dagi vatanparvarlik, yurtsevarlik g‘oyalariga hamohang ekanligini kuzatdik. Xususan

<sup>29</sup> Адабиёт (Мажмua). Тошкент: Cho‘lon, 2007 – Б.11.

<sup>30</sup> Авесто. (Асқар Махкам таржимаси) – Тошкент: Шарқ”, 2001 – Б.172.

“Suv keltirgan elda aziz” she’rida xalq shodligi va yurt obodligini orzular ekan, buning uchun har bir farzand Farhod kabi elga naf keltiruvchi bo‘lmog‘i zarurligini ta’kidlagan:

*El shod bo ‘lib, mamlakat ham obod bo ‘lmog‘i kerak,*

*Har bir farzand eng kamida Farhod bo ‘lmog‘i kerak! (IV, 130)*

“Obod qishloq manzumasi”da esa el obodligiga kamarbastalikni mardlik, matonat deya ta’riflagan shoir xalqni rozi qilmoqlikni ulug‘lik belgisi sifatida e’tirof etadi. Bunday qarashlar “Avesto” va O‘rxun-Enasoy obidalarida kuylangan vatanparvarlik g‘oyalariga bevosita uyg‘un keladi:

*Bir ko ‘ngilni shod aylamoq mushkul erur bag ‘oyat,*

*Butun elni obod qilmoq mardlikdir ham matonat.*

*Bu xislatlar poyqadami qutlug ‘larning ishidir,*

*O‘z xalqini rozi qilmoq ulug ‘larning ishidir. (IV, 138)*

“Matonat manzili” she’rida bir manzilning obod bo‘lishi minglab ko‘ngillarning obodligiga tenglashtirilar ekan, bunda ham xalq manfaati va el farovonligi birinchi e’tiborda ekanligiga urg‘u beriladi:

*Bir manzil gar obod bo ‘lgay, ming ko ‘ngil obod bo ‘lgay,*

*Go ‘yo ming bir dard-u g ‘amdan ming ko ‘ngil ozod bo ‘lgay.(IV, 141)*

Xullas, xalq og‘zaki ijodi va ilk yozma manbalarning sezilarli ijodiy ta’siri barcha zamonlarda yaratilgan badiiyat namunalarida yaqqol ko‘rinadi. Sirojiddin Sayyidning bu boradagi yuksak mahorati shundaki, folklor va yozma manbalardagi Vatanparvarlikka oid fikr-qarashlarini zamonaviy badiiy dunyoqarash mezonlari asosida ijodiy qayta ishlab, ularni hozirgi davr tafakkuriga moslashtirgan holda go‘zal badiiyat namunalarini yaratgan.

## 1.2.-§. Mumtoz adabiyot an’analarining Vatan obrazi talqinidagi poetik sintezi

Milliylik o‘zlikni anglashdan boshlanar ekan, ma’naviy merosning har bir jabhasida, insonning bu yo‘ldagi urinishlari, xatti-harakatlarida o‘z xalqining manfaatlarini, Vatanining ozodligini, uning go‘zalligini his etishga intilish

yetakchilik qiladi. Shuning uchun ham har bir jarayonda Vatanga bo‘lgan intilishni, uning go‘zalligini bir lahma bo‘lsa-da, tarannum etishga bo‘lgan harakatni mumtoz asarlarda ham kuzatamiz. Bu esa uzoq yillik va buyuk o‘tmishiga ega bo‘lgan xalqning ijodiy an’analari asrlar davomida yashovchanligini namoyon etib kelayotganidan darak beradi.

O‘zbek mumtoz adabiyoti nihoyatda boy. Janrlar rang-barangligi, mavzular ko‘lami kengligi, har bir ijodkorga xos uslubiy jilolar bugungi kunda zamonaviy o‘zbek adabiyoti rivojiga katta ta’sir ko‘rsatib kelmoqda. Shoир va adiblarimiz mumtoz adabiyotimizning yetuk namunalarini o‘qib, o‘rganib, an’analarni ijodiy rivojlantirish, boyitish bilan umrboqiy asarlar yaratmoqda. Mumtoz adabiyotimiz bitmas-tuganmas xazina, badiiy so‘z san’atining dur-u javohirlariga to‘la. Undan bahramand bo‘lmasdan, an’analarni, tajribalarni o‘zlashtirmasdan, ularni ijodiy rivojlantirmasdan bugungi adabiyot rivojini tasavvur qilish mumkin emas. Hozirgi adabiyotimizning yirik vakillari ijodiga e’tibor qaratsak, ularning har biri mumtoz adabiyotimizdan u yoki bu darajada o‘rgangan, tajriba va an’analarni rivojlantirgan va adabiy ta’sir natijasida mukammal asarlar yaratib kelayotgani ko‘zga tashlanadi. Hamza, Fitrat, Cho‘lpon, Elbek, Botu singari o‘tgan asr boshlarida adabiyot maydoniga kirib kelgan shoirlar barmoq vaznining she’riyatimizda asosiy she’r o‘lchovi darajasiga ko‘tarilishiga ulkan hissa qo‘shish bilan birga, bu vaznda yaratilgan asarlarida mumtoz adabiyot usul va vositalarini muvaffaqiyat bilan qo‘lladilar. Ulardan keyingi avlod barmoq vazni imkoniyatlarini qadim badiiy-poetik an’analalar bilan yana-da boyitdilar. Xususan, Oybek, Usmon Nosir, G‘afur G‘ulom, Hamid Olimjon, Mirtemir, Shayxzoda ijodida ayni holni kuzatish mumkin. Bu borada XX asrning ikkinchi yarmida poeziya maydoniga kirib kelgan Erkin Vohidov va Abdulla Oripov xizmatlarini alohida ta’kidlash lozim. Shunday an’analardan bahramand bo‘lgan holda davom ettirib kelayotgan yana bir zabardast shoир Sirojiddin Sayyiddir.

Mumtoz janrlarda yetuk ijod qilgan shoir Erkin Vohidov to‘rt jildlik<sup>31</sup> saylanmasini Alisher Navoiyning “Xazoyin ul maoniy”siga munosib tarzda jamlaydi va birinchisini – “Ishq savdosi” (o‘smirlik, yoshlik asarlari), ikkinchisini – “She’r dunyosi” (o‘rta yoshda bitilgan asarlar), uchinchisini – “Umr daryosi” (ellik yoshdan so‘ng yozilgan asarlar), nihoyat, to‘rtinchisini – “Ko‘ngil nidosi” (turli yillarda yozilgan risolalar, badiiy lavhalar, tahlillar) nomlari bilan ataydi. Sirojiddin Sayyid ham o‘z ijodini 4 jildlik qilib chop ettirar ekan, azaliy an'anaga muvofiq Navoiy va Erkin Vohidov kabi o‘z she’rlarini yosh davrlariga ko‘ra ketma-ketligida joylashtiradi hamda har bir jildda mumtoz janrlarda yozgan she’rlarini alohida maxsus boblar bilan berib, quyidagicha nomlaydi:

I jild – “Dil bilan dil o‘rtasida” (G‘azal mashqi)

II jild – “Hayotim bog‘ining sarviravoni” (G‘azal daftari)

III jild – “Chamandirsan chamandan tashqarida” (G‘azal daftari)

IV jild – “Ochil, ey gul, ki bo‘ston vaqt bo‘ldi” (G‘azal daftari)

Shoirning har bir jildda alohida bob sifatida berilgan mumtoz janrlardagi namunalarini o‘qir ekanmiz, uning mumtoz adabiyotimiz vakillari ijodini chuqr o‘rganganligi, ular ijodidan o‘zgacha ilhomlanganligi va aruz ilmidan yaxshigina xabardor ekanligining guvohi bo‘lamiz. Sirojiddin Sayyid she’riyatida mumtoz adabiyotning ta’sirini quyidagi ijodiy omillarda kuzatdik:

1) shoirning g‘azal, muxammas, masnaviy kabi janrlarda samarali qalam tebratganida;

2) mumtoz adabiyotda yetakchilik qilgan mavzularga hamohang yaratgan she’rlarida ilgari surilgan badiiy-estetik tamoyillarda;

3) Sharq adabiyotida mavjud badiiy obrazlarga munosabati va ular qatorining yangilanishida;

4) badiiy talqinlardagi poetik tasvir ifodasining o‘ziga xosligi, salaflar va ustozlar an'analariga munosabati va novatorligida.

Mumtoz adabiyotda Vatan obrazining o‘ziga xos poetik talqinlari xususidagi mulohazalarimizni berishda yozma badiiy adabiyotimizning ilk namoyandalaridan

<sup>31</sup> Эркин Вохидов. Сайланма. 1-4 жиллар. –Т. “Шарқ” нашриёти, 2000-2001.

– Mahmud Koshg‘ariy va Yusuf xos Hojib ijodiga qisqacha to‘xtalish barobarida ularning Sirojiddin Sayyid ijodiga ta’siri masalasiga e’tiborni qaratamiz. Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asarida turkiy xalqlarning tili, madaniyati, tarixi, etnografiyasi, geografiyasi tadqiq etilishi barobarida, bevosita Vatanning umumlashma badiiy obrazi yaratilganini ko‘rish mumkin. Asardagi she’riy parchalarda tabiat hodisalari, yil fasllari, hayvonot, nabotot, butun koinot tasviri Vatanning bir uzvi sifatida keladi. Shu bilan bir qatorda, xalqparvarlik, ezgulik, mardlik, jangovarlik kabi yuksak insoniy fazilatlar tasvirida ham vatanparvar shaxs obrazi namoyon bo‘lgan:

*Ulug‘liging oshsa gar,*

*Xushxulq bo‘lg‘il.*

*Bek yonida xalqlar uchun*

*Xo‘b ish qilg‘il.<sup>32</sup>*

Mazkur misralarda azaliy ma’naviy-ma’rifiy qadriyatlardan biri – inson martabasi qanchalik oshsa ham, o‘zida xalqparvarlik va vatanparvarlik fazilatlarini saqlab qolishi lozimligi qayd etilganligini kuzatamiz.

“Devonu lug‘otit-turk”da harbiy mavzudagi ayrim to‘rtliklarda askarlarni vatanparvarlikka da’vat etish, yurtni himoya qilish uchun harbiy rejalar tuzish, g‘alaba shukuhi, ozodlikni qadrlash ruhi ustuvorlik qilgan:

*Dushman yo‘lin o‘raylik,*

*Otdan tushib uraylik,*

*Arslon kabi turaylik,*

*Yovning kuchi bo‘shashgan.<sup>33</sup>*

Ushbu to‘rtlikda yurt ozodligi uchun askarlarga da’vat, chaqiriq ohangi sezilib turganligi bois nafaqat badiiy qimmati bilan, balki Vatan himoyasi uchun yaratilgan nizom, yo‘riqnomalari xarakterida ekanligi uchun ham muhim ahamiyat kasb etgan.

---

<sup>32</sup> Каюмов А. Асарлар. 10 жилдлик. 10-жилд. Қадимият обидалари. – Тошкент: MUMTOZ SO‘Z, 2010. – Б.17.

<sup>33</sup> O‘sha asar. – B.34.

Asardagi “Alp Er To‘nga” marsiyasida Afrosiyobning vatanparvar shaxs, xalqparvar sardor ekanligiga urg‘u berilib, xalqning odil hukmdor, elparvar boshliqsiz qolishi ulkan fojea sifatida talqin etilgan:

*Alp Er To‘nga o‘ldimu,*

*Essiz olam qoldimu,*

*Dunyo o‘chin oldimu?*

*Endi yurak yirtilur.*<sup>34</sup>

Yusuf xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asari pandnoma ruhida yaratilgan bo‘lib, unda keltirilgan aksar fikr va g‘oyalarda ham xalqning baxtiyorligi va farovonligi, davlat tinchligi va el manfaatlari masalalari o‘z ifodasini topgan. Xususan, asarning “Mulkka loyiq bek qanday bo‘lishi haqida” bobida Elig va O‘gdulmishning savol-u javoblarida bu jihat yaqqol ko‘zga tashlanadi: “Bekning so‘zлari chin, qilish-qilmishlari to‘g‘ri bo‘lishi kerak, xalq unga ishonib baxtiyor yashashi kerak”.<sup>35</sup> Asarda adib “Haqiqiy yurt sardori qanday bo‘lishi lozim?” degan savolga javob izlab, yetuk rahbarning mukammal poetik tasvirini yaratgan. Shoir talqinicha, bunday inson Vatan uchun har qanday to‘siqlarni yengishga qodir, yurt himoyasi uchun g‘ayrati jo‘sh urgan, yurtni yovdan asray oladigan, hatto Vatani uchun o‘z jonidan kechishga tayyor holda bo‘lmog‘i zarur:

*Boq, botir ot chopib dushman boshin yer,*

*Yo uni qul qilar, yo olar asir.*

*Yov ko‘rsa mardlarning g‘ayrati jo‘shar,*

*Boshqaga hech navbat bermay urushar.*

*Lashkar yetsa, botir, mardlar sher bo‘lur,*

*Ot surar, o‘ldirar, yo o‘zi o‘lur.*<sup>36</sup>

Shoir ta’biricha, el farovonligi ko‘p jihatdanadolatli, xalqparvar bekka bog‘liq. Adib bob markaziga “Yurtga bek bo‘ladigan sardor qanday bo‘lishi

---

<sup>34</sup> О‘sha asar. – B.39.

<sup>35</sup> Раҳмонов Насимхон. Қадимий хикматлар. – Тошкент: Faafur Fулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. 1987. – Б.180

<sup>36</sup> Юсуф Хос Ҳожиб. Қутадғу билиг. . – Тошкент: Akademnashr, 2015. – Б.205

kerak?” degan muhim muammoni qo‘yar ekan, bunday sardor yurtni yashnatib, xalqini badavlat qiladigan bo‘lishi lozimligi haqida qat’iy xulosaga keladi:

*Shunday elga kimlar bo‘lur bek-sardor,  
To dovrug‘, davlati bo‘lolsin poydor?  
Yashnatib yurt, xalqin badavlat qilsa,  
Ezgu nom orttirsa, eli mo‘l bo‘lsa.*<sup>37</sup>

Tadqiqotimiz obyekti bo‘lgan Sirojiddin Sayyid ijodini o‘rganish jarayonida shoirning Yusuf xos Hojib g‘oyalaridan bahramand bo‘lgani, ilhomlangani, unga ijodiy ergashganini kuzatdik:

*Agar yaxshi bo‘lsa yurtda podshohlar,  
Boylaringiz bo‘lsa saxiy, botadbir,  
Ishlar bamaslahat bitsa, sizlarga  
Yer ostidan ko‘ra ustti afzaldir. (IV, 94)*

Faqat bu bilan kifoyalanib qolmagan. Quyidagi misralarda ham ustoz ijodkorga g‘oyaviy izdosh sifatida ergashgan, o‘zining tasavvuridagi fikrni bera olgan, ya’ni yurtga sardorlikning asosi mehrparvarlik va millatparvarlik ekanligini, bunday hukmdorga ega bo‘lgan yurt abadiy saodatga erishajagini ta’kidlagan:

*Nimadir aslida yurtga sarvarlik –  
Mehrparvarlikdir, millatparvarlik.  
Har zarra tuprog‘i zarlik, gavharlik,  
Bul vatan toabad saodatdadir. (IV, 359)*

Adabiyotdagagi ijodiy o‘zlashtirish muayyan hodisani takrorlash emas, balki yuksak san’atdir. Unda an’analar va tajribalarning rivojlanishi, boyitilishi, takomillashuvi ro‘y beradi. Mumtoz adabiyot bu jihatdan har bir ijodkor uchun bitmas-tuganmas xazinadir. Shuning uchun hozirgi adabiyotimiz namoyandalari Hazrat Alisher Navoiy ijodiga doim murojaat etishadi va undan o‘rganib, mumtoz adabiyot an’analarini o‘z ijodlarida davom ettirishga harakat qilishadi. Ijodiy jarayondagi bunday sa’y-harakatlar har bir ijodkorda o‘ziga xos yangi tajribalar orttirish, yangi-yangi g‘oyalarning tug‘ilishiga sabab bo‘ladi.

---

<sup>37</sup>O‘sha asar. – B.169.

Mumtoz adabiyotimizdagi umumbashariy mavzular Alisher Navoiy ijodida o‘ziga xos talqin etilgan. Jumladan, Vatan tasvirini yaratishda ham Navoiyning o‘z uslubi bor. Navoiy o‘zining turli tur va janrlarda yozgan asarlarida o‘zi tug‘ilib o‘sgan yurt timsolining mukammal poetik tasvirini yaratadi. U turkiy ulusning xalqparvar rahnamosi sifatida yurti uchun qayg‘urgan, uning obodligi va farovonligi uchun astoydil harakat qilgan edi. Bu jihatlar uning asarlarida ham yaqqol ko‘zga tashlanadi:

*Shahrlar otini mahallot etib,  
Bo ‘ldi chu yuz shahr Hiri ot etib.*

*Alloh-Alloh, ne Hiri, bu Hiri,  
Bir-biridin turfa aning har biri.<sup>38</sup>*

Adabiyotshunos olim Ibrohim Haqqulov Mir Alisher Navoiy ijodidagi Vatan mavzusining badiiy talqini xususida: “Alisher Navoiy jism-u joni bilan Vatanga bog‘langan ana shunday barkamol Yurak – buyuk san’atkor edi. Navoiygacha bo‘lgan ijodkorlarimiz u yoki bu shaklda Vatanni ulug‘lovchi asarlar yozganlar. Biroq ulardan hech biri Vatan va farzand orasidagi munosabatlarni Navoiy qadar yuksak ohanglarda tasvir etmaganlar” degan mulohazani aytadilar.<sup>39</sup> Darhaqiqat, Alisher Navoiy davriga kelib, badiiyatda juda katta o‘zgarishlar, poetik mazmunning kengayishi, shu bilan bir qatorda she’riy shakllarning mukammallahuvi jarayoni kuzatiladi.

Vatan obrazining badiiy talqinida Navoiy ijodi hamisha o‘rnak, namunadir. Ona yurt qadri, Vatandan yiroq bo‘lishning iztiroblari Navoiyning ko‘plab janrdagi she’rlarida o‘z aksini topgan. Uning “G‘aroyib us-sig‘ar” devoniga kiritilgan “O‘lsam yasamang munda mazorimni mening...” deb boshlanuvchi ruboysida Vatan muqaddasligiga urg‘u berilib, insonning ikki dunyoda ham Vatanga daxldorligi, inson har qanday vaziyatda ham ona yurtga talpinishi hissi juda ta’sirli ifodalangan:

*O‘lsam yasamang munda mazorimni mening,*

<sup>38</sup> Алишер Навоий. Хайрат ул-аббор. – Тошкент: Фафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 2020. – Б.342.

<sup>39</sup> Ҳаккулов И. Занжирбанд шеър қошида. Навоий сабоқлари. –Тошкент: Юлдузча, 1989. – Б. 214.

*Yuklab eliting, jismi figorimni mening.*

*O'tru chiqarib ahli diyorimni mening,*

*Ko 'yida qo 'yung tani nizorimni mening.*<sup>40</sup>

Vatanga sodiqlik, vatanparvarlik, buyuk muhabbat faqat lirk janrdagi asarlarida emas, balki shoirning yirik epik asari – “Xamsa” dostonlarida ham badiiy aks etgan. Shoir dostonlaridagi qahramonlarning millatsevarligi, vatanparvarligi, erk vaadolat uchun kurashi ularning komilligini belgilovchi asosiy mezon sanaladi. Farhodning Xusrav bilan munozarasida Besutun tog‘ini qazib, Arman o‘lkasiga suv keltirishdagi jasoratida ana shu vatanparvarlik o‘z ifodasini topgan.

Shoir “Saddi Iskandariy” dostonida ham Vatan mavzusini keng talqin etar ekan, har bir inson Vatan bilan hamnafas, bir tan-u jon bo‘lishga da’vat etadi:

*Vatan tarkini bir nafas aylama,*

*Yana ranj-u g ‘urbat havas aylama.*<sup>41</sup>

Dostonda Vatandan ayrilish cheksiz azob-uqubat, mehnat, mashaqqat chekish, g‘urbat ichida qolish ekanligini Navoiy qayta-qayta ta’kidlaydi:

*Angakim vasat mehri raxshon kelib,*

*Munga lek mulki Xuroson kelib.*

*Xuroson badandur, Hiriy jon anga,*

*Hiriy jon, badandur Xuroson anga.*<sup>42</sup>

Shoirning bu misralarida Vatanni e’zozlash, uning shon-shuhrati uchun kurashish hissi yaqqol ko‘zga tashlanadi. Ayniqsa, Xuroson poytaxti – Hirotni jon o‘rnida ko‘rganligini alohida qayd etib, bu maskanni o‘ta kuchli hissiyot bilan sevganligi, el-yurtini ardoqlab, e’zozlab hayot kechirganligini yozadi.

Bu o‘rinda alohida ta’kidlash joizki, Navoiy adabiy-badiiy merosida Vatan vasfi, Vatan obrazining badiiy talqini barcha ijodkorlar singari Sirojiddin Sayyid she’riyatiga ham tuganmas ilhom bag‘ishlab kelmoqda. Biz shoir ijodini kompleks

<sup>40</sup> Alisher Navoiy. “G‘aroyib us-sig‘ar”. To‘la asarlar to‘plami, Birinchi jild. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2013. – B. 737.

<sup>41</sup> Алишер Навоий. Хамса. Садди Искандарий. Тўла асарлар тўплами, Саккизинчи жилд. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2011. – Б. 432.

<sup>42</sup> O‘sha asar. – B. 219.

tarzda o‘rganar ekanmiz, eng avvalo, uning aksar she’rlarida mumtoz adabiyotda yetakchi bo‘lgan mavzularda ilgari surilgan fikrlar, g‘oyalar, estetik ideallar o‘ziga xos tarzda xarakterli detallar, pishiq, puxta, ishonarli badiiy obrazlar vositasida namoyon bo‘lganligini kuzatdik. Shunday she’rlardan birini misol keltirish mumkin:

...*Hamma narsani ko ‘rdilar-u,*  
*hamma narsani qurdilar-u, biroq*  
*El-u yurtning bunyodi binosida*  
*bir xas bo ‘lolmadilar.* (III, 35)

“Insonlarki...” deb boshlanadigan bu she’rda yurt qayg‘usi, Vatan obodligiga jonkuyarlik bo‘rtib turadi. “El-u yurtning bunyodi binosi” – bu Vatan. Ana shu Vatanning binosi eng go‘zal, eng mustahkam bo‘lishi lozim. Shoiring ideali juda yuksak. Hamma narsani qurban bilan, ular qanchalik baland, mahobatli bo‘lmashin, el-u yurt bunyod bo‘lgan bino – Vatan barqaror bo‘lmasa, qilingan ish bir xascha bo‘la olmaydi.

Vatan obodligi xalqning jipsligi, millatning ahilligi, or-nomusliligi, hukmdorning adolatparvarligi bilan belgilanishi Navoiy asarlarida badiiy yuksak tasvirlangan. “Vaqfiya” asarida Navoiyning ideal jamiyat, ideal hukmdor, ideal mamlakat haqidagi orzulari o‘z ifodasini topgan:

*To hirs-u havas xirmani barbod o ‘lmas:*  
*To nafs-u havo qasri barastod o ‘lmas.*  
*To zulm-u sitam jonig‘a bedod o ‘lmas,*  
*El shod o ‘lmas, mamlakat obod o ‘lmas.*<sup>43</sup>

Alisher Navoiyga izdoshlik qilgan, uning ijodidan bahramand bo‘lgan Sirojiddin Sayyidning “Bevafolik” she’ri g‘azal janrida yozilgan. Undagi falsafiy fikr, mantiqiy mushohadalar she’rxonni zimdan o‘ylantiradi. Negaki, shoir zamona nosozligi, haq va adolatning toptalishi, odamlardagi loqaydlik, beparvolik, Vatan, xalq, jamiyat oldidagi mas’uliyatsizligidan ranjiydi, ko‘ngli ozurdaligidan shikoyat

<sup>43</sup> Alisher Navoiy. “Vaqfiya”. To‘la asarlar to‘plami, To‘qqizinchi jild. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2013. – B. 645

qiladi. G‘azal boshdan oxir “vafo” so‘ziga yuklangan mantiqiy yukka qaratilgan. Vafo, sadoqat, mehr-oqibat, xalqparvarlik tuyg‘ulari Navoiyning juda ko‘p g‘azallarida bosh mavzu bo‘lgan. “*Mehr ko‘p ko‘rguzdim, ammo mehribone topmadim*” misrasida Navoiy hamdard, hamfikr topmaganligidan o‘ksinadi; “*Elga qilsa bir jafo, yuz qatla faryod aylaram*” deganida o‘zini xalq bilan, yurt bilan birga, hamnafas ekanligini ta’kidlaydi. Shu ma’noda Sirojiddin Sayyid she’riyatiga razm solsak, uning asarlarida Navoiyga izdoshlik, mana shu misralarga hamohanglik sezilib turadi. Quyidagi misralarda bor haqiqat vaadolat poymol bo‘lishidan qattiq va achchiq o‘kinch bor:

*Diyonatning uyi kuyib ketgay, agar  
Mullosining duosiga vafosi yo ‘q.  
Qay shoirkim, bobosiga ixlosi yo ‘q,  
Navoiyning navosiga vafosi yo ‘q.  
...Biz Vatanni ona deymiz, lekin nechun  
Farzandining onosiga vafosi yo ‘q?* (IV, 49)

Butun she’r davomida “vafo” so‘ziga urg‘u berilganini, ifodadagi do‘stning do‘stga, umr bo‘yi yiqqan mol-dunyoning insonga, sultonning sultonga, gadoning gadoga, hatto bandasining Xudosiga vafosizligi har bir imonli kishining dilini o‘rtab yuborganligini kuzatamiz.

Adabiyotshunos Nurboy Jabborov shoirning Navoiyga ixlosi va izdoshligi sabablarini ta’kidlab: “Sirojiddin Sayyid Navoiyni ko‘p o‘qiydi, “Xazoyin ul-ma’oni”ni xatm qilgan kunni eng katta bayram deb biladi. Muhimi, she’rlarida ulug‘ Navoiydan mumtoz she’riyatimizdan bahramandlik ta’siri sezilib turadi”,<sup>44</sup> – deb yozganida haq edilar.

Darhaqiqat, Sirojiddin Sayyid nafaqat “Xamsa”, “Xazoyinul-ma’oni”, qolaversa, buyuk mutafakkir Mir Alisher Navoiyning butun ijodini mukammal o‘rgangan, bu she’riyat ummonidan ma’nana oziqlangan va oziqlanmoqda. Bu esa Sirojiddin Sayyid she’riyatining falsafiy-ma’rifiy, ilmiy-badiiy ahamiyatini yana-

<sup>44</sup> Жабборов Н. Замон. Шеърият. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2015. – Б.158.

da yorqin namoyon etibgina qolmay, uning salaflarga izdoshlik an’anasini yangi darajaga ko’targanligidan dalolatdir.

Shu o‘rinda bir kuzatishni ta’kidlash joiz: Alisher Navoiy yaratgan buyuk “Xamsa”ni bugungi avlod tushunib yetishi uchun unga murojaat qilish va undagi ma’ni durlarini she’riy tarzda sharhlash tajribasi bo‘yicha adabiy jarayonda Omon Matjon dadil qadamlar tashladi. Uning “Ming bir yog‘du” deb nomlangan ma’rifiy dostoni “Xamsa” mohiyatini anglashda juda katta ahamiyatga ega ekanligini ilmiy jamoatchilik xayrixohlik bilan ma’qulladi. “Ayrim bir kishi “Xamsa”ni to‘laligicha ilg‘ab-uyqab olishi qiyin. Bu ko‘pchilik mehnatini, uyg‘un idrokni talab qiladigan ish! Har bir avlod bu borada o‘z faolligini ko‘rsatishi kerak”<sup>45</sup>, – deydi shoir dostonning muqaddimasida. Sirojiddin Sayyid ham bunday ijodiy tajribani davom ettirib, “Xamsa” hayratlari” (IV, 10-84) turkumini yaratdi. Shoирning ulug‘ daho, so‘z san’atkorining muazzam badiiy obidasi qoshida hayratga tushishi bejiz emas. Hayrat – aql bovar qilmaslik, mo‘jiza qoshida lol qolishdan tug‘ilgan holat. Adabiyotshunos Ibrohim Haqqul unga muxtasar ta’rif bergen: “Hayrat – kutilmagan g‘aroyibotlar, favqulodda tilsimli hodisalardan aqlning ajablanishi. Hayrat – inson ruhining hududsiz koinot asrorlaridan taajjublanishi. Hayrat – ko‘ngil tilsimi”.<sup>46</sup>

“Xamsa”ning bir misrasini sharhlash, birgina baytda ifodalangan ma’nomazmun mohiyatini anglata olish nihoyatda qiyin. Ana shunday zalvorli vazifani Sirojiddin Sayyid mahorat bilan amalgalashdi. “Hayrat ul-abrор” dostoni maqolatlarining ba’zi baytlariga yozilgan sharhlar, chindan ham, mantiqiyligi, izchilligi bilan Hazrat Navoiy qarashlariga hamohangdir. Baytlarni sharhlar ekan, shoir o‘z hayratini yashirmaydi: “Satrma-satr, baytma-bayt, ustma-ust hayrat, varaqma-varaq, dostonma-doston, kitobma-kitob – to‘la hayrat. ...Navoiy hayratlari tugamaydi. “Xamsa” hayratlari tugaнmasdir”. (IV, 14)

<sup>45</sup>Омон Матжон, Эркин ҳаволарда, битиклар, драматик достон, шеърий қисса, шеърлар, Тошкент: F.Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1997. – Б.4.

<sup>46</sup>Ҳаққулов Иброҳим, “Хамса” бадииятига доир, “Алишер Навоий “Хамса”си (тадқиқотлар)”, Тошкент: ФАН, 1986. – Б.122.

Hazrat Navoiy “Hayrat ul-abror”ning yigirmanchi maqolatida yurt tuzish va uni boshqarishdaadolatni asosiy mezon qilib ko‘rsatadi:

*Shohki ish adl ila bunyod etar,*

*Adl buzuq mulkni obod etar.*<sup>47</sup>

Alisher Navoiyning bu qarashlarini bugungi kunda izdoshlik ijodkor sifatida Sirojiddin Sayyid g‘oyaviy-badiiy jihatdan yana-da rivojlantiradi. Shu bir baytda ifodalangan fikrni sakkiz bandli she’rda bosqichma-bosqich ohib beradi:

*Davlat poydevori – adl-u diyonat,*

*Shudir mamlakatning ikki asosi.*

*...Kundan-kun yuksalib borgaydir davron,*

*Rizq-u nasibasi elning butundir.*

*Muhtasham qasrdir agarda zamon,*

*Adl va diyonat ikki ustundir. (IV, 25)*

Ijodkorning fikricha, davron kundan kun yuksalib borishi, elning rizq-u nasibasi butun bo‘lishi uchun adolat va diyonat mustahkam ustun bo‘lmog‘i lozim. Shu ikki jihat ustun bo‘lgan yurtda kuzatilajak jarayonlar birma-bir sanab o‘tiladi. Bunday yurtda “ko‘ngillar hamisha to‘q” bo‘lishi, mamlakatni “baloyu qazo chetlab o‘tishi”, buyuk kelajak sari qo‘yilgan ko‘priklar mustahkam bo‘lishi, uni “aziz avliyolar ruhi doimo omon saqlashi”, sof niyatli insonlar tufayli yurt yuksak va ozod bo‘lishi yuksak pafoslarda haqqoniy tasvirlanadi. She’rda “*Adl va diyonat ikki ustundir*”, “*Suvlar bulbullarday taratgay navo*”, “*Rubob torlariday yo‘llar solgan iz*”, “*Ko‘priklar – kelajak ko‘priklariday*”, “*Niyatlar bog‘larday gullagay qiyg‘os*” kabi quyuq tashbehtar qo‘llash orqali, birinchidan, Vatanning beqiyos tasviri yaratilsa, ikkinchidan, uning kelajagi haqida aniq faktlar keltiriladi.

Navoiy talqinicha, xalqqa nafi tegadigan kishi insonlarning eng yaxshisidir. Shoir “Hayrat ul-abror”ning o‘n uchinchi maqolatida bunga alohida urg‘u beradi:

*Naf’ing agar xalqqa beshak durur,*

*Bilki, bu naf’ o‘zungga ko‘prak durur.*<sup>48</sup>

<sup>47</sup> Alisher Navoiy. “Hayrat ul-abror”. To‘la asarlar to‘plami, Oltinchi jild. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2013. – B. 283.

Sirojiddin Sayyid esa Navoiy g‘oyalariga ergashib, o‘z tasavvuridagi xalqqa foyda keltiruvchi insonlarni shunday tasvirlaydi:

*Har kim ham bir kuni dunyodan ketar,  
Jismi alal oxir tuproq bo ‘lg ‘usi.  
Biror foydang tegsa xalqingga agar,  
Undan naf o ‘zingga ko ‘proq bo ‘lg ‘usi.* (IV, 51)

Elga foyda keltiruvchi insonlar, avvalo, o‘zlariga yaxshilik yetkazgan bo‘ladi, hech bir yaxshilik esa bu dunyoda izsiz ketmaydi. Hatto keragida suv uzra qo‘yilgan birgina xas ham kun kelib, ko‘prikka aylanib, o‘zi uchun manfaat keltirishi mumkinligini ijodkor alohida ta’kidlaydi. “Xamsa” hayratlari”da ilgari surilgan bu kabi milliy va umumbashariy g‘oyalar zamirida Vatanning mukammal poetik timsoli, ideal vatanparvar shaxs obrazini yaqqol ko‘rish mumkin. “Badiiy obrazning tashqi va ichki mohiyatini yaxlitlikda ifodalash yoki tasvirlashda sifatlash muhim ahamiyat kasb etadi. Ijodkor o‘zi ifodalamoqchi bo‘lgan g‘oyani obraz orqali ifodalar ekan, ana shu obrazning zohiriylarini oydinlashtiruvchi sifatlarga bevosita murojaat etadi”.<sup>49</sup> Ayni ijodiy mezonlar Sirojiddin Sayyid she’riyatida o‘z ifodasini to‘lig‘icha topgan, deyish mumkin.

Darhaqiqat, Sirojiddin Sayyidning mumtoz an'analar asosida yaratilgan, ko‘p yillik izlanishlari mahsuli bo‘lgan “Hayratlar” ijodkorning yetuk poetik mahoratidan dalolat beradi.

Islom-Sharq adabiyotida “Arba’in” yozish an' anasi mavjud. Bunda sahih hadislardan 40 tasi tanlab olinib, ular she’riy yo‘lda talqin etiladi. Fors-tojik adabiyotining ulkan vakili, Alisher Navoiyning piri-ustozi Abdurahmon Jomiy “Chihil hadis” yaratgan. Alisher Navoiy uni turkiychaga o‘girib, “Arba’in” (“Qirq hadis”) deb atagan. Sirojiddin Sayyid ham qirq hadisni saralab olib, arba’in (qirq hadisni she’riy yo‘lda sharplash) an' anasini davom ettirdi. Navoiy turkiy tilda nima uchun “Arba’in” yozishni niyat qilganligini shunday izohlaydi:

---

<sup>48</sup> Alisher Navoiy. “Hayrat ul-abrор”. To‘la asarlar to‘plami, Oltinchi jild. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2013. – B.205.

<sup>49</sup> Саримсоков Б. Бадиийлик асослари ва мезонлари. – Ташкент: “Фан” нашриёти, 2004. – Б.74.

*Forsiydonlar aylabon idrok,  
Oriy erdi bu naf'din atrok.  
Istardim, bu xalq ham bori  
Bo'l magaylar bu naf'din oriy.*<sup>50</sup>

Mazmuni: forsiyda so‘zlashuvchi ellar hadislar mazmunini o‘z tillarida she’riy uslubda yodlab o‘rganadi, atrok, ya’ni turkiy xalqlar bundan bebahralikdan or etmasliklarini istadim. Sirojiddin Sayyid esa qirq hadis sharhiga yozgan she’rlarini ramziy “Yaxshilik eskirmagay” deb nomlaydi va sababini quyidagicha izohlaydi:

*Dunyoda eng oliy So‘z o‘zingdirsan,  
O‘zing bir gap solding balki dilimga.  
Xudoyim bir eshik ochilmoqdadir,  
Xudoyim, yorug‘ qil so‘zni tilimga. (II, 86)*

Shu o‘rinda yana bir muhim jihatni ta’kidlash joiz: Sirojiddin Sayyid Navoiy sharhlagan hadislarni sharhlamaydi, balki o‘zi mustaqil hadislar tanlab, uni sharhlab beradi. U Alisher Navoiy maqsad qilganidek, o‘z xalqiga tushunarli bo‘lishi uchun hadislar sharhini hozirgi davr adabiyotida yetakchi bo‘lgan barmoq vaznida yozdi. Bu esa shoirning salaflari an’anasiga sodiq qolgani holda, zamonaviy o‘zbek she’riyatiga qo‘sghan muhim hissasidir. Sirojiddin Sayyid arba’in yozish an’anasini davom ettirdi, biroq ustozlaridan farqli ravishda hadislar sharhini turli she’riy shakllarda bergen. To‘rt, sakkiz, o‘n ikki, o‘n olti hamda yigirma misralik she’rlarda talqin etilgan sharhlarning har biriga mustaqil nom qo‘llaydi. “Mo‘tabar zotlar”, “Yaxshi yo‘l”, “Agar”, “Ogoh bo‘linglar”, “Nafs”, “Baxtsizlik”, “Nima yaxshi”, “Shukrona”, “Yaxshilik eskirmagay”, “Duo va yaxshilik” kabi o‘nlab hadislar sharhida Vatan dardi birlamchi masala, vatanparvarlik – insoniylikning asosiy mezoni sifatida talqin etiladi. Faqat muqaddimaviy va xulosaviy she’rlarga maxsus nom berilmaydi. Asar

---

<sup>50</sup> Alisher Navoiy. “Arba’in”. To‘la asarlar to‘plami, O‘ninchijiild. Toshkent: “G‘afur G‘ulom” nashriyoti, 2013. – B. 581.

muqaddimasidayoq shoir “O‘zing panohingga olgil mulkimni, O‘zing yuz o‘girma elim, yurtimdan”, – deya Vatan uchun qayg‘uradi.

Mumtoz adabiyotda Vatan mavzusi xususida so‘z yuritilganda, kishi ko‘z o‘ngida beixtiyor Zahiriddin Muhammad Bobur siymosi gavdalanadi. Uning Vatanga bo‘lgan muhabbatи juda yuksak edi. U qayerda yurmasin, xayoli, maqsadi Vatanga qaytish ilinji bo‘lgan. Adabiyotni, san’atni sevgan kishining qalbi pokiza bo‘lib, ona-Vatanni ham shunday go‘zal tuyg‘ular ila seva oladi. Bobur bu borada dilbar shaxs edi. U o‘z yurtidan uzoqdaligini ulkan fojea, “yuzi qarolig” deb biladi:

*Tole’ yo ‘qi jonioimga balolig‘ bo ‘ldi,  
Har ishniki ayladim xatolig‘ bo ‘ldi.  
O‘z yerni qo ‘yib Hind sori yuzlandim,  
Yo Rab, netayin, ne yuz qarolig‘ bo ‘ldi?!<sup>51</sup>*

Zahiriddin Muhammad Bobur ona-Vatandan “Hind sori yuzlanguncha” butun hayoti o‘zga yurtlarda kechdi, lekin shunday og‘ir damlarda ham, Vatan sog‘inchi, uni qo‘msash, har giyohini e’zozlash bilan bir qatorda unga intilib yashadi. Yillar o‘tgani sayin Vatan sog‘inchi ustun kela boshlaganligini kuzatamiz. Bobur quyidagi qit’asida yozadi:

*Muyassar o ‘lsa agar yor vasli g‘urbatta,  
Vatanni ne qila-yu o ‘z diyor ne kerak?  
Yubordi yor manga yodgor deb xatini,  
Menga habib kerak, yodgor ne kerak?<sup>52</sup>*

Ona-Vatan sog‘inchi va mehr-u muhabbatи yo‘lida Bobur ne-ne jafolarni ko‘rmadi. Ammo shoh va shoir hayotning bevafoligini barcha o‘rinda yengib o‘tishga intildi va Vatan mehri bilan yashadi.

Sirojiddin Sayyid ijodiy faoliyati davomida ko‘plab dostonlar yaratdi. Bu liro-epik asarlar janr xususiyatlarini o‘zida namoyon etishi, syujet va kompozitsiya tuzilishidagi o‘ziga xosliklar, dostonlarga asos qilib olingan mavzular jihatidan

<sup>51</sup> Бобур. Назм дурданалари. – Тошкент: Шарқ, 1996. – В. 115.

<sup>52</sup> O‘sha asar. – В. 122.

ancha rang-barang. Shunday badiiy yaratiqlardan biri uning “Asarlar”i 3-jiddidan o‘rin olgan “Yuz oh, Zahiriddin Muhammad Bobur” dostonidir.

Dostonning kompozitsion tuzilishi o‘ziga xos. Epik ijod namunalarida syujetning barcha bo‘laklari kompozitsion tugallikda joylashishi va asar konsepsiyasining yorqin ifoda etilishiga xizmat qilishi kerak. Liro-epik asarda bu tartib birmuncha erkin bo‘ladi. Ba’zi dostonlar lirk qahramonning o‘y-kechinmalari, voqelikni o‘ziga xos mushohada etish asosiga quriladi. Asarning yaxlit syujeti ana shu his-tuyg‘ularning badiiy-poetik ifodasiga bo‘ysunadi. Sirojiddin Sayyid dostoni voqeа tizimini Bobur ijodi olamiga sayohat, ham shoir, ham shoh sifatida tanilgan ulug‘ insonning hayotidagi eng muhim voqealarning asarlaridagi ifodasi, ularning mag‘zini chaqish va badiiy umumlashma xulosalar chiqarish tashkil etadi. Muqaddimada muallif o‘z ijodiy niyatini bayon eta turib, ustozlar tajribasidan ilhom olganligi, “mardlik va matonat, g‘urbat-u firoq, mehnat-u alamlarga to‘la umrning yuz lahza, yuz holatini” (III, 165) ifodalab berishga harakat qilganligini ta’kidlaydi. Bu ishi doston yo‘sindagi bir tajriba-urinish ekanligini aytadi.

“Yuz oh, Zahiriddin Muhammad Bobur” – ma’rifiy doston. “Boburnoma”ni mutolaa qilish asnosida muallif (lirk qahramon, ayni paytda u shoirning o‘zidir) shoh va shoir Boburning hayotida kechgan voqealar, asarlarining tug‘ilishiga turtki bergen holatlar, buyuk davlat arbobining iztiroblari, Vatan sog‘inchidan o‘rtanishi, o‘zi asos solgan ulug‘ mamlakatdaadolat o‘rnatish uchun chekkan zahmatlari, dilbar g‘azallari dunyoga kelgan chog‘da tuygan ilhom lazzatlari mushohada etiladi. Shuningdek, XVI asr o‘zbek nasrining noyob yodgorligi, jahon adabiyotida tarixiy-biografik, memuar janrning nodir namunasini o‘rganish, saboq olish, dillarga jo qilish bugungi avlodning vazifasi ekanligi uqtiriladi. Bayon etilgan fikrlarni isbotlash maqsadida “Boburnoma”dan parcha keltiriladi va u lirk yo‘sinda tahlil etiladi. Tahlillarda buyuk bobokalonimizning shaxsiga xos fazilatlar ulug‘lanadi, uning olim sifatidagi donoligi, sarkardaga xos jasorati, shoh maqomidagiadolatparvarligi, inson rutbasida esa soddadilligi, qalbi ishqqa, muhabbatga to‘laligi ochib beriladi. Bunda doston muallifi “Boburnoma”da

aytilgan fikrlarga o‘z munosabatini bildiradi, ulardan kelib chiqadigan xulosalarni umumlashtiradi.

“Yuz oh Zahiriddin Muhammad Bobur” dostonida keltirilgan quyidagi she’rda shoир Boburning Vatan hajrida bag‘ri pora bo‘lganligini ifodalaydi:

*Qarshining bag‘riqorasi,  
Yantog‘i ham xor-u xasi,  
Bormi jahonda men kabi  
Yor-u diyor ovvorasi? (III, 189)*

“Boburnoma”da o‘z ifodasini topgan tarixiy voqealar, tabiiy-geografik ma'lumotlar, tinimsiz safarlar, jang-u jadallar chog‘ida tug‘ilgan taassurotlar, shoh va shoирning hayoti va ijod yo‘lida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan ishonarli dalillar mazmun-mohiyatiga murojaat qilish, ularning asl mag‘zini chaqishga urinish dostonning bosh badiiy-estetik maqsadini ochib berishga xizmat qilgan. Sirojiddin Sayyid Boburning ruhiy holatini shunday tasvirlaydi:

*Yurtdan ketib mening qaro yuzum bo ‘ldi,  
Gurbat mening kecham ham kunduzim bo ‘ldi.  
Menga tuzding dard-u hasrat tuzumini,  
Yo Rab, aytgil, bu qandayin tuzum bo ‘ldi?  
...Jayhun bilan Sayxun emas diyorimdan  
Yig‘lab ketgan mening ikki ko ‘zim bo ‘ldi. (III, 285)*

“Boburnoma”ni o‘qish, tushunish, shoh va shoир siymosini kashf etish, butun umri tahlikalarga boy jang-jadallarda o‘tgan shaxsning kelajak avlodlarga g‘oyat boy adabiy, ilmiy meros qoldirganligini anglash, his etishga da’vat dostonning butun poetik qurilmasida o‘z badiiy ifodasini topgan. Asar so‘ngidagi bu misralar dostondan ko‘zda tutilgan g‘oyaviy maqsadni yana-da aniq ifodalaydi:

*Toki aylanarkan charxi gardunlar,  
Bordir mamlakatni tutgan ustunlar.  
Toki tilim so ‘ylar, ochiq ko ‘zim bor,  
Mening nasllarga aytar so ‘zim bor –  
O‘rnimdan bu zamon qo ‘pib ayturman,*

*Bobom qilichini o‘pib ayturman:  
Garchi olam doim adovatdadir,  
Kuchadolatdadir, adolatdadir! (III, 301)*

“Yuz oh, Zahiriddin Muhammad Bobur” dostoni Sirojiddin Sayyid she’riy asarlari orasida alohida o‘ringa ega. Unga badiiylik jilolari yana ham zeb berib turibdi. Ular bizga Boburni o‘qish, tushunish, anglash, his etish, saboq olish bugungi mustaqillik zamonida juda ham zarur, aziz va muqaddas vazifa ekanligini uqtiradi.

Mumtoz adabiyotimiz vakillari orasida yurtdagiadolatsizlik-u tengsizlikka qarshi o‘z ijodi bilan kurashgan vatanparvar shoir Turdi Farog‘iy, Vatan hajrida, uning sog‘inchida, g‘ariblikda hayot kechirgan ijodkor Zokirjon Xolmuhammad o‘g‘li Furqat kabi ko‘plab shoirlar ijodida ham Vatan mavzusi keng o‘rin olganligi bilan yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Sirojiddin Sayyid mumtoz ijodkorlar adabiy merosidan oziqlanib, Vatan mavzusini yangi tarixiy, adabiy shart-sharoitda muvaffaqiyatli davom ettirdi. Uning she’riyatidagi mumtoz an’analarning badiiy-poetik ifodasi zamonaviy ijodiy jarayondagi izlanishlarining o‘ziga xos mahsuli, samarasidir. Shoир ijodida poetik an’analarga vorisiylikni alohida ta’kidlash lozim. Bu hodisa zamirida esa mumtoz so‘z san’atiga nisbatan kuchli ehtirom barq urib turibdi.

Tahlillar jarayonida ko‘ringanidek, shoир ijodiy izlanishlarida aruziy ijod namunalaridan ta’sirlanish uning g‘azal, muxammas, fard kabi janrlardagi asarlarida yetakchilik qiladi. Shoир she’riyatining poetik jihatdan mukammallik kasb etishida mumtoz lirika an’analari muhim ahamiyat kasb etgan.

Ijodkorning Sharq adabiyoti tarixining oldingi bosqichlarida yaratilgan badiiy asarlarni o‘qib, ulardan ilhomlanishi va ijodi uchun ulardan namuna olishi so‘z san’atidagi an’anaviylikning davomiyligini ko‘rsatishi bilan ahamiyatlidir. Bu hodisa adabiyotning milliy qiyofasini saqlab qolishda va uning taraqqiy etishida zaruriy omillardan biri hisoblanadi.

Xullas, o‘tmishda yaratilgan ijod namunalarida Vatan obrazining badiiy talqini hozirgi o‘zbek she’riyatida qanday tarzda va usullarda poetik sintez

qilinayotganligi Sirojiddin Sayyid ijodi misolida aniq-ravshan ko‘rish mumkin. Bunday adabiy-badiiy uyg‘unlik zamonaviy so‘z san’atining eng muhim xususiyatlaridan biridir.

### **1.3-§. Vatan obrazi tasvirida jahon adabiyotining ta’siri va tarjimaning o‘rni**

Jahon adabiyoti xazinasidagi yetuk poetik asarlardagi insoniy tuyg‘ularning haqqoniy, falsafiy ifodasi kitobxon ruhiyatini teranlik sari olib borganligi bilan o‘lchanadi. Dunyo poeziyasida insonni butun murakkabligi bilan tasvirlashga alohida e’tibor berilgan. Bunday adabiy-badiiy harakatni Vatan erki va ozodligiga bag‘ishlangan she’riy ijod namunalarida yaqqol kuzatish mumkin.

So‘z san’ati chek-chegarani tan olmaydigan, xalq, insoniyat surati va siyratini o‘z badiiy olamida rangin tarzda aks ettiradigan, ayni paytda muayyan millatni jahonga tanitadigan o‘ziga xos ijodiy jarayondir. Garchi she’riyat olamida xilma-xil mavzular bo‘lsa-da, ular orasida Vatanga bag‘ishlangan she’rlar ustuvorligi bilan ajralib turganligi bu fikr isbotini jahon adabiyoti tarixidagi barcha davrlarda yaratilgan asarlarda kuzatamiz. Bu o‘rinda umumlashgan ayrim mulohazalar bilan cheklanamiz va tadqiqotimizning ushbu faslida Sirojiddin Sayyidning bu boradagi ijodiy izlanishlari haqida to‘xtalamiz.

Taxminan besh-olti ming yil muqaddam shumerliklar tomonidan yaratilgan epos, doston, qo‘schiqlarning bir qismi bizgacha saqlanib qolgan. Masalan, “Bilgamish” dostonida olam va odamni Tangri yaratganligi, muqaddas yurt tushunchasi, uni asrash kabi umumbashariy g‘oyalar qalamga olingan. Qiyosan qaralganda, dostonidagi bu kabi badiiy fikr va g‘oyalar dunyo xalqlarining ko‘pgina eposlariga samarali ijodiy ta’sirini ko‘rsatgan. Xusan, Homerning “Iliada”, “Odisseya”, hindlarning “Mahobhorat”, “Ramayana”, turkiylarning “Alpomish” kabi epik asarlaridagi qahramonlik va vatanparvarlik motivlari “Bilgamish” syujetiga borib taqalishi va undan oziqlanganligidan ilmiy jamoatchilik xabardor. Eposshunos J.Eshonqul “Bilgamish” va “Alpomish” dostonidagi ko‘pgina

motivlarning bir-biriga o‘xshab ketishini ta’kidlab, ularni o‘zaro qiyoslaydi va asosli dalillar keltiradi.<sup>53</sup>

Folklorshunoslikda bu tipdagи ilmiy mulohazalar anchagina. Xususan, “Odisseya” eposi bilan “Alpomish” dostoni syujetidagi o‘xshash motivlarning bir-birida takrorlanishi<sup>54</sup> yoki ayni holatlarning “Alpomish” dostoni bilan o‘g‘uzlarning “Dada Qo‘rqu” kitobida ham mavjudligi<sup>55</sup>, shuningdek, “Alpomish” dostonidagi ayrim elementlarning “Bamsi Bayroq” hikoyalarida, shuningdek, “Alp-Manash” eposida uchraganligi bilan bog‘liq ilmiy mulohazalar<sup>56</sup> shular jumlasidandir. “Alpomish” dostonidagi Barchin tomonidan berilgan to‘rtta shartning uchtasi koreys eposi “Jumo‘ng” dostonida ham mavjudligi va boshqa o‘xshash motivlarning takrorlanishi<sup>57</sup> ilmda isbotlangan. Bunday ilmiy qarashlarni boshqa xalqlar olimlari ham qayd etishgan.

Homerning “Iliada” va “Odisseya” dostonlarida Vatan va vatanparvar qahramonlar yuksak pafos bilan kuylanganligi, buyuk Yunon dramaturgi Safokl asarlarida Fiva, Afina, Rim shaharlari hayoti tasviri asnosida Vatan tushunchasi tarannum etilganligi, shuningdek, Gerodotning “Tarix”, “Skiflar” asarlarida ham xalqning vatanparvar qahramonlari bosh obraz qilib olinganligi qator ilmiy adabiyotlardagi tahlillarda<sup>58</sup> o‘z ifodasini topgan.

Dunyo adabiyotining yirik vakillardan biri Shota Rustavelining “Yo‘lbars terisini yopingan pahlavon” asarida uyg‘onish davri Yevropa so‘z san’atining

<sup>53</sup> Жаббор Эшонкул. Миф ва бадий тафаккур. Тошкент: “Фан”, 2019. – Б.8.

<sup>54</sup> Жирмунский В.М., Зарипов Х.Г. Узбекский народный героический эпос. – М: 1948. стр., Жирмунский В.М. “Алпомиш ҳақида эпик достон ва Гомернинг “Одессея”си// “Алпомиши” – ўзбек ҳалқ қаҳрамонлик эпоси. – Тошкент: Фан, 1999, 63-70-бетлар. Сувонқулов И., Жуманазаров У. “Алпомиши”нинг “Одиссея”га алоқаси борми?// Хорижий филология, Самарқанд, 2002, 48-53-бетлар.

<sup>55</sup> Selami Febakan “Alpamish” Destani ve Debe Korkut Kitabida Kahramanların Optaya ikisi// Mille Folklor, - Buxara, 2004, - Vil: 16. – Sayi! 61. – s.137. Мирзаев Т. Вопросы сравнительного изучения “Алпомиши” и “Алып Мынаш”// фольклорное наследие народов Сибири и Дальнего Востока. – Горно - Алтайск., 1986, - стр. 110-112.

<sup>56</sup> Celami Fetukar: Alpamis Destani be Bey Baypek hikayesi. Apasinta bir Karsilastirma// Muzzi Folklor, Ankara, 2001, yil: 13, sayi: 51, – S 51-64.

<sup>57</sup> ЎНГЁНГО. “Алпомиши” ва “Жумўнг” достонларининг қиёсий типологик таҳлили. Тошкент: Turon Zamin Ziyo, 2014. – Б. 218.

<sup>58</sup> Boynazarov F. Jahon adabiyoti. – Toshkent: “Musiqa” nashriyoti, 2006. – Б. 160.

atoqli vakillaridan Dante dostonchiligi va she’riyatida, Petrarka sonetlarida, Bokachcho novellalarida, Servantes romanchiligi va Shekspir dramaturgiyasida Vatan ozodligi, yurt taqdiri, millat qayg‘usi bilan bog‘liq motivlar o‘z badiiy ifodasini topgan. Undan so‘ng ma’rifatchilik davri adabiyotida ham insonlarni ma’rifatli qilish orqali Vatanni yuksaltirish, xalq hayatini yaxshilash masalalari ustuvorlik qilgan. Shuningdek, Daniel Defo, Jonatan Swift, Jan Jak Russo, Deni Didro, Volter, Gyote, Sheller kabi ma’rifatparvar ijodkorlar qaysi adabiy tur yoki janrda qalam tebratmasin, qaysi mavzuga murojaat qilmasin, barchasining asl mohiyatida Vatan tushunchasi va uning taqdiriga bog‘langan.

Turkiston o‘lkasida XIX asrning oxiri – XX asr boshlarida ijtimoiy kurash maydoniga chiqqan jadidlarning qahramonona faoliyatları natijasida millatning martabasi, qadr-qimmati, shon-sharafi uchun kurashish zarurligi masalasi ustuvorlik qildi. Jadid adabiyotining namoyandalaridan biri Siddiqiy Ajziy “*Mir’oti ibrat*” (“*Ibrat oynasi*”) asarida ilm-fan, davlat, til, qonunsiz hech bir millatning istiqboli yo‘q, bu to‘rt narsani qo‘lga kiritmagan millat halokatga mahkum, degan xulosaga keladi.<sup>59</sup> Ismoilbek G‘aspiralining “*Dorur-rohat musulmonlari*” romanidan ilhomlanib yozilgan bu asarda shoirning ilm-fan taraqqiyoti, millat, Vatan erishajak yutuqlar haqidagi orzu-umidlari aks etgan. Juhon adabiyotida hamisha eng yetakchi mavzulardan sanalgan millatparvarlik, ayniqsa, vatanparvarlik tuyg‘ularini baland pardalarda kuylash masalasi har bir davr shoir va yozuvchilarimizga yangi kuch-g‘ayrat, jo‘shqin ilhom bag‘ishlab kelganligi isbot talab etilmaydigan hodisadir.

Adabiy jarayonda adabiyotlarning bir-biriga ta’sirisiz rivojlanish bo‘lmaydi. Sivilizatsiyalar xilma-xil davrlarda turlicha bo‘lganligi sababli adabiyotlarning o‘zaro ta’sirlashuvi hodisasi uzoq davrlar davomida muayyan tajribalarga ega bo‘ldi. Arab, fors-tojik va turkiy adabiyotlarning o‘zaro bir-biriga ta’siri, bir adabiyot ilg‘or tajribalarining boshqa bir adabiyot vakillari tomonidan o‘rganilishi, o‘zlashtirilishi, ijodiy rivojlantirilishi dunyo estetik tafakkuri taraqqiyotining

<sup>59</sup>Қосимов Б. ва бошқалар. Миллий уйғониши даври ўзбек адабиёти. – Тошкент: Маънавият, 2004. – Б.43.

muhim xususiyati bo‘lib kelmoqda. Alisher Navoiy “Xamsa”ni yaratishda fors-tojik adabiyotida xamsachilik an’anasini boshlab bergen Nizomiy Ganjaviy va Xusrav Dehlaviy ijodidan ilhomlandi, ularning tajribalarini o‘rgandi. “Nasoyim ul-muhabbat” asari esa Abdurahmon Jomiyning “Nafahot ul-uns min hazarot il-quds” tazkirasingning tarjimasidir. Ammo Alisher Navoiy tarjimaga erkin yondashib, avliyolar va shayxlar sonini 618 tadan 770 taga yetkazgan. Bu uning Jomiy ijodiga hurmati baland bo‘lganligini, undan ijodiy mahorat sirlarini o‘rganganligini ko‘rsatadi. Yoki “Lison ut-tayr” dostonini Farididdin Attorning “Mantiq ut-tayr” asaridan ilhomlanib yaratadi. Garchi shoir uni tarjima deb atasa ham, tarjimaga erkin yondashib, turkiyda original asarga aylantirgan.

Qariyb besh asr davomida adabiy jarayondagi adabiyotlarning bir-biriga ijodiy ta’siri orqali rivojlanish hodisalari uzlucksiz davom etdi. Xususan, XX asrda adabiyotlarning o‘zaro ta’sirlashuvi jarayoni mutlaqo yangi bosqichga ko‘tarildi. Rus adabiyoti va u orqali Yevropa hamda dunyo adabiyoti tajribalari milliy adabiyotimizga kirib keldi. Natijada, ayni hol adabiyotimizda chuqur sifat o‘zgarishlariga, yangi janrlar va adabiy turlarga asos solinishiga sabab bo‘ldi.

Biz oldimizga qo‘yan muammoning yechimini topish uchun mustaqillik davri she’riyatiga nazar solsak, iste’dodli shoir Sirojiddin Sayyid ijodida ham qardosh xalqlar she’riyatidan ilhomlanish jarayoni mavjudligini kuzatamiz. Jumladan, Maxtumquli she’riyatidan ijodiy ta’sirlangan shoir “Karvon bo‘lsam” she’riga “*Karvon bo‘lsam makoningga qo‘nmasman*” misrasini epigraf sifatida tanlab, misra ruhiga hamohang tarzda she’r uslubini, g‘oyaviy yo‘nalishini davom ettiradi:

*Nomard, bo‘stoningga chaman qilmasman,*

*Ungan gullaringni tikan qilmasman.*

*Ko‘rk ochib, kundan kun sochsang chiroylar,*

*Mulkingni Bag‘dod-u Yaman qilmasman.* (II, 161)

Ko‘ramizki, lirik qahramon o‘z yurtining tikanini o‘zga yurt bo‘stonidagi gullardan ustun qo‘yadi. She’rda Maxtumquli uslubiga xos hayotsevarlik, vatanparvarlik g‘oyalari ufurib turibdi.

Rus shoiri Sergey Yeseninning “Singlimga xat” she’rida ona qishlog‘i timsolida Vatanga bo’lgan o‘tli muhabbatini ifodalagan. Xuddi shunday xususiyat Sirojiddin Sayyidning “Sog‘inch” she’rida ham o‘z ifodasini topgan. Fikrimizni dalillash maqsadida ayrim o‘rnlarni qiyoslaymiz.

S.Yeseninda:

*Salom senga, singlim,*

*Salom, assalom.*

*Qadrdon dalalar salomat bormi?*

*Ayt, qalay parvarish qilmoqda bobom*

*Ryazandagi bizning oluchazorni.<sup>60</sup>*

Sirojiddin Sayyidda:

*Xatlar yozdim: “Bormisan, singil,*

*Daraxtlarim mening omonmi?*

*Men omonman, tanimoqdaman,*

*Gohi baland, goh past insonni”. (I, 18)*

Garchi o‘zbek shoirining mazkur she’rida badiiy usulni qo‘llashda rus ijodkoridan ta’sirlanish sezilsa-da, uning tuyg‘ulari ifoda tarzi milliy mentalitetimizning mohiyati va o‘ziga xosligini ko‘rsatib turadi.

Tarjima san’ati adabiyotlar o‘rtasida adabiy aloqalar, o‘zaro tajriba almashish jarayonida muhim o‘rin tutadi. Tarjima orqali muayyan bir xalq adabiyotining eng yaxshi namunalaridan boshqa bir xalq bahramand bo‘ladi, bir xalq milliy an’analari, qadriyatları va adabiy asarlar orqali boshqa bir xalqning ham madaniy mulkiga aylanadi. Tarjima san’ati Sharq xalqlari adabiyotida uzoq tarixiy taraqqiyot bosqichlariga ega. Turli davrlarda hindlarning “Kalila va Dimna”, arablarning “Ming bir kecha” ertaklari, Kaykovusning “Qobusnoma” asari o‘zbek tiliga o‘girilganligidan Alisher Navoiy “Lison ut-tayr” dostoni Farididdin Attorning “Mantiq ut-tayr” asari ta’sirida yaratilganligidan, ayniqsa, XIX asrda yashab ijod etgan taniqli shoir Muhammadrizo Ogahiy tarjima sohasida

<sup>60</sup> Сергей Есенин. Форс тароналари. Э.Вохидов таржимаси. – Тошкент: “Янги аср авлоди”, 2007. – Б.31.

ulkan ishlarni amalga oshirganidan ilmiy jamoatchilik xabardor. Hozirgi paytda ham tarjimachilik san’ati muhim soha sifatida milliy adabiyotimiz taraqqiyotida katta salmoqqa ega bo‘lib turibdi. Aslida, mustaqillikkacha bo‘lgan davrda, asosan, rus tilidan tarjima qilish keng ko‘lamga ega bo‘lgan. Ingliz, fransuz, nemis va boshqa Yevropa mamlakatlari xalqlari adabiyoti namunalari ham rus tilidan tarjima qilingan.

Bugungi kunda ingliz, nemis, fransuz, yapon, koreys, xitoy va boshqa tillarda yaratilgan asarlar asliyat xilidan to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘zbek tiliga tarjima etilayotganligi ilmiy jamoatchilikka ma’lum. “Boshqa adabiyotlardan qilinadigan badiiy tarjimalarsiz milliy adabiyotning rivojlanishini tasavvurga ham keltirib bo‘lmaydi. “Faust”ni, Yeseninni tarjima qilib Erkin Vohidov qanday serqirra shoirga aylangan, “Do‘zax”ni tarjima qilib Abdulla Oripovda qanday mazmundorlik va shakl izlanishlari tug‘ilgan bo‘lsa, milliy adabiyot ham jonli organizm sifatida eng yaxshi asarlarning tarjimasi orqali boyib, o‘zgarib, o‘zini badiiy jihatdan isloh qilib boradi”.

Tadqiqotimiz obyekti Sirojiddin Sayyid asarlarini o‘rganar ekanmiz, uning ustozlar izidan borib, o‘z ijodiy mahoratini oshirish maqsadida jahon adabiyoti vakillarining asarlarini o‘qish, ijodini o‘rganish barobarida ularni tarjima qilib, o‘zbek kitobxonlariga ma’naviy mulk sifatida hadya qilganligini, qilingan tarjimalar uning she’riyatini poetik mukammallik darajasiga ko‘tara olganligini kuzatdik. Ijodkorning bir qator tarjima asarlari buyuk iste’dodlarning an’analariga izdoshlikni ham mazmunda, ham shaklda ifodalay olganligiga guvoh bo‘ldik. Fikrimizni dalillash maqsadida ayrim mulohazalarimizni berishni lozim topdik.

Shoir asarlarining IV jildidagi “Ko‘ngil safari” sarlavhasi ostida shoirning jahon adabiyotidan qilingan tarjimalari berilgan. Xususan, Abu Homid G‘azzoliy, Abu Abdullo Ro‘dakiy, Mavlono Jaloliddin Rumiy, Hofiz Sheraziy, Abdurahmon Jomiy, Aleksandr Pushkin, Loyiq Sherali, Andrey Voznesenskiy, O‘ljas Sulaymonov, Aleksandr Faynberg, Bulat Okudjava, Ernest Xeminguey asarlari shular jumlasidandir.

Mavlono Jaloliddin Rumiy hazratlaridan qilingan tarjimalar chuqur falsafiy mushohadalarga to‘yingan. Rumiy talqinicha, Vatan – kishi tug‘ilib o‘sgan maskan, uni voyaga yetkazgan tuproq, Olloh nasib aylagan makon. Hayotsevarlik, Vatanga muhabbat Rumiy ijodida baland pardalarda kuylangan. Yorga murojaat, uning vaslini sog‘inch bilan kutgan oshiqning fidoyiligi, ishq yo‘lida jonbozligi, Ollohning buyukligi, yagonaligi, tengsizligi butun ijodining bosh g‘oyasini tashkil etadi. Ijodkorning har bir g‘azalida yor obrazi mavjud. U hamisha vasliga chorlab turuvchi Ollohdir.

Ishq shunday timsolki, unda Vatan mujassam. Shuning uchun Vatanni sevmak iymondandir, deyiladi. Zero, iymonli kishi qalbida Vatan bor. Ollohni tanigan, bilgan kishi Vatanning ham qadriga yeta oladi. Toza iymon istagan lirk qahramon ma’shuqaga shunday murojaat qiladi:

*O‘zing jonsan, o‘zing jonon, o‘zing husn ahliga sulton,*

*Seni derman, seni jonim, uying qayda, uying qayda?* (IV, 215)

Bayt ilohiy ishqning go‘zal ta’rifi bo‘lib, unda oshiq ma’shuqa vasliga intilar ekan, uning qayerda, qay go‘sada yashashi bilan qiziqadi. “*O‘zing jon birla jononim*” deyish bilan uning o‘zini butunlay shu ishqqa bag‘ishlaganligini anglaymiz. Sharq falsafasida Vatanni tanimoq, his etmoq Ollohni tanish va unga intilish, u bilan bir tan, bir jon bo‘lib ketish bilan tavsiflanadi. Sirojiddin Sayyid bilan qilgan suhbatlarimizda shoirning o‘zi Rumiy ijodiga bo‘lgan qiziqishi o‘zgacha ekanligini ta’kidlar ekan, Rumiydagি falsafiylik, mushohadakorlik, irfoniy mohiyat o‘ziga jalb qilganini, shoir uchun ilhom manbayi bo‘lganini alohida e’tirof etgan edilar.

Hofiz Sheroziy ijodida ham Vatan tasvirining o‘ziga xos va boshqalarda takrorlanmaydigan talqinlari mavjud. Buni Sirojiddin Sayyid tomonidan qilingan tarjimalarda ham yaqqol kuzatamiz:

*Bu manzillarda tuproq bo‘ldi Hofiz,*

*Bu tuproqlar – mening ob-u gilimdan.* (IV, 230)

Haqiqatan ham tug‘ilgan yer, qadrdon tuproq – Vatan timsoli. Keltirilgan baytdagi ob-u gil atamalari – suv va tuproq ma’nolarini anglatadi. Shunga ko‘ra

shoirning “bu manzillarda tuproq bo‘ldi Hofiz” deyishi o‘quvchi ko‘z o‘ngida Vatan obrazini jonlantirishga xizmat qilgan. Yana bir g‘azalida “ostona” so‘zi Vatan tushunchasini anglatadi. Binobarin, “Vatan – ostonadan boshlanadi”, degan hadis namunasi qadimdan jahon badiiyatida o‘z ifodasini topgan. Hofiz g‘azalining lirik qahramoni ham ostona deganda Vatan tushunchasini nazarda tutadi:

*Ushbu g‘urbatxonadan ketsam aziz ostonaga,  
Ahd qildim yo‘l aro kirgum yana mayxonaga.*

*Bu safardan sog‘-omon qaytsam vatanga men agar,  
Qayga borsam do‘st bo‘lurman oqil-u farzonaga. (IV, 323)*

Ushbu baytlarda lirik qahramonning ruhiy holati o‘ziga xos ishoralar, ramziy belgilar, tipik-oshiq obrazlar orqali ifoda etilganki, kishi ko‘z oldida bir butun lirik manzara bor go‘zalligi bilan namoyon bo‘lib, qalbda hayrat uyg‘otadi. Oshiq o‘z Vataniga qaytgach, eng avvalo, nodonlar suhbatidan voz kechib, oqil-u farzonalar bilan hamsuhbatda bo‘lishga ahd qiladi. Natija aniq: Vatanga qaytish – oqillar, donishlar bilan do‘st tutunish imkoniyatini yaratadi.

Yana bir g‘azalida “*Firdavsi rizvonim mening*” – mening jannat bog‘im, “*do‘st ko‘yining tuprog‘i*” – do‘st yashagan tuproqda deb bilganini, ikkinchi misrada bu o‘xhatish teskari holatda qaytarilib, ajoyib so‘z o‘yini qilinganligini va har ikkala holatda ham Vatanning muqaddasligi, uning jannatga qiyoslanishini kuzatamiz:

*Firdavsi rizvonim mening do‘st ko‘yining tuprog‘idir,  
Do‘st ko‘yining tuprog‘idir firdavsi rizvonim mening. (IV, 233)*

Rus adabiyotining yirik vakili Pushkin asarlarini milliy tilimizga o‘girganligi mutarjim uchun haqiqiy sinov maktabi vazifasini bajara olgan. Sirojiddin Sayyid ana shu maktabdan muayyan darajada saboq olib, tarjima san’atining asosiy sir-asrorlarini o‘zlashtirgan iste’dodli qalam sohibidir. Pushkinni o‘zbek tilida so‘ylatish oson emas. XX asr o‘zbek she’riyati sahifalariga nazar solinsa, o‘z vaqtida Oybek, Mirtemir kabi bir qator shoirlar Pushkin ijodidan go‘zal tarjimalar qilishganligini ularning o‘girmalari atoqli shoir ijodiga xos asosiy badiiy poetik xususiyatlarni to‘la saqlab qolganligi bilan e’tiborga molikligini qayd etish joiz.

So‘nggi yillarda “Yevgeniy Onegin” she’riy romanini iste’dodli shoir Mirza Kenjabeck Oybek tarjimasidan keyin ellik yil o‘tib, qayta tarjima qildi. Bu ish shoirga katta ijodiy saboq bo‘ldi va har jihatdan ijodiy barkamol bo‘lishiga yordam berdi. Bunday ijodiy an’ana Sirojiddin Sayyid ijodida ham bardavom bo‘ldi: Pushkindan bir qancha she’rlarni saralab o‘zbek tiliga o‘girdi. Bu tarjimalarda ikki ijodkor ruhiyatidagi uyg‘unlikni ko‘ramiz:

*Bizni azal-azal aylagan sehr,  
Yurak oziqlangay shulardan faqat:  
Momo o‘choqlarga nisbatan mehr,  
Bobo mozorlarga bo‘lgan muhabbat.  
Inson – shu muqaddas tuyg‘ularga tan,  
Ularsiz zamin ham bo‘shab qolardi.  
Ularsiz beqadr bo‘lardi Vatan,  
Xudosiz mehrobga o‘xshab qolardi.* (IV, 240)

She’rdagi lirik qahramon Pushkinning dard-u hasratlarini bayon qilgan bo‘lsa-da, tarjimada tarjimon qalbiga hamohang iztiroblar ham o‘z ifodasini topgan, shoir dunyoqarashidagi o‘ziga xosliklarni o‘z poetik tafakkuri bilan uyg‘un holda o‘zbekchallashtira olgan. Ayni hol uning poetik mahoratining yuksak darajadaligini ko‘rsatadi.

Endi Sirojiddin Sayyidning “Hikmat” she’riga nazar tashlaylik:

*Hikmat na dasht-u qir, na bog‘-u bo‘ston  
Va na malikaning chorbog‘idadur.  
Na qasr-u ayvonlar, na roh-u manzil  
Va na yigitlikning qirg‘og‘idadur.  
Na shon-u martaba, na mol-u dunyo  
Va na chinorlarning yaprog‘idadur.  
Hikmat – bu dunyodan o‘ksinib o‘tgan  
Otang mozorining tuprog‘idadur.* (II, 448)

Tarjima har bir ijodkor uchun ibrat va adabiy-badiiy ta’sirlanish manbasidir. Shoir jahon adabiyotiga mansub biror bir ijodkorning asarlarini o‘z tiliga o‘girar

ekan, undagi badiiyat sirlari, matn strukturasidagi o‘ziga xosliklarni ijodiy o‘zlashtirib boradi. Buning natijasida uning ijodi yana-da takomillashadi, yangidan yangi poetik xususiyatlar kasb etadi. Bu qonuniyatni Sirojiddin Sayyid ijodi misolida ham aniq, ravshan kuzatamiz. Yuqorida keltirilgan misralarda Aleksandr Pushkin, Sergey Yesenin singari atoqli rus shoirlari ijodida o‘z ifodasini topgan Vatan obrazi bir jihatdan adabiy badiiy ta’sirni ko‘rsatsa, ikkinchi tomondan esa shoirning milliy dunyoqarashi va o‘zligini ifodalab turadi. Pushkining she’riy romanida “*Bobo mozorlarga bo‘lgan muhabbat*” kuylangan bo‘lsa, Sirojiddin Sayyid she’rida “*Hikmat – ota mozorining tuprog‘ida*” ekanligi ifodalangan. Ko‘rinadiki, ikki shoirning Vatan haqidagi mushohadalarida mushtaraklik mavjud. Ammo bu uyg‘unlik ikki shoir badiiy yaratmalaridagi o‘zgachaliklarni ham inkor etmaydi.

Iste’dodli shoir qo‘shni xalqlar she’riyatidan ham tarjimalar qildi. Xususan, tojik adabiyoti vakili Loyiq Sherali asarlaridan qilingan tarjimalarda esa ko‘ngil mulkiga yaqin poetik ifoda zalvorini kuzatamiz. Nasriy va nazmiy tarjimalar kitobxonni o‘zligini, she’riyatning sirli oniy lahzalarini anglashga undaydi: “Shoirlar moddiy makonda emas, balki umumbashariy dard-u iztirob mamlakatida yashaydilar. So‘z – xalqning tovushda moddiylashgan, munavvarlashgan ruhoniyat hayotidir, O‘layotgan avlodlar o‘zlari bilan so‘zning qurigan novdalari, daraxtlarini olib ketadilar. So‘zning biologiyaviy o‘suvchan xususiyati bor... So‘z bilan asar yaratish – pitirlab, potirlab yotgan tirik qushlardan, qushlar galasidan devor tiklash bilan barobardir”(IV, 261). Haqli ta’kidlanganidek, inson tafakkuridagi o‘zgarishlar, uning botiniy olamidagi ziddiyatlar so‘z imkoniyati bilan moddiylashib yuzaga chiqadi. Global dunyo kayfiyatida aks etgan munosabatlar tig‘izligi adabiy manzaralar mohiyatini tubdan yangilanish imkoniyatini kengaytirish bilan bir qatorda so‘zning qudratini ham namoyon etadi.

Tojik shoiri Loyiq Sherali ruboiylarida Xayyomona falsafiy ruh seziladi. Ularda hayot, tiriklik, umr mazmuni haqida mushohada yuritilgan. Tarjimonning mahorati shundaki, ularni o‘zbek kitobxoniga aslidagi kabi shirador qilib yetkazishga harakat qilgan. E’tibor qilamiz:

*Falak gardishidan oh-fig ‘on yutdik,  
Ishq ichra ko ‘p g‘am-u ko ‘p armon yutdik.  
Onalar ko ‘ksidan oq sut emdig-u,  
Tarix siynasidan barcha qon yutdik.* (IV, 246)

Mazkur misralarda insoniyat o‘z tarixi davomida boshdan kechirgan musibatlar, azob-uqubatlar o‘z badiiy ifodasini topganligini to‘rt misrada aks etgan teran falsafiy mushohada ruboiy janri talablariga muvofiq holda muxtasar, shu bilan birga mantiqiy halqalar shodasini yuzaga keltirganligini kuzatamiz.

Umrning azizligi, uning har bir lahzasi bebaholigi quyidagi ruboiyda ham teran badiiy ifodalangan:

*Kelib-ketguvchimiz jahon bazmida,  
Qaytadan bundayin davlat yetmagay.  
Uning soqiysidan ikkinchi bora  
Bizga sog ‘ar yetmas, navbat yetmagay.* (IV, 246)

Bu misralarda har bir inson uchun umrning g‘animatligi, hayotning o‘tkinchiligi ifodalanib, uning har bir onidan to‘g‘ri foydalanish, oltindan qimmat hayot fasllarini behudaga o‘tkazmasligi lozimligi o‘z aksini topgan.

Sirojiddin Sayyidning ijodida mashhur rus shoiri Andrey Voznesenskiydan qilgan tarjimalari ham katta salmoqqa ega. Sababi shundaki, shoir o‘tgan asrning ikkinchi yarmida faol ijod qilgan mazkur ijodkor asarlaridan kuchli ta’sirlangan. Sirojiddin Sayyid universitetda 1-kursdaligida ilk bor uning ijodi bilan tanishadi, tanishadi-yu shoir hayotida “*barcha azoblar, tushkunlikka tushishlar-u kechalari chinqirib chiqishlar shundan keyin boshlanadi*”. (I, 449) Oradan o‘n uch yil o‘tib Sirojiddin Sayyid Aleksandr Voznesenskiyga qo‘ng‘iroq qiladi va Moskvaga borib u bilan muloqotda bo‘ladi. Shoir o‘n uch yil intizor kutgan bu uchrashuvni “Asil dunyo bo‘lgan “Aksildunyolar” maqolasida zo‘r hayajon va hayrat bilan eslaydi: “*Barcha hayratingizga qarama-qarshi o‘laroq Voznesenskiy ham sizni hayrat bilan kutib oladi. Ya’ni “Toshkentdan turib mening oromimni buzishga jur’at etgan, she’rlarimni o‘zicha tarjima qilib yurgan bu shoir yigit kim bo‘ldi ekan?”*

*deganday. Sizning tashrifingiz esa shunchaki tashrif emasdi, o'n uch yillik jur'atingiz edi bu".* (I, 451)

Sirojiddin Sayyid “Asarlar”ining IV jildidan Andrey Voznesenskiyning “Tovush soyasi” asari, esselari, she’rlari hamda “Mangu rizq” dostonining tarjimasi o‘rin olgan. “Tovush soyasi” asarida rus shoirining adabiyot, she’riyat, shoirlar, musavvirlar, hayot, tiriklik mazmuni va mangulik haqidagi falsafiy mushohadalari, hayotiy saboqlari to‘g‘risidagi xulosalari jamlangan. Sirojiddin Sayyid “Tovush soyasi”da tasvirlangan rus shoirlari Yesenin, Shukshinlarning o‘z diyoriga cheksiz muhabbatini, xalq vijdoni ekanligini yoza turib, o‘zining ham Vatan haqidagi qarashlari umumbashariy ahamiyat kasb etgan bo‘lsa ajab emas.

Sirojiddin Sayyid Voznesenskiyning “Mangu rizq” dostonini ham mahorat bilan o‘zbek tiliga o‘giradi. Voznesenskiyning o‘zi ushbu dostoni haqida shunday degan edi: “Ushbu kitobga (1990-yilda o‘zbek tilida Toshkentda nashr etilgan “Mangu rizq” kitobi ko‘zda tutilgan – ta’kid bizniki) jamlangan she’rlar, dostonlar-u nasriy bitiklar men uchun eng qadrli asarlardir. Ular hozirgi kunda “qayta qurish” deb atalayotgan poklanish jarayonining g‘oyalari ila sug‘orilgan va ma’naviyatga yo‘naltirilgandir. Baykal ko‘li haqidagi she’r o‘zbek kitobxoni qalbida aks-sado beradi, degan umiddaman. Chunki ayni paytda Orol dardi mening bag‘rimni ham o‘rtaydi”. (IV, 252) Ushbu fikrlar orqali Voznesenskiyning, nafaqat, o‘z Vataniga muhabbati, balki o‘zbek xalqiga cheksiz mehri va darddoshligini his qilamiz.

Andrey Voznesenskiy O‘zbekistonni sevgan, o‘zbekistonlik juda ko‘p do‘stlari bo‘lgan va ular bilan faxrlangan. Sirojiddin Sayyid bu haqda o‘zining “Ikki asr – bir hayot” esesida samimiyat bilan yozadi. 1966-yilning aprelida Toshkentda mudhish zilzila yuz berdi. Shunda shoir hech bir topshiriqsiz, buyruqsiz, qalbining amri va xohish-irodasi bilan birinchi reys bilan Toshkentga uchib keladi. O‘n kunlab zilziladan jabr ko‘rganlar yonida yuradi, ularga dalda bo‘ladi. Shu kunlarda “Toshkentdan reportaj doston” asarini yaratadi va u o‘scha paytdagi peshqadam nashr “Комсомольская правда”da “Toshkentga yordam bering!” chaqiriq-shior ostida berilgan va katta shov-shuvlarga sabab bo‘lgan edi. Aleksandr Faynberg Sirojiddin Sayyid she’rlarini tarjima qilib, 2006-yilda “Труд”

gazetasida e’lon qiladi. Shu she’rlarga A.Voznesenskiy kirish so‘zi yozgan. Ana shu kirish so‘zida shoir o‘zining Toshkentga, umuman, o‘zbek xalqiga mehrini go‘zal tarzda ifodalagan: “*Toshkent–shunchaki oddiy bir shahar emas. Men uchun behad tabarruk va tasavvur qilib bo‘lmas darajada qadrli va aziz bo‘lib qolgan bu shaharni hech qanday kuch, hech qandayin dunyoviy o‘zgarishlar mening yuragimdan sug‘urib tashlolmaydi. Shuning uchun qismatimning bir bo‘lagiga aylanib qolgan bu shahardan bo‘ladigan har bir telefon qo‘ng‘irog‘i olam-olam quvonch baxsh etadi. Toshkent shoirlari Vaqtning qaltis sinovlaridan o‘tgan shoirlardir. Bizga o‘zimizni, o‘zligimizni topishda yordam bergan Toshkentga ta’zim va tashakkurlarim bo‘lsin!*” (IV, 423) Ko‘rinadiki, Vatan tushunchasi va vatanparvarlik mavzusi Aleksandr Voznesenskiy uchun keng qamrovga ega bo‘lib, umumbashariy ahamiyat kasb etadi.

Vatan – Vatanning poetik obrazi har bir xalq adabiyotida yetakchi mavzu, eskirmas obraz sanaladi. Vatanga muhabbat tuyg‘usini Andrey Voznesenskiyning har bir she’rida ko‘rish va his etish mumkin. Sirojiddin Sayyid ijodidagi Vatanga bag‘ishlangan she’rlar unga eshdir.

Andrey Voznesenskiyning “So‘z hajrida” nomli she’rini Sirojiddin Sayyid erkin tarjima qilgan. Tarjimada so‘zga muhabbat orqali ona tiliga, ona Vatanga, ona yurtga sadoqat, fidoyilik ifodalangan. Voznesenskiydan ilhomlangan shoir “So‘z hijroni ” dostonini yaratdi.

*So‘z yo‘q.*

*Muzxonalar singari*

*Muzlab turar til qo‘rg‘onlari.*

*So‘z yo‘q*

*Muzlab turar – kezaman*

*“Devon ul-lug‘otit turk” o‘rmonlari!* (I, 265)

“Izoh“ she’rida so‘z oldidagi mas’uliyatni o‘ziga xos ifodalaydi:

*Mendan so‘z so‘raydi har kecha so‘zlar–*

*Aytilgan so‘zlar.*

*Suv so‘ragan kabi suvsiz ariqlar,*

Vatanga muhabbat, ona tiliga, so‘zga e’tiqod, undan o‘z o‘rnida va ehtiyyotkorlik bilan foydalanish, lisoniy birliklardagi ilohiy quvvatni teran anglash Aleksandr Voznesenskiy va Sirojiddin Sayyid ijodlaridagi mushtarak xususiyat bo‘lib hisoblanadi. Sirojiddin Sayyid rus shoiri Aleksandr Voznesenskiy ijodiga doimiy qiziqqan, har doim ilhomlangan, uning ijodidan kuchli ta’sirlangan.

Adabiyotshunos N.Rahimjonov shunday yozadi: “Iste’dodlarning san’atkorligi – bu bashariy qadriyatga, umumbashariy madaniyatga daxldor ilohiy hodisa. U qo‘l bilan ushlanadigan, ko‘z bilan ko‘riladigan oybolta-yu belkurak emas. U shuurimizga tafakkur yog‘dularini olib kiruvchi, tuyg‘ularimizni tarbiyalovchi, ko‘ngil ma’rifati, ma’naviyat hikmati”.<sup>61</sup> Qayd qilingan bu tushunchalarga asoslanib, Sirojiddin Sayyid she’riyati ma’naviyatimizni, tafakkurimizni yuksalishida o‘ziga xos o‘ringa ega ekanligini ta’kidlash zarur Ulkan tarixga ega xalq rishtalarida ota-bobolarimizdan meros qolgan or-nomus, mehr-shafqat tuyg‘ulari hayotimizga ranginlik ato qilib kelmoqda.

Sirojiddin Sayyid she’riyatiga tarjimalarining ta’siri masalasidagi mulohazalarimizni yakunlar ekanmiz, adabiy-badiiy an’analar vorisiyligi sifatida shoir ijodidagi falsafiy-intellektual va estetik qiymatni alohida qayd qilish lozim. Vatan mavzusining badiiy-poetik talqinlari ijodkor mahoratini teranlashtirganligiga sabab bo‘lganligini uning tarjimalari misolida kuzatdik. “San’atning mohiyati va mavjudligi haqida bir-biridan jiddiy farqlanuvchi qarashlarga asoslangan va ayni chog‘da, qator mushtarak jihatlarga ega turfa oqim va maktablarni birlashtirgan falsafiy-estetik hodisa bo‘lib, u XX asr adabiyoti va san’atida chuqur iz qoldirdi”.<sup>62</sup> Iqtibosda keltirilgan fikr va tushunchalar zamiridagi ikki jihat e’tiborga molikdir. Birinchidan, borliq mohiyati, ikkinchidan, turli qarashlarni birlashtirish hodisasi. Aynan turli qarashlarning yagona mohiyatda markazlashuvi insonni taftish va tahlil qilishda aynanlik xususiyatining saqlanishi deb izohlash mumkin.

<sup>61</sup> N.Rahimjonov. Mustaqillik davri o’zbek she’riyati. –Toshkent: Fan, 2007. – B.196.

<sup>62</sup> Куронов Д., Мамажанов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. –Тошкент: Академнашр, 2013. –Б.177.

Sirojiddin Sayyid ichki sezgilarining jilvalarini ko'rsatishga, ko'ngil manzaralarining tasvirini berishga intilganligi, adabiy an'analardan oziqlanganligi sababli uning ijodida Vatan poetik obrazi mukammallahdi. Natijada she'rning shakli, ijodkorning badiiy uslubi serqirra ranglarda toviana boshladi. Ruhiyat manzaralarini aks ettirish poetik tasvirda yetakchilik qildi. Shoирning kechinmalar va ruhiy holatlar tasviriga alohida e'tibor berishi uning adabiy izlanishlaridagi o'ziga xoslikning ifodasidir. Mavjud an'analar bilan bir qatorda, jahon she'riyatidagi turfa xil adabiy-poetik usullar Sirojiddin Sayyid she'riyatining yangilanishiga zamin hozirladi.

Bugungi kunda ham Sirojiddin Sayyid rus va jahon she'riyatining nodir namunalarini tarjima qilib, o'zbek adabiyotini boyitib kelmoqda. Jahon adabiyoti tajribalarida Vatan obrazi tasviri o'zbek tarjimachilik mакtabida badiiy takomil topishida, shubhasiz, Sirojiddin Sayyidning ham munosib hissasi bor.

## **BIRINCHI BOB BO'YICHA XULOSALAR**

1.Sirojiddin Sayyid barcha ijodkorlar qatori Vatanning turli sifatlari, Vatanga muhabbat tushunchasining yangi qirralarini kashf etishga, Vatan timsoliga xos o'zgacha tashbehlar qo'llab, she'riyatimizni Vatan haqida yaratilgan eng yaxshi poetik asarlar bilan boyitishga munosib hissa qo'shib kelmoqda.

2.Insoniyat tafakkurga ega bo'lган davrdan boshlab olam va odamni, tabiat va jamiyatni anglashga intilib keladi. Folklor va mumtoz an'analardan boshlangan bu tushunchalar XX asr she'riyatida ham poetik talqinda yana-da teranlashganligini kuzatish mumkin. Xalq og'zaki ijodidan oziqlangan Sirojiddin Sayyid ijodida ham uning sezilarli ta'sirini kuzatish mumkinligi asoslandi. Shoир she'riyatida folklorga xos soddalik, teranlik, poetik tasvirdan oziqlanish, muallifning badiiy ijoddagi o'zigagina xos bo'lган estetik olamini belgilashga xizmat qilishi dalillandi.

Sirojiddin Sayyid xalq qo'shiqlarining ruhi, ohangi, obrazlari, fikr va kechinmalarini, ularning ifodalanish usullarini chuqr anglaganligini asarlari misolida isbotlash mumkin. Shoир ijodiga xalq og'zaki ijodining ta'siri sezilarli

darajada ekanligini bir qator she'riy asarlarining tahlili misolida ko'rsatishga harakat qilindi.

3. Bilga xoqon, Eltarish xoqon to‘g‘risidagi ma’lumotlar, To‘nyuquq haqidagi toshbitiklarda turkiy qabilalarning jasurligi, dushmanga qarshi qahramonona kurash olib borganliklari, turkiylar yashagan hududlar xalqning mehnatsevarligi tufayli tinch, obod va osoyishta ekanligi madh etilgan. Yozma adabiyotda abadiy eskirmas mavzu hisoblangan vatanparvarlik mavzusi hamisha xalq og‘zaki ijodidan kuch oladi, ilhomlanadi, yangi-yangi qirralarini kashf etadi.

4. Vatanga sadoqat, vafo, sabr, qanoat singari umuminsoniy fazilatlarni lirk talqin etish barobarida yirik ijtimoiy muammolarni ham qalamga oldilar. Mumtoz she’riyatning faol janrlaridan biri, har bir bandi besh misradan tashkil topgan lirk she’r shakli bo‘lgan muxammaslar shoir she’riyatida yuksak darajaga ko‘tarildi. Sirojiddin Sayyid aruz vaznida Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur ijodidan ilhomlanib, ularni chuqur o‘rganib, bu she’riy tizimni yangi davr, yangi sharoitlarda rivojlantirishga barakali hissa qo‘shib kelayotir. Uning to‘rt jildlik “Asarlar”i har bir jildida aruz vaznida yaratilgan she’rlar o‘rin olgan. Shoir ustozlar an’analarini yangi davr, yangi sharoitda davom ettirishi bilan birga, ularni ijodiy rivojlantirish, g‘azalga zamonaviy ruh berishda salaflari orasida peshqadam bo‘lib kelmoqda.

5. O‘tgan asr adog‘idagi qarashlar, tafakkurdagi evrilishlar olam va odamnigina emas, globallashuv jarayonidagi hayotni anglash imkonini ham yaratdiki, bu jahon she’riyatidagi turfa talqinlarni keyingi yillar she’riyatiga singdirilishi, bu poetik talqinlardan Sirojiddin Sayyid ham sezilarli darajada “oziqlangan”ligini bir qator dunyo adabiyotidan amalga oshirilgan tarjimalar misolida mavzu ko‘lamiga alohida urg‘u berildi.

6. Har bir millat she’riyati, shu bilan uzviy ravishda Sirojiddin Sayyid she’riyati an’anaviylik asosida shakllanar ekan, shoir uslubi, poetik obraz yaratish mahorati, ramzlar silsilasi va milliy an’analar qatidagi yangicha bir ko‘rinishlarda namoyon bo‘lishi, tabiiydir. An’anaviylik milliylikka asoslangan vorisiylikning har bir davr uchun ijodiy prinsipligidan dalolatdir.

## **II BOB. POETIK MAZMUN VA SHAKLNING VATAN OBRAZI**

### **TALQINIDAGI O'RNI**

#### **2.1-§. Vatan obrazi tasvirining mazmunda ifodalanish tamoyillari**

Ijod hayotni teran anglash, olamni va odamni, tabiatni his qila olishga imkoniyat yaratadi. His qilingan hodisani anglangan tarzda she'riyatga singdira olish juda katta talantni, mashaqqatli mehnatni va iqtidorni talab etishi, tabiiy. Ana shu birgina iqtidor ijodkorning yetuk san'atkorligi, badiiy mahorati natijalari bilan belgilanadi. Shoirning badiiy mahorati esa shakl va mazmun mosligini poetik mukammallashtira olganida yuzaga chiqadi. Adabiyotning ilk nazariyotchilaridan Aristotel "Hajm asarning mohiyatidan kelib chiqadi. Har doim yaxshiroq tushuniladigan narsa hajman (ya'ni shaklan) ham go'zalroq bo'ladi",<sup>63</sup> deya ta'kidlagan.

Adabiyotshunosligimizda shakl va ma'no munosabati ma'rifiy-irfoniy talqinda ham, ilmiy-nazariy yo'nalishda ham alohida dolzarblik kasb etadi. Bu ilmiy muammo har doim adabiyotshunoslikning muhim nazariy masalalaridan sanalgan, ayniqsa, mumtoz adabiyotshunoslikdagi bu qarashlar hozirgi davr adabiyotshunosligidagi shakl va mazmun munosabatlarini tadqiq etish uchun fundamental asos hisoblanadi.

Islom nazariyotchilari shakl va mazmun tushunchasini Qur'oni karimdag'i juz va kull tabiatidan kelib chiqib izohlaydilar. Bu qarashlarning yorqin ifodasi Farididdin Attorning "Javhar uz-zot" asarida aks etadi. Attor talqinicha, Mutlaq ruh, ya'ni Haq (Kull) insoniyat va borliqdagi boshqa narsalar suratida ko'rinadi. Butun borliq aslida Kullning tashqi ko'rinishi bo'lib, surat shaklida namoyon bo'ladi.<sup>64</sup>

Jaloliddin Rumiy nazdida esa ma'no – ishq, surat esa uning nuridir. Rumiy hazratlari surat va ma'ni munosabatini mag'iz va danakka ham qiyos etadi.<sup>65</sup> Uning fikricha, danakni qo'lga kiritishdan asosiy maqsad, danak mag'ziga ega bo'lishdir.

---

<sup>63</sup> Aristotel.Poetika. –Toshkent: Adabiyot va san'at, 1980. –B. 190.

<sup>64</sup> Болтабоев X. Шарқ мұмтоз поэтикаси. – Ташкент: "Ўзбекистон миллий энциклопедияси", 2008. – Б.77.

<sup>65</sup> O'sha asar. – B. 78.

Mag‘izsiz danak qiymatsiz, danaksiz mag‘iz mavjud bo‘lomaganidek, shakl va mazmun ham bir-birini taqozo etuvchi muhim tushunchalardir. Surat ma’nining qobig‘i, ma’ni suratning mag‘zi sanalib, har ikkalasi ham badiiy asarning asosini tashkil etadi.

Adabiyotshunoslik ilmida shakl va mazmun muammosi doim dolzarb bo‘lib keladi. Shakl birlamchimi yoki mazmun? Shakl mazmunni talab qiladimi yoki mazmun shaklni keltirib chiqaradimi? kabi savollar doim jiddiy bahsmunozaralarga sabab bo‘lib keladi. XX asrning boshida Yevropa adabiyotida turli oqimlar, harakatlar avj oldi. Simvolizm, futurizm, formalizm singari oqimlar shakl va mazmun masalasida turli qarashlar va nuqtayi nazarlar paydo bo‘lishiga sababchi bo‘ldi. Formalistlar asar mazmunini bir chekkaga surib qo‘yib, shakl yetakchi bo‘lishiga urg‘u beradilar.

Shakl va mazmunning o‘zaro muvofiq bo‘lishi shartligi badiiy adabiyotning azaliy talablaridan biridir. Alisher Navoiy “Hayrat ul-abror” dostonida shakl va mazmunning bir-birini taqozo etishi haqida shunday deydi:

*Nazmda ham asl anga ma ’ne durur,  
Bo ‘lsun aning surati har ne durur.  
Nazmkı ma ’ni anga marg ‘ub emas,  
Ahli maoniy qoshida xo ‘b emas.  
Nazmkı ham surat erur xush anga,  
Zimnida ma ’ni dog ‘i dilkash anga.<sup>66</sup>*

Dostonning “So‘z ta’rifi”ga bag‘ishlangan bobida muallifning so‘z ilmi, adabiy turlar borasidagi nazariy-estetik qarashlari o‘z ifodasini topgan bo‘lib, xususan, adabiyotshunoslikdagi muhim ilmiy muammolardan biri hisoblangan shakl va mazmun mutanosibligi masalasidagi nazariy qarashlari bugungi davr she’rshunosligi uchun ham g‘oyat muhimdir. Navoiy fikricha, mazmunga mos surat(shakl) bo‘lishi shart, aks holda, uning badiiy qimmatiga putur yetadi. Bundan tashqari, “Hayrat ul-abror”ning na’tlarida ham Alisher Navoiyning shakl va

<sup>66</sup>Alisher Navoiy. “Hayrat ul-abror”. To‘la asarlar to‘plami, Oltinchi jild. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2013. – B. 51.

mazmun haqidagi nazariy qarashlari ko‘zga tashlanadi. Navoiy mazmunni jonga, shaklni jonning qolipi, ya’ni jismga qiyoslaydi: “So‘zdagi ma’ni jone dururkim, So‘z qolibi onsiz qolibe dururkim jonsiz...”<sup>67</sup>

Navoiy asarlaridan ilhomlangan, nazariy oziqlangan Sirojiddin Sayyid o‘zining “Xamsa hayratlari”da Hazratga hamohang tarzda o‘z qarashlarini quyidagicha bayon etadi:

*So‘z asli ma’nidan hayot olibdir,  
Ma’nisiz so‘z asli jonsiz qolibdir.  
Har so‘z ma’ni bilan nurafshon bo‘lgay,  
So‘zning qolibiga ma’ni jon bo‘lgay.* (IV, 38)

Bu misralardan ayon bo‘ladiki, Sirojiddin Sayyid *ma’no* so‘zga hayot baxsh etishiga, so‘z asli teran ma’no orqali mukammallashuviga, biroq shu ma’no *shakl* orqali ayon bo‘lishi, istifoda etilishiga urg‘u bergen.

Bundan tashqari, asarlarini sevib mutolaa etgan, tarjimalar qilgan shoir Jaloliddin Rumi ijodidagi biz yuqorida tahlilga tortgan shakl va mazmun haqidagi qarashlariga quyidagicha munosabat bildiradi:

*Yong‘oq ham aslida bilsang chormag‘zdir,  
So‘z po‘choq bo‘lsa gar, ma’ni – bor mag‘zdir.* (IV, 38)

Darhaqiqat, mazmunga mos surat(shakl) bo‘lishi shart, bo‘lmasa, asarning hech bir badiiy qimmati bo‘lmaydi. Professor Dilmurod Quronov shakl va mazmunning o‘zaro aloqadorligi to‘g‘risida ancha keng va batafsil fikr yuritgan. “Badiiy asarda, – deydi u, – shakl va mazmun o‘zaro *dialektik* aloqada bo‘lib, ular bir-birini taqozo qiladi, bir-biriga ta’sir qiladi, bir-biriga o‘tadi. Badiiy shakl bilan badiiy mazmun munosabatida ham mazmun yetakchiq mavqega ega bo‘lib, u shaklni hosil qilishda juda faoldir”<sup>68</sup>. Yozuvchi o‘z ijodiy niyatidan kelib chiqib, asarning shaklini belgilaydi, bu shaklga muvofiq mazmun kelib chiqadi. Shakl nisbatan muqim tushuncha bo‘lib, uzoq yashovchanlik xususiyatiga ega.

<sup>67</sup> Alisher Navoiy. “Hayrat ul-abror”. To‘la asarlar to‘plami, Oltinchi jild. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2013. – B. 52.

<sup>68</sup> Куронов Д. Адабиётшуносликка кириш. [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com) kutubxonasi, Б.93-94.

Badiiylik zamiridagi shakl va mazmunning hamohangligi, o‘zaro uyg‘unligi yaxlitlashgandagina, she’riyatning serjilo mazmun-mohiyati namoyon bo‘ladi, o‘quvchi qalbida tuyg‘ular shakllanishi imkonini beradi. Bu tuyg‘ularning asosida lirk qahramonning kechinmalar, oniy lahzadagi hislari kitobxon qalbiga ko‘chadi. Uning satrlaridagi har bir so‘z o‘zining badiiy quvvatini namoyon qilsagina, o‘quvchi qalbini larzaga sola oladi. Bu esa lirk asarning mazmun-mohiyatini teran anglash hissini uyg‘otadi.

Asrlar davomida shakllanib kelgan tarixiy taraqqiyot davomida insonni anglashga bo‘lgan intilish, uning tafakkur tarzini namoyon qilib kelmoqda. Shu jihatdan ma’naviy an'analar zamiridagi Vatanga bo‘lgan muhabbat ilk ibtidoiy tafakkurdan boshlanganligi hech kimga sir emas. Shuning uchun xalq og‘zaki ijodidan boshlab to bugungi kunga qadar shakllanib kelayotgan badiiy adabiyotning zamirida, asl mazmunida Vatan tushunchasi – inson erki, qadri milliylik vositasida ifodalanib kelganligini alohida ta’kidlash joizdir.

Adabiyotshunos Hakimjon Karimov qayd qilib o‘tganidek: “Milliylik bilan yo‘g‘irilgan she’rlarning ahamiyati shundaki, u yurtga, Vatanga, xalqqa, odamlarga nisbatan kishi qalbida katta mehr uyg‘otadi. Xalqning qadimgi qadriyatlari – urf-odat, udumlari, jo‘mard va tantiligi, mehnatkashligi naqadar fusunkorligi har bir asarning mazmuni orqali inkishof bo‘ladi, eng muhimi, go‘zal insoniy tuyg‘ularni tarbiyalaydi”.<sup>69</sup> She’riyat inson qalbini poklaydi, uning dardli alamli qalbiga taskin beradi, Vatanni anglashga, milliy qadriyatlarga mehr va muhabbatni uyg‘otadi.

Adabiyotshunos Matyoqub Qo‘shtonov esa shunday yozadi: “Qaysi bir shoir o‘z Vatani haqida she’r yozmagan? Qaysi bir kitobxon Oybekning “Bir o‘lkaki, tuprog‘ida oltin gullaydi” deb boshlangan “O‘zbekiston” she’rini zavq bilan qayta-qayta o‘qimaydi deysiz? Qaysi kitobxon Hamid Olimjonning “Baxtlar vodiysi”dan

---

<sup>69</sup> Каримов Ҳ. Истиқлол даври шеърияти. – Тошкент: Зарқалам, 2005. – В. 6.

misralar eshitib, dili to‘lmaydi, deysiz? Biroq Abdulla Oripov na Oybekni takrorlaydi, na Hamid Olimjonni va na Uyg‘unni”.<sup>70</sup>

Abdulla Oripovning “O‘zbekiston” she’ri haqida shunday mulohazalar o‘rtaga tashlanar ekan, bu ijodiy an’analarni yana-da yuksaklik sari ko‘tarishga intilgan Sirojiddin Sayyid ijodidagi Vatan mavzusini, buyuk iste’dodlar an’anasini izchillik bilan davom ettirgan va bu mavzuni o‘ziga xos uslubda qalamga olganini alohida ta’kidlamoqchimiz. O‘zbek she’riyatida Vatan mavzusida ijod qilgan sanoqli ijodkorlarninggina she’rlari yuqori baholanganligi ularda yuksak poetik mahorat, betakror mazmun mujassamlashganligidandir.

Shakl va mazmun muvofiqligi nuqtayi nazaridan Sirojiddin Sayyid ijodiga nazar solinsa, shaklning mazmunni talab etishi nechog‘lik zarurat bo‘lsa, mazmunning shaklga mutanosibligi, uning badiiy barkamolligini shu qadar ta’minalashi lozimligi haqida aniq tasavvur hosil qilinadi. Shu ma’noda atoqli munaqqid Ozod Sharafiddinov shoir ijodiga quyidagicha yuksak baho beradi: “She’riyat original poetik obrazlarsiz yalang‘och haykaldan ortiq narsa emas. She’rni she’r qilish uchun, unga jon ato etmoq uchun poetik obrazlar, detallar bilan bir qatorda teran fikr kerak. Poetik obraz poetik fikrni ifodalash vositasi, xolos. Sirojiddin she’rlari shunisi bilan qadrli. ...Shoir nazdida moziy yo‘llari boshdan-oyoq xalq dardi to‘shalgan yo‘llardir, bu benihoya dardni “qirq xotinli beklar to‘shakday to‘shab, yig‘ishtirmay” ketganlar. Shoир ana shu moziyni bugungi kunga qiyos qiladi”.<sup>71</sup>

Haqiqatan, Sirojiddin Sayyid she’rlari shaklga mos mazmun poetik obrazlar, original tashbehtar vositasida ta’sirchan ifodalanadi. Shoир Vatanning mukammal poetik obrazini yaratishda, uning o‘ziga xos chizgisini aks ettirishda bir qancha poetik obrazlardan, badiiy detallardan unumli foydalanadi. Ijodkor yurt tarixi, ajdodlari, bolaligidan tortib to hozirga qadar yashagan makonlari, kechirgan kechmishlari, uchratgan insonlari, duch kelgan voqealari va predmetlar, xullas,

<sup>70</sup> Кўшжонов М. Ҳаёт – адабиёт кўзгусида. Адабий-танқидий мақолалар. – Тошкент, Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1985. – Б.221.

<sup>71</sup> Шарафиддинов О. Шоирликнинг оғир юки (Сирожиддин Сайдов хақида), Сирожиддин Саййид. Асарлар. I жилд. – Т.: “SHARQ” нашриёти, 2018. – Б.8.

jamiki borliq vositasida mukammal Vatan timsolini, betakror yurt qiyofasini gavdalantiradi.

Shoir ijodidagi ayni o‘ziga xoslikni anglagan olim No‘monjon Rahimjonov shoir she’riyatidagi nozik jihatlarga e’tibor qaratadi: “Sirojiddin Sayyidning poetik obrazlari ona zamindan, o‘zbek tuprog‘idan kuch-quvvat oladi. Qanot bog‘lab ko‘kka ko‘tariladi. Shoir she’rlarida ona o‘lkamiz tabiat, gulzorlarining ifori bo‘yi-tarovati, qir-adirlar-u ko‘m-ko‘k osmonning hidi, rangi balqib turadi. Zamondoshlarimizning orzu kechinmalari, o‘y-fikrlari, go‘zallik ideali-yuadolat tuyg‘ulari o‘z ifodasini topadi”.<sup>72</sup> Sirojiddin Sayyid ijodini o‘rganish davomida u Vatan tasvirining mazmuniy ifodasida vatanparvar shaxslar, ona, farzand singari qahramonlardan, bug‘doy, o‘choq, gulxan, daraxt, makon, qumg‘on, so‘ri kabi timsollardan samarali va o‘rinli foydalanganligini kuzatdik. Bu o‘rinda ayni timsollarning ba’zilariga e’tibor beramiz, kuzatishlarimizni bayon etamiz.

Shoir she’riyatida shunday **vatanparvar shaxslar** timsoli mavjudki, ular yashagan davri, mavqeyi, ijtimoiy qatlamidan qat’i nazar yurt uchun kurashi, sadoqati, elparvarligi, millat taqdiriga daxldorligi bilan Vatan tushunchasi atrofida birlashadi. Shoir kitobxonni ular singari vatanparvarlikka undaydi. Xususan, quyidagi misralarda madh etilgan jadid bobolarimiz istiqlol uchun jon bergen vatanparvar shaxslarning eng yuksak timsoli bo‘la oladi:

*Ne tong edi – izg‘irinlar zahrini totding,  
Dasturxonda muztar qoldi qand-u naboting.  
Shahidlaring nomlaridir har bir raboting,  
Abadiy yod erur asli adabiyoting,*  
*Cho ‘Ipon, Fitrat, Qodiriy ham Usmonim, Vatan... (II, 188)*

Ko‘ramizki, bu mislalarda shoir mustamlaka davrida millatning boshiga tushgan og‘ir kunlarni, xalqning chekkan iztiroblarini alam bilan tilga olgan, unda Vatanni ozodlik yo‘lida shahid ketganlarining nomi bilan atagan. Quyidagi misralarda esa o‘zbekning asriy orzusi bo‘lgan istiqlolga shukronalar izhor etish

<sup>72</sup> Раҳимжонов Н. Мустақиллик даври ўзбек шеърияти. Тамойиллар, тажрибалар, сабоқлар. – Тошкент: Фан, 2007. – Б.163.

barobarida, buyuk ajdodlarimizni nafaqat kitobxonga namuna sifatida ko‘rsatadi, balki o‘zi ham ulardan ibrat olganligini qayd etadi:

*Naqshlaring qutuldilar kishan-bandlardan,  
Xatlar oldim Yuragimga Naqshbandlardan,  
Afrosiyob bilan tengdosh kuy-ohanglardan.  
She’rlarimga ranglar oldim Samarqandlardan,  
Gohi moviy, gohi zangor dostonim – Vatan.* (II, 189)

Bu imtiyozlar istiqlol tuhfasi ekanligini ta’kidlagan shoirda shukronalik hissi yana-da avj oladi. U bobolarga munosib bo‘lishga, Vatan sha’niga dilidagi eng muqaddas so‘zlarni aytishga oshiqadi va beixtiyor bizni ham undaydi.

Shoir she’rlarining ko‘pgina qahramonlari oddiy xalq orasidagi Vatanning fidoyi shaxslari. Xoh u dehqon, xoh fermer, xoh shaxmatchi bo‘lsin, Vatan nomini sharaflashga, xalqning koriga yarashga birgina hissa qo‘shdimi, shoir undan otalarcha faxrlanadi, do‘stlarcha g‘ururlanadi. Sirojiddin Sayyid nazaridagi vatanparvar shaxs, avvalo, mehnatsevar insondir. U tinimsiz mehnat qiladi, erta-yu kech ishlaydi va uning shu xizmatlari yurt obodligi va el farovonligiga muhim hissa bo‘lib qo‘shilishiga shoir ishonadi. Ahmad Fermer **xalq mehnatkashlarining** bir timsolidir:

*Sahar turib dalasida o ‘ylar surar,  
Har g ‘o ‘zaning niholida bo ‘ylar ko ‘rar.  
O ‘zi uchun koshonalar solmadi u,  
Qursa faqat bolalarga uylar qurar.* (III, 36)

Ahmad fermerning har bir kuni mehnat-u sinovda. U o‘zi uchun uylar qurmeydi, topganini xalqqa ilinadi. Ona yurtning qirlari qo‘y-u qo‘zilarga to‘lsin deya hatto uxlamaydi, muhimi, uning uchun Vatanning tuproqlari zar bo‘lsa bas:

*...Ahmad fermer bu dunyoda kam uxlaydi,  
Zar bo ‘lgaydir shuning uchun tuproqlari.* (III, 36)

Toki xalqning shunday mehnatkash farzandlari bor ekan, Vatan bog‘i mangu so‘lmasligini shoir baralla kuylaydi va bunday insonlar yurt kelajagini farovon qilishiga ishonadi.

Sirojiddin Sayyidning “Tegirmonchi” she’rida *vatanparvar shaxs* obrazi yana-da bo‘rtib ko‘rinadi:

*Odamlarning yumushida hozir bobo, tegirmonchi,*  
*Halol rizqdan doim topgan huzur bobo, tegirmonchi.*  
*Sening qora choponlaring oppoq unga belanadi,*  
*Tegirmonning ichidagi Hizr bobo, tegirmonchi.* (III, 110)

Qora mehnati ortidan halol rizq va huzur topgan tegirmonchi doimo xalqning xizmatiga shay. Hallolikning bundan-da yorqin timsoli bormikan?! She’rning har bir misrasini o‘qiganingiz sari ko‘z oldingizda haqiqiy vatanparvar siymo gavdalanadi. Bu yurtning farzandlari ana shunday halol insonlar. Bu kabi timsollar shoirning “Dehqon madhiyasi” she’rida ham o‘z aksini topadi:

*Tun chog‘ida tomingga*  
*Tomchilagan yomg‘irdir.*  
*Bir tomchisi – sevinch-u,*  
*Bir tomchisi og‘riqdir.*  
*Dastasiga sig‘mayin*  
*Yerni qumsar ketmoning,*  
*Umrin – dasht-u dalangning*  
*Mehnatlari og‘irdir.*  
*O‘zbekiston, onajon,*  
*Mangu issiq bag‘irdir.* (III, 157)

Shoir yurti uchun zahmat chekib, og‘ir mehnat qilayotgan oddiy dehqonning qiyinchiliklarini, iztiroblarini ich-ichidan his qiladi. Uning o‘z yurti uchun qilayotgan yumushlari aslida tashvish emas, faxr ekanligini ta’kidlaydi. Vatan bu kabi fidoyi farzandlari uchun “*Mangu issiq bag‘irdir*”.

Adabiyotshunos Damin To‘rayev she’riyatning azaliy va abadiy vazifasi el-yurt obodligi va hurligi, hayotdaadolat, haqiqatni qaror toptirish hamda ma’naviy kamolot uchun kurash ekanligini ta’kidlab, chinakam iste’dod egasi o‘z shaxsini

ulug‘lamasdan, hamisha Vatan va millatining iqbolini ko‘zlashini e”tirof etadi.<sup>73</sup> Sirojiddin Sayyid ijodi ana shu xususiyatlarni o‘zida aks ettirgan she’riyatdir.

Shoir ijodida olmos misol yarqirab turgan jihat uning yor-u diyorga cheksiz muhabbati, qalb tovlanishlari Vatan, Ona madhi tarannum etilgan samimiyl satrlarda “man a men” deb turadi. Shoir Ona timsolida Vatanini, yurtini ko‘radi. Vatan mavzusiga bag‘ishlangan she’rlarida **Ona** va **Vatan** obrazlari o‘zaro tutashganini, mazmunda poetik birlik hosil qilganini ko‘ramiz:

Ko‘klardagi to‘lin-to‘lin oyday Vatan,  
Osmon desam toshqin-toshqin soyday Vatan.  
Vatan desam, ko‘z oldimga onam kelgan,  
Onam desam, nigohimda paydo Vatan. (II, 317)

Qalblarda Onaga ehtirom, Vatanga muhabbat tuyg‘usi jo‘sh ursa, Vatanga va Onaga bo‘lgan farzandlik burchi tomirlarini jimirlatsa, shundagina har bir insonning ko‘z oldiga Vatan – deganida onasi keladi, Ona – deganida esa “*nigohida Vatan paydo*” bo‘laveradi.

Istiqlol she’riyatining poetik xususiyatlari haqida so‘z yuritgan adabiyotshunos No‘monjon Rahimjonov shunday yozadi: “Iste’dod yorqin shaxs, betakror shaxsiyat egasi degani. So‘z san’atkori faoliyatining ahamiyati, u qaysi masalaga munosabat bildirmasini, avvalo, nuqtayi nazari va estetik xulosaning xolisligi, yangiligi – orginalligi bilan belgilanadi. Bu – adabiyot, tasviriy san’at, musiqa bo‘ladimi, olis zamonlardan beri suyak surib kelayotgan, yozilmagan qonuniyatdir”.<sup>74</sup> Qayd qilinganidek, Vatanning poetik tasvirisiz she’riyatni, hattoki insoniyatni to‘la anglab bo‘lmaydi. Shuning uchun ham shoirlarning har biri bu mavzuni turfa xil poetik ohanglarda talqin etishi ham beziz emas.

**Ona** nomiga she’r bitmagan shoir topilmaydi. Abdulla Oripovning “Garchi barchamiz ham padarmiz biroq, Onadan tug‘ilgan payg‘ambarlar ham” satrlarini o‘qiganimizda, “Bu yorug‘ olamda Vatan bittadir, Bittadir dunyoda Ona degan nom” misralaridagi zalvor har bir farzandni onalarga e’zoz-u ehtirom

<sup>73</sup>Тўраев Д. Рангин тасвирилар жилоси. Адабий-танқидий мақолалар. – Тошкент: Академнашр, 2014. – Б.186.

<sup>74</sup>Рахимжонов Н. Истиқлол ва бугунги адабиёт. – Тошкент: Ўқитувчи, 2012. – Б.196.

ko‘rsatmoqqa da’vat etaveradi. Sirojiddin Sayyid ijodida ham *Vatan* va *Ona* obrazlari hamisha yonma-yon keladi. Shoirning “Vatanni anglash” she’rida mazmunning sayqallanishi, Vatan sog‘inchining asl negizi onaga bo‘lgan sog‘inchdan iborat ekanligi she’r mohiyatini tashkil etadi:

*Shabnam-shamnam tonglarda  
jayronlarga aylangan,  
Onang suvlar sep ganda  
rayhonlarga aylangan,  
Bir kechada sog‘inching  
osmonlarga aylangan,  
Sog‘inchlar ingday zangor  
osmonlari vatandir.* (II, 419)

Vatanning timsollari ko‘p. Har bir shoir Vatan haqida o‘z ovozi, o‘z sozi bilan kuylaydi. Ammo Sirojiddin Sayyidning Vatan obrazini yaratishdagi mahorati o‘zgacha. “*Shabnam-shabnam tonglar*”, tongda hovliga suv sepayotgan ona va shu suvlarni ichib o‘sigan rayhonlar, osmon qadar sog‘inchlar-u “*sog‘inchlar ingday zangor osmonlar*” – bularning bari Vatan! Ko‘ramizki, misralardagi yaxlitlikning asosida shakl va mazmunning dialektik birligi mujassamlashgan. Misralarda milliy an’analarning badiiy-estetik qiymati va zalvori yorqin aks etgan.

Shoirning “Bir farzand o‘stirganing” she’rida Ona-Vatanni kuylashning turli usullaridan foydalanganligini, poetik mazmunni yana-da mukammalashtirish yo‘lida davom ettirganligini kuzatamiz:

*Ko‘ngling ochsang maysa ham  
bolangga aylangaydir.  
Boshing uzra Vataning  
onangga aylangaydir.* (III, 26)

Shoir ijodida Vatan va ona obrazlari mohiyatan birlashib, o‘zaro tutashib, yagona mohiyat kasb etishi ko‘zga tashlanadi:

*Suvlaridan kuy berib  
Kuylar olay bu yurtda.*

*Yurtim desam onam u,*

*onam desam, bu – yurt-da. (III, 27)*

Ba’zan Vatan va ona tushunchalari shu qadar yaxlitlanadiki, shoirning Vatanga farzandligini o‘z onasiga farzandligidan ajratib bo‘lmasligini quyidagi misralarda kuzatamiz:

*Bir xas somoning ham jonimga payvand,*

*Sen menga onasan, men senga – farzand. (III, 46)*

Ona obrazi badiiy adabiyotda yetakchi, azaliy va abadiy timsollardan. Poeziyada ona obrazining talqinida har bir shoir o‘ziga xos yondashadi. Xususan, G‘afur G‘ulom, Oybek, Hamid Olimjon, Mirtemir, Shayxzoda singari shoirlar ijodida badiiy yuksak ona obrazlari yaratilgan. Ularning hammasida ham ona buyuk bardosh, tengsiz iroda, sabot va matonat timsoli sifatida ulug‘langan. U shunday buyuk zotki, har qancha ta’riflagan bilan kamlik qiladi. Nima uchun Onani Vatanga, Vatanni onaga mengzashadi? Vatan onaday muqaddas, aziz va ardoqli. Inson ona bag‘rida voyaga yetib, ona bag‘rida Vatanni taniydi. Uning bag‘rida yayrab-yashnash, uning buyuk mehrini his etish Ona timsolida Vatanni ko‘z oldida namoyon etadi. Shuning uchun Onaga farzandlik tuyg‘usi Vatanga farzandlik tuyg‘usi qadar o‘sib boradi.

“Zamonlar o‘zgaraveradi, tafakkur, taxayyul evrilaveradi, she’riyatda surat – shakl yangilanaveradi... Bundan qat’iy nazar, har qanday holda adabiyotning, she’riyatning darajasi ikki mezon – milliy ruh va mahoratga ko‘ra belgilanadi”, deya yozadi adabiyotshunos Nurboy Jabborov.<sup>75</sup> Sirojiddin Sayyidning quyidagi misralarida ayni ta’kidlagan ana shu ikki mezon – milliy ruh va mahorat yuqori darajada namoyon bo‘lganligini kuzatamiz:

*Beshiklarda o ‘ynagan*

*oppoq-oppoq qo ‘lchalar,*

*Ko ‘zmunchoqqa so ‘ylagan*

*ko ‘zmunchoqday ko ‘zchalar,*

---

<sup>75</sup> Жабборов Н. Замон, мезон, шеърият. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаса ижодий уйи, 2015. – Б.155.

*Ochilgan gul-g‘unchalar,  
Qand-u asal kulchalar,  
Momolaring to ‘y qilgan  
ayvonlari Vatandir.* (II, 419)

Vatan onaga, goho otaga qiyos etiladi, shuning uchun ham ona-Vatan, ota makon deymiz. Shoir yuqoridagi misralarida esa farzandni ham Vatanning timsoli, bir bo‘lagi deb biladi. Shoir bir she’rida “*Bir farzand o ‘stirganing – bir Vatan o ‘stirganing*” deya yozadi. “G‘alaba” sarlavhali she’rda esa “*Ona, Vatan, farzand payvand deydilar*” deya Vatan nomini ona va farzand bilan yonma-yon qo‘yadi. Haqiqatan ham farzand ulug‘ ne’mat, millatning davomchisi. Bunda Vatanning farzandga qiyos etilishida millatning bardavomligi va yurtning boqiyligini chin dildan xohlayotgan buyuk qalbning ulug‘ istagi aks etgani, shubhasiz. “*Momolar to ‘y qilgan ayvonlar*” tilga olinganda esa she’r qonida milliylik va o‘zbekona ruh yana-da jo‘s sh ura boshlaydi.

Mazmunning o‘ziga xos qirralari haqida adabiyotshunoslar shunday yozadi: “Badiiy asarda hayot parchasi yozuvchi dunyoqarashi va salohiyatiga muvofiq anglashilgan, baholangan, to‘ldirilgan, ta’sirchanlashtirilgan voqelik sifatida tasvirlanadi. Demak, uning mazmunida muallifning hayotni qanday tushunishi, uni qanday baholayotgani muhrini bosadi: mazmun fikr bilan, to‘g‘rirog‘i, yozuvchi g‘oyasi bilan chambarchas bog‘lanadi; g‘oyaviy mazmun bir butun va hal qiluvchi kuch obrazlar qismati orqali tiriladi”.<sup>76</sup> Qayd qilingan nazariy tushunchalardan shuni anglash mumkinki, ijodkor dunyoqarashi, estetik tafakkur kengligi, badiiy asardagi mazmunning poetiklashgan darajaga olib chiqishida ko‘rinadi. Bu esa ijodkor badiiy tafakkur olamining uzviy birligi sifatida misralarga singdirilishi asoslangan.

Milliylik zamiridagi rangin tasvirlar jilosida mazmunning poetik ifodasi, shoir lirik qahramonining Vatanni anglash, uni his eta olish imkonini kengaytiradi. Bir qaraganda, poetik talqindagi soddalik tasviri yetakchilik qilgandek. Ammo

<sup>76</sup> Умуроў X., Насиров А. Адабиётшунослик назарияси. Дарслик. – Самарқанд: СамДУ нашри, 2021. – Б.70.

jiddiyroq e'tibor qaratilsa, poetik mushohadaning xalqona ohangda ifodalanishini kuzatamiz. Shoир she'riyatidagi Vatan obrazining mazmunini poetik ifodasidagi talqinlar ham xalqona ruhni, ham mumtoz an'analarning mahsuli ekanligini anglaymiz.

Sirojiddin Sayyid poeziyasidagi original obrazlilik, tasvirning mazmunda ifodalanishi ta'sirchan, yuquvchanligi bilan salaflaridan alohida ajralib turadi. Adabiyotshunos olim B.Nazarov "Sirojiddin Sayyid she'rda obrazlilikka, obrazda – yangilikka astoydil intiladigan shoир",<sup>77</sup> deb bejizga ta'kidlamagan.

Zotan, shoирning Vatan to'g'risidagi har bir yangi she'ri yangicha tasvir vositalari, tashxislar bilan ohorlanadi. Kitobxon qalbini betakror poetik topilmalar bilan junbushga sola oladi.

Adabiyotimizda bug'doy rizq-ro'z, halollik, milliyligimiz ramzi sifatida namoyon bo'ladi. Sirojiddin Sayyidning esa **bug'doyni** Vatan obrazining poetik timsoli darajasiga olib chiqqanligini kuzatamiz:

*Oolloh o'zi bug'doying –  
tillolarga yetkazgay,  
Qabog'ingning ostidan  
balolarni ketkazgay.  
Oqsaro-yu Ko'ksaroy  
dunyolarga yetkizgay,  
Or-nomusdan yaralgan  
qo'rg'onlari Vatandir.* (II, 420)

Vatan ramzi – bug'doyni tilga olib, yurtining insonlari halol kun kechirayotganiga ishora qilgan shoир shunga aniq ishonadiki, shu halol mehnati ortidan topilgan rizq xalqini "tillolarga yetkazadi", "boshidan balolarni ketkizadi", faqatgina yurt qaram bo'lmasa bas. U Vatanning eng go'zal go'shalari, ajdodlarning or-nomusdan yaralgan qo'rg'onlari bo'lmish Oqsaroy-u Ko'ksaroylar bilan chin dildan faxrlanadi va bu faxr-u iftixorni she'rxon yuragiga ko'chiradi.

---

<sup>77</sup> Qarang: B.Nazarov. She'riy ifodaning yangilanishi. // <http://ziyouz.uz> sayti materiallarida olindi.

Sirojiddin Sayyid yana bir she’rida Vatanning qudrati, buyukligini bug‘doy timsolida gavdalantirganligini ham kuzatamiz:

*Tuproq kaftlaringga yuzimni bosay.*  
*Ey mening zaxmatkash elim – fidoyim.*  
*Oltin ufqlardan rang olib yozay,*  
*Ufqlarga qadar ketgan bug‘doyim.* (III, 160)

“Bug‘doyzorlarim” she’rida ham shoir Vatanning ramzi – bug‘doyni tilga olarkan, “bug‘doybo ‘y Vatan” deya yurtining insonlari halol kun kechirayotganiga ishora qiladi, shu halol mehnati ortidan topilgan rizq xalq hayotini farovon qilishiga ishonadi:

*Bu yurt non islidir, bu yurt – bug‘doybo ‘y,*  
*Gulbahor, menga ham ko ‘k choyingdan qo ‘y.*  
*Yozilsin dildagi bor xumorlarim,*  
*Mening akam, singlim – bug‘doyzorlarim.* (III, 46)

Vatanning poetik obrazi yaratilar ekan, shoir qarashlari tobora kengayib, poetik timsollari xilma-xilligi muntazam oshib borayotganini kuzatamiz. Vatanni onaga, otaga qiyoslash, aka, singil kabi qadrdonligini his etish Vatanga bo‘lgan muhabbat ifodasidir:

*...Meni katta qilgan chang g‘uborlarim,*  
*Ey ota makonim, bug‘doyzorlarim.* (III, 46)

Shoir qator she’rlarida Vatanni bug‘doyzorga, xalqni va o‘zini bug‘doy boshoqlariga qiyos etadi. Xususan, “Somon yo‘li somonlari” she’rida “*Garchi bug‘doy boshog‘idan yoshroqlar edik, Bug‘doyzorlar aro biz ham boshoqlar edik*”(III, 101) desa, “Bug‘doybo‘y Vatan” she’rida “*Bug‘doy boshog‘idan ungan shoirman, Boshoqdoshingdirman men ham, bug‘doyim*”(III, 160) yoki “*Handalakbo ‘y tuproq, bug‘doybo ‘y Vatan, Bugun har dehqoning – mo ‘tabar boyim*” (III, 160) kabi misralari orqali o‘zining ham Vatanga daxldorligiga, uning uzvi ekanligiga urg‘u bergen. Bu misralarning samimiyligiga hech shubha yo‘q. Bug‘doy – Vatan timsoli, Vatanning kuch-qudratini ko‘z-ko‘zlovchi buyuk ne’mat. Tarix qa’riga nazar solganimiz ham el-u yurt, shu muqaddas Vatan hamisha

bug‘doyni e’zozlab kelganligini kuzatamiz. Shuning uchun uning tuprog‘idan, har bir maysasidan bug‘doy hidi taraladi. Shoир nazdida, buyuk ajdodlarimiz ruhlari hamisha bu Vatanning rizq-u nasibasi butun bo‘lishini tilaydi:

*Ijobat topgaydir dil ayvonida  
Naqshband bobolar qilgan duoyim.  
Somon yo ‘llarining nur osmonida  
Sening sehring bordir, axir, bug‘doyim.* (III, 160)

Professor Q.Yo‘ldoshev ta’kidlaganidek: “Yurt tushunchasi tilidagina bo‘lib qolmay, ko‘ngliga ko‘chib, ruhini to‘liq egallagan ijodkor nima haqda yozsa ham Vatanni tasvirlagan bo‘lib chiqaveradi”<sup>78</sup>. Sirojiddin Sayyid she’rlarini o‘qib, tahlil qilib, shu narsaga amin bo‘ldikki, shoир qaysi mavzuga qo‘l urmasin, uning mohiyatida, asl mazmunida Vatan obrazi talqini namoyon bo‘ladi. She’rlarida obrazlilik kuchli, “Ustodi avval” she’rida buni yana bir kuzatamiz:

*Xatim chiqdi onam kaftin xatlaridan  
Kamol topdim kaftlarining taftlaridan.  
Mehrlari ko ‘nglimga ko ‘zlar bo ‘ldilar,  
Vatan yanglig ‘ ulug ‘vor so ‘zlar bo ‘ldilar.*

*Ta ’lim oldim boshoqlardan, donlardan ham,  
Kulcha yuzlar hamda kulcha, nonlardan ham.  
Men Vatanni o ‘rgandim har giyohidan,  
Shomlari-yu rayhonlarin siyohidan.* (II, 162)

She’rni o‘qigan har bir muxlisda she’r sarlavhasidan gap ustoz haqida ketadi, degan fikr paydo bo‘ladi. Lekin uning ustodi avvali – Vatanning boshoqlari, donlari, giyohlari. Quyidagi misralarga e’tibor beramiz:

*Men shundayin so ‘zga to ‘ldim ichlarimdan,  
Harf o ‘rgandim uylaring ham sinchlaringdan.  
Har qarichi har g ‘ubori imlo, yurtim,  
Har bir toshi, har chinori mullo yurtim.* (II, 163)

<sup>78</sup> Қ.Йўлдош. Ёник сўз. Адабий ўйлар. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2006. – Б. 123.

Xullas, shoirning mahorati shundaki, mohir haykaltarosh yoki usta zargar kabi oddiy detallardan ham ulug‘vor go‘zallik, purma’no hikmat yarata olgan. U Vatan tasvirida ko‘k toqidan, ulug‘vor imoratlardan, buyuk daholardan tortib oddiy xor-u xas, gard va giyohlardan ham buyuk timsol sifatida mohirona foydalangan. Shoир she’rlardagi vatanparvarlik tuyg‘usi, Vatanning azizligi, muqaddasligi naqsh etilgan misralar, misralardagi quyuq tashbehlar, ajoyib va rang-barang, noyob sifatlashlar shuurga qo‘rg‘oshinday quyilib qolganligini kuzatdik.

Adabiy asarning joni – uning mazmuni,<sup>79</sup> deydi Abdulla Qahhor. Adabiyotshunos H.Umurov mazmun shaklga nisbatan doimo yetakchilik qilishini ta’kidlaydi.<sup>80</sup> Haqiqatan ham, mazmun har qanday badiiy asarning asosi, yuragidir. Shu nuqtayi nazardan, Sirojiddin Sayyid ijodiga nazar tashlasak, Vatanning poetik tasvirini yaratishda yana bir qancha obraz va detallarning mazmunda yetakchiligini ko‘ramiz. Shulardan biri **o‘choq** obrazidir.

“**O‘choqlar**” chinakam vatanparvarlik, millatparvarlik ruhidagi she’r. O‘choq – Vatan timsoli, uning bir parchasi. U rizq yaratuvchi, hayot abadiyligini ta’minlovchi tiriklik manbayi. O‘choqdagi olov – kuch-qudrat, jo‘shqinlik, hayotga muhabbat ramzi. O‘choqda olov bor ekan, demak, hayot abadiy, yurt, Vatan hamisha sobit va qudratli. Shoир bundan g‘ururlanadi, qayga borsa ham uni o‘choqlar kutib oladi, o‘choqlardagi gurillab yonayotgan olov uning qalbiga tuganmas zavq-shavq soladi:

*Men qayga bormasam – toqqa yo cho ‘lga,*

*Kunduzmi yo oqshom yoki kechasi:*

*Viqirlab “kuylagan” qumg‘oni bilan,*

*Rizqlar qaynayotgan qozoni bilan*

*Kutib olar meni tirik o‘choqlar.* (I, 38)

“Xadicha cho‘ponning xotini” she’rida o‘choq va yonayotgan gulxan obrazi qo‘riqchi posbon, himoyachi timsoli sifatida namoyon bo‘lgan:

<sup>79</sup> Абдулла Қаххор. Ёшлар билан сұхбат. – Тошкент: Ёш гвардия, 1986. – Б. 58

<sup>80</sup> Умуроғ X. Адабиёт назарияси. – Тошкент: SHARQ, 2002. – Б.115.

*Yolg‘iz ro ‘zg‘orining timsoli bo ‘lib*

*Tunlari o ‘chmasdan yonadi gulxan.* (I, 38)

O‘choqdagi o‘chmas **gulxanlar** Vatanning abadiyligiga, xalqning umrboqiyligiga ishora qiladi:

*O‘tov. Quriyotgan choriqlar. Cho ‘pon*

*Charchagan. Uxlaydi – ko ‘ksida tayoq.*

*Suruv ichra kezar to ‘lg‘oq sezgisi,*

*Tun bo ‘yi ko ‘zini yummaydi o ‘choq.* (I, 97)

Vatan – qo‘rg‘ondir, jonkuyarlik unga xos. U xalqi boshida soyabon bo‘lgani kabi o‘choq ham hamma uxlasa-da, cho‘ponning oilasini, suruvini qo‘riqlab ko‘zlarini yummaydi. Shoirning “Jarohat” dostonida bunday tasvir usulining yana-da teran ifodasi kuzatiladi:

*Dasht-u qirlardagi lolalar – Vatan,*

*Beshiklarda yotgan bolalar – Vatan,*

*Kechalari tog‘-u toshlarda*

*Sokingina yonayotgan gulxanlar – Vatan.* (I, 262)

Shoirning “Kundajuvoz. Kech kuz” she’rida ham o‘ziga xos poetik talqinni kuzatamiz:

*Chuqurlikda joylashgan qishloq,*

*Atrofda – qoyalar, qoyalar.*

*Kuzning chuqur ko ‘zlariday – o ‘ychan o ‘choqlar*

*Boqarlar, boqarlar, boqarlar.* (I, 80)

Chuqurlikda joylashgan qishloqning atrofidagi qoyalar, o‘lmas bir xalqning dardlarini o‘zida mujassamlashtirgandek, uning dardlari bilan yashayotgandek, bu dardni faqat qoyalar ko‘tarishi mumkindek. Ammo shu dardni, kishi ilg‘amas alamlarni qoyalar kabi insonlar ko‘taradi. Kuzning “tabiatning sarg‘aygan ko‘zları” uning tegrasidagi hattoki “o‘ychan qozonlar” ham shu hasratni ko‘tarib turganligi bejiz emas.

Sirojiddin Sayyid ijodini tahlil qilarkanmiz, unda **daraxt** obrazi ham Vatanning uzvi sifatida tasvirlanganligiga amin bo‘lamiz. Chunki shoir

bolalikdanoq daraxtlarga mehr qo‘yadi. “Mening daraxtimni kesmang, otajon” deganida shoirning ham tabiatga, ham ona-Vatanga cheksiz mehrini his qilish mumkin:

*Barcha ayb mendadir,  
Bu daraxt nechun?  
Odobsizlik qilganim-chun  
Yodingizdam –  
Adabimni bergandingiz bir xipchin bilan,  
Bu daraxt – o ‘sha xipchin.* (I, 13)

Milliy adabiyotimizdagi she’riyat sahifalariga nazar solsak, daraxt shoirlar ijodida turli badiiy-estetik vazifani bajarib kelganligini kuzatamiz. Masalan, Omon Matjon “*Yuragimdir yonayotgan daraxt*” deganida umrning shiddatini, orzu-umidlarning kishi qalbiga tinchlik bermasligi, shu boisdan doim uyg‘oq bo‘lishga chorlashini ifodalaydi. Zulfiya “*Daraxtday qulasam bir kuni agar, Mening hayot bog‘im qolmas huvillab*”, deya umrni daraxtga o‘xshatadi, avlodning davomiyligi bir daraxt o‘rniga boshqasi o‘tqazilishi, “hayot bog‘i huvillab qolmasligi” haqida falsafiy mushohada yuritadi. Sirojiddin Sayyid ijodida esa daraxt obrazi orqali bolalik damlariga bir zumga qaytadi. Daraxt obrazi metonimik tushuncha kasb etgan: daraxt deyilishi bilan inson umrining eng zavqli, beg‘ubor onlari bo‘lgan bolalik ko‘z o‘ngingizda gavdalanadi. Xipchin uning juda kichik bir bo‘lagi. Ammo u ko‘p narsalarni yodga soladi: bolalik sho‘xliklari, ba’zan odobsizlikka yo‘l qo‘yilishi va shunda u unga saboq bergani shirin entikish bilan eslanadi.

Shoirning “Singlimga xat” she’rida esa ***daraxt*** o‘zi tug‘ilib-o‘sgan qishloq sog‘inchini, bolaligi o‘tgan yillar taftini ifoda etganini ko‘ramiz:

*Xatlar yozdim: “Bormisan, singil  
Daraxtlarim mening omonmi?  
Men omonman, tanimoqdaman  
Gohi baland, goh past insonni”.* (I, 18)

Bu misralarda “daraxt”– detal, shoirning bosh estetik maqsadini ifodalashda asosiy vazifani bajarmoqda. “*Daraxtlarim*” deganda bu daraxtlarni uning o‘zi

ekkanligi, ular nihoyatda qadrdon ekanligi, hamisha ular o‘ziga chorlab turishini his etamiz. Qadrdon qishloq, unda barq urib o‘sayotgan daraxtlar Vatan timsoli bo‘lib gavdalananadi. Shoir ijodidan o‘rin olgan “Shohtut” nomli she’rida Vatanga muhabbat yana-da jonli va ta’sirli darajada o‘z ifodasini topgan. Shohtut xalqning jonli tilida shotut nomi bilan yuritiladi. She’rni o‘qir ekanmiz, shoir bolalik xotiralari bag‘riga cho‘mganligini ko‘ramiz:

*Oybibi momomning yashil shohtuti,*

*Yaxshi-yu yomonga – bir dilxoh tuti.*

*Neveralariga mevasin bergen,*

*Soyasini bergen – oromgoh tuti.*

*Momom shohtutiga nigohbon edi,*

*Shohtut ham momomday mehribon edi.*

*Uning shoxlarida katta bo ‘ldik biz,*

*Shoxlardan naryog ‘i ko ‘k osmon edi.* (III, 118)

Shoirning “Shohtut” she’rini o‘qir ekanmiz, Oybibi momoning hovlisida o‘sgan shohtutdan hamma bahramand bo‘lganligini mevalarini neveralar to‘yib yegan va soyasida orom olishganligini, momo doim unga ko‘z-qulqoq bo‘lib turganligi, bolalar uning shoxlariga tirmashib chiqishganligi va u yerdan ko‘mko‘k osmonga boqishganligidan xabardor bo‘lamiz. Lekin, bular oddiy tafsilot bo‘lsa ham, unda yaxshilik, ezgulik, beg‘ubor bolalik tasavvuri bilan jonlantirilgani har bir kitobxon e’tiborini o‘ziga tortadi.

Vatan, el, yurt tushunchalari **makon** obrazi vositasida yana ham konkretlashadi, katta salmoq kasb etadi. Makon kishining kindik qoni to‘kilgan joy, ulg‘aygan, dunyonи tanigan yeri, Vatanni anglashdan oldin his etiladigan Vatan. Tirik jon borki, o‘ziga munosib makon izlaydi, unga mehr qo‘yadi, ko‘z qorachig‘iday asraydi. Bu makonning har bir jonzoti, har bir giyohi muqaddas. Shoirning “Bahor” she’rida makon obrazi o‘ziga xos tarzda aks etgan. Unda shoir tug‘ilib o‘sgan Hisor tog‘laridagi Kunda Juvoz qishlog‘ining bahor tarovati tasvirlanadi:

*Kunda Juvoz tog ‘larida uyg ‘onadi ayiqlar,  
Uyg ‘onadi kakliklar,  
Paydo bo ‘lar ohular.*

*Tabiatning unutilgan lug ‘at kitobi kabi  
Uyg ‘onadi  
Kunda Juvoz tog ‘larida bobomning bog ‘i. (I, 11)*

Ayiqlar, kakliklar, ohular bu makonning egalari. Ammo unda bog‘lar ham bor. Bahorda bu bog‘lar uyg‘onadi va tog‘larga ajib husn bag‘ishlaydi. Bularning hammasi Vatan obrazi bilan chambarchas bog‘lanib ketadi.

“Bo‘ri cho‘ponning o‘g‘liga nasihat” she’rida adirlar-u tog‘larni, suruvlarni Vatan deb tushunish, unga butun mehrini baxsh etish tuyg‘usi ifodalanganligini kuzatamiz:

*Bu adirlar, bu tog ‘lar – Vatan!  
Bu suruv ham Vatandir senga,  
Uni asragin! (I, 44)*

Bo‘ri cho‘ponning bu kabi so‘zлari shunchaki nasihat emas, balki bu so‘zлar zamirida chuqur haqiqat yashiringan. Aslida **suruv** ona-Vatanning boyligi, el farovonligining asosi bo‘lsa, bo‘ri esa shu yurtga, uning boyliklariga ko‘z olaytiradigan g‘animlar. Ular bu boyliklarga ega bo‘lish uchun jon-joni bilan harakat qiladi. Shunday paytda g‘animga g‘animdek bo‘lish Vatanga bo‘lgan cheksiz muhabbat tufayli paydo bo‘ladi.

“Kamalak rangida...” deb boshlanuvchi she’rda shoirning ota makoni – kindik qoni tushgan Bobotog‘ adirlari, Bandixon dashtlari ulkan Vatan ichra hech kimga bergusiz muqaddas joyligi ulug‘lanadi, shaharlar sershovqin, unda kuy-qo‘shiqlar tinmaydi. Ammo bu joylarning go‘zalligi tog‘lardagi viqor, adirlar go‘zalligi, dashtlarning fusunkorligi oldida hech narsa emas. Bu makonga tashrif buyurganlar yangi ohanglarga g‘arq bo‘ladilar, yoshliklariga qaytadilar:

*Yoshliklarga qaytarib Sizni –  
Ruhingizga quyilar ohang.  
Mayli,*

*Men xalaqit bermayman Sizga.*

*Eslayman Bobotog‘ adirlarini,*

*Bandixon dashtlari kelar yodimga. (I, 61)*

Sirojiddin Sayyidning “Vatan” she’rida **ayvon** detalidan ham foydalanilgan. Ayvon odamlar yashaydigan uyning bir qismi. Ko‘pincha u quyoshga qaratib quriladi. Tong payti zarrin nurlarini sochgan quyosh tunda oy shu’lasidan yorishib turadi. Uning bunday osuda, charog‘on bo‘lib turishini Vatan timsoliga mengzaydi. “Oy-u quyosh ko‘rpa solgan ayvonom Vatan” (II, 187) tavsifida Vatan gavdalaniadi. Yoki “Vatan qo‘shig‘i” she’rida Vatan “naqshin nigor beshigim”, “quyosh ochgan eshigim”, “otam aytgan qo‘shig‘im” (II, 279) deb ta’riflanadi. Bu tashbehlar tabiiyligi, o‘ziga xosligi, nazmiy ohangdorligi bilan ajralib turadi.

Shoir she’riyatini o‘rganar ekanmiz, uning “Jarohat” dostonida Vatanning poetik timsoli yana ham keng qamrov kasb etganligini ko‘ramiz. Bunda shoir Vatanni turli timsollar vositasida ifodalaydi. Bular: “Olisga termulgan tol”, “sigir sog‘ayotgan ayol”, “xayol surayotgan kelin”, “yangi ko‘ylak kiygan qizaloq”, “unib chiqqan ismaloq”, “dasht-u qirlardagi lolalar”, “beshikda yotgan bolalar”, “sokingina yonayotgan gulxanlar”, “Yor-yor”lar ham o‘lanlar”dir. Shoir Vatanni har bir uzvda ko‘rar ekan, yurtning shu dorulomon kunlari qancha zahmatlar va jarohatlar, otasi va unga o‘xshaganlarning umri evaziga kelganini ta’kidlaydi:

*Ming-ming sizga o‘xshaganlarning*

*Zahmatlari sabab ro‘yobga kelgan.*

*Umrlari evaziga abadiyplashgan*

*Mana shu Vatanni sevaman, ota! (II, 279)*

Xulosa qilib aytganda, shoirning mahorati ma’lum bir shaklga singdirilgan poetik mazmunning zalvorliligida, uning badiiy tasvirlar asosida isbotlanishida emotsiyonallikni yuzaga chiqarganligida ko‘zga tashlanadi. Uning lirik qahramoni, badiiy tafakkur tadriji shu darajada ulug‘vorlik kasb etadiki, buning tag zamirida shoirning poetik mahorati va jozibasi o‘z ifodasini topganligi turadi. Sirojiddin Sayyid she’riyatining asosida, badiiy mukammallikni namoyon etishida, hayot

voqelagini, inson ruhiyatidagi oniy lahzalarni poetik mazmunga singirilishida lirk tasvirning yuksak darajaga ko‘tara olgan poetik mahorati ustuvorlik qilgan.

Sirojiddin Sayyid she’riyatida musiqiylik, ohangdorlik bor, bunda eng asosiysi poetik mazmun mavjud. Mana shu mazmunda esa dard, alam, iztirob, quvonch kabi yuzlab biz anglagan, anglashga intilgan badiiy mo‘jizalar yuksak mahorat bilan o‘z ifodasini topgan.

## **2.2-§. Obraz talqinida poetik shaklning o‘rni**

Lirk asarlarning asosiy xususiyati hayotiy voqealar silsilasini, lirk qahramon botiniy olamiga ta’siri ifodasini estetik talqin etish asosida poetik ifodalashdan iborat. Inson shuuridagi turfa xil tuyg‘ular, kechinmalarning badiiy poetik talqini o‘z mohiyatiga ko‘ra ma’lum bir shaklda ifodalanadi. Tarixiylik nuqtayi nazardan olganda ham asrlar davomida shakllanib kelgan badiiy ijod qonuniyatiga muvofiq har qanday tuyg‘u va kechinma ma’lum bir shaklda emotsiyonallik kasb etadi. Adabiyot ilmi bilan aytilganda, haqiqatni obrazlashtirish, ya’ni timsolli tushunchaga aylantirish va shu orqali poetik g‘oyani yuzaga chiqarish imkonini beradi. Shuning uchun ijodkor anglagan badiiy ifoda usuli poetiklashayotgan voqelik, kechinma va mushohadaning mohiyatidan kelib chiqib, shaklda namoyon bo‘ladi.

Poetik she’riyat qonuniyatiga ko‘ra shakl va mazmun o‘zaro mutanosib bo‘lishi shart. Agarda mazmunga mos shakl bo‘lmasa, mazmun o‘z mohiyatini butunlay yo‘qotadi, shaklga qurbon qilingan mazmun esa hech qanday estetik ahamiyatga ega bo‘lmay qoladi. Shuning uchun Alisher Navoiy ham shakl va mazmun birligiga, shaklga xos mazmun, mazmunga mos shakl bo‘lishi zarurligiga hamisha urg‘u bergen va shoirlardan bunga qattiq amal qilishni talab qilgan.<sup>81</sup>

“Genial asar yozish badiiy shaklning ichki imkoniyatlarini to‘la ishga solish orqali amalga oshadi. Shakl inson xarakterini yaratishda, asar kompozitsiyasi va tilida namoyon bo‘ladi. Shakllangan obraz – tugal, bir butun, tipik, individual,

---

<sup>81</sup> Alisher Navoiy. Hayrat ul-abror. To‘la asarlar to‘plami, Oltinchi jild. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2013. – B.42.

emotsionaldir. Badiiy asar shakl orqali yashay oladi, obraz shakl orqali jonli ko‘rinadi; mazmunning yashash tarzi shakldir”.<sup>82</sup> Badiiylik nazariyasi ko‘ra, mazmun va shakl o‘rtasiga “xitoy devorini qo‘yib bo‘lmasligi”ning sababi ham, mazmun shaklga, shakl esa mazmunga o‘tib turadi. Shuning uchun lirk ijodkorning o‘ziga xos badiiy tafakkuri lirk asarlarning poetik talqinini ifodalab beradi. Bu esa o‘z navbatida, shaklni namoyon qiladi. Chunki muxammasga singdirilgan mazmunni to‘rtlikka, ya’ni murabbaga singdirib bo‘lmaydi. Bu esa shakl va mazmunning hamohang yashovchanligidan dalolat beradi. Badiiy shaklsiz mazmunni tasavvur etish mumkin emas.

Shu ma’noda Sirojiddin Sayyid she’riyatida mumtoz an’analarning mahsuli bo‘lgan turli she’riy janr va shakllardagi badiiy mukammal asarlari mavjudligini, ayni asarlarda turfa xil mavzular, uning badiiy talqini yetakchilik qilganligini kuzatdik. Shoир asarlarining birinchi tomidan o‘rin olgan “Dil bilan dil o‘rtasida” deb nomlangan g‘azallari oddiy she’riy mashqlar emas, aksincha, badiiy mukammal asarlar ekanligidan dalolat beradi. Bularning zamirida shoирning mumtoz an’analarni izchillik bilan davom ettirganligi, ammo kamtarona “G‘azal mashqi” deb qayd etishida ham o‘ziga xos jasorat, talant, ijodkorlik mahorati mujassamlashganligi o‘rin olgan.

“Sirojiddin Sayyid izlanishlarida to‘rtlik, g‘azal, sakkizlik, doston, muxammas hamda boshqa poetik janr va shakllardagi badiiy barkamol namunalar yaratildi. Shoир she’riyatining mavzu-masalalar ufqi kengayib, usluban boyib borayotganligini ham ko‘rsatadi. Ma’naviy-axloqiy, ijtimoiy mavzularni badiiy idrok va ifoda qilishda achchiq istehzo, falsafiy mushohadakorlik, publitsistik da’vat, o‘ychan psixologik kechinmalar, yengil humor unsurlari, hazil ohanglariga singdirilgan fojeiy haqgo‘ylik balqib turadi”.<sup>83</sup> Bu mulohazalarda haqiqiy ijodning o‘ziga xos tamoyillarini mukammal o‘zlashtirish, mavjud an’analarning

<sup>82</sup> Тўйчиев У. Ўзбек адабиётида бадиийлик мезонлари ва уларнинг маромлари. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2011. – Б. 394.

<sup>83</sup> Раҳимжонов Н. Мустақиллик даври ўзбек шеърияти. Тамойиллар, тажрибалар, сабоқлар. – Тошкент.: Фан нашириёти, 2007. – Б.164.

davomiyligini yuzaga chiqarish bilan birga novatorlikka intilgan ijodkorning o‘ziga xos uslubi va badiiy mahorati ham e’tirof etilgan.

Bu borada ijodkorning she’riyatini kuzatarkanmiz, avvalo, shoir Vatan mavzusining poetik talqinini yaratishda bir qator mumtoz hamda zamonaviy she’riy janr va shakllardan unumli foydalanganligini kuzatamiz. Uning ijodida g‘azal, muxammas, masnaviy, fard, to‘rtlik, beshlik, otilik, o‘nlik singari poetik janr va shakllar ham ayni mavzuning mukammal badiiy talqini uchun muhim ifoda vositasi ekanligiga guvoh bo‘lamiz.

Qolaversa, shoir she’riyatidagi yangilanishlar muntazamligi mumtoz adabiyotdan olingan tushunchalar, talqinlar, ijodiy yondashuvlarning turfa ohanglarda namoyon bo‘lishiga zamin hozirlaganligini, eng muhimi, mazmun va shakl, usul aloqadorligida hissiy, poetik tafakkur qirralarining hamohangligi, shoirning o‘zi mumtoz she’riyatdan yaxshi xabardorligi kabi omillarga ega bo‘lganligini tasdiqlaydi.

Dilmurod Quronov shakl va mazmunning dialektik aloqadorligi haqida fikr yuritib, shakl va mazmun bir-birini taqozo etishi, bir-biriga ta’sir qilishi, bir-biriga o‘tishini xos xususiyat sifatida ko‘rsatadi. Mazmunning shaklga nisbatan yetakchi ekanligi, mazmun shaklni belgilashda faolroq bo‘lishini asoslab, “San’atkor ijodiy niyatidan kelib chiqqan holda bo‘lg‘usi asarning shaklini belgilaydi, yana ham aniqrog‘i, bo‘lg‘usi asarning mazmuni uning shaklini belgilaydi”<sup>84</sup>, – deydi.

Badiiy ijod jarayoni shunday bir qatlamki, uning zamiridagi turfa xil ohanglar insonni butun borliqni anglashga, his etishga imkon beradi. Shuning uchun ham xilma-xil shakllar, ohanglar asosida badiiylik mujassamlashishi ham beziz emas. Vatan obrazining badiiy talqinida Sirojiddin Sayyid she’riyatining turli o‘lchamlarga sig‘masligi, buning natijasi o‘laroq, mavzu ko‘laming har xil janr va she’riy shakllarga singdirilishini kuzatamiz. Shoir uchun Vatan chegarasiz, hadsiz tushuncha, u Vatan deganda hamma narsani ko‘radi, his qiladi. Shuning uchun ham bu kechinmalar ifodasida turli she’riy janr va shakllarning salmog‘i kengligiga, shoir Vatan mavzusini yoritishda o‘ziga xos talqinlarda va poetik

<sup>84</sup> Курунов Дилмурод, Адабиётшуносликка кириш, [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com) кутубхонаси, Б.93-94.

shakllarda mavzu ifodasini lirik qahramon ruhiyatiga singdira olganligiga guvoh bo‘lamiz.

She’riy shakllar tabiatidagi kompozitsion o‘zgarishlar o‘zaro adabiy ta’sir, milliy badiiy-estetik tafakkur an’analari hamda ijodkorning individual poetik mahorati bilan uzviy bog‘liqlikda yana-da teranroq anglashiladi. Lirik asarlarning poetik shakllari, g‘oyaviy-badiiy jihatdan takomillashishi shoir ijodiga ham sezilarli ta’sirini ko‘rsatgan.

Sirojiddin Sayyid ijodida she’riy janrlarning ancha turi mavjud. Lirik, falsafiy, ijtimoiy, siyosiy, maishiy, ma’rifiy mavzulardagi asarlarida mazmun va shakl mutanosibligi shoir badiiy estetik maqsadini ifodalashda, ta’sirchanligini ta’minalashda, shoir mahoratining o‘ziga xosligini aniqlashda yorqin belgilarga ega. Vatan mavzusi shoir ijodida alohida katta salmoq kasb etgan. To‘g‘ri, Vatan mavzusida qalam tebratmagan ijodkor yo‘q. Vatan haqida o‘zbek milliy she’riyatida ko‘p mumtoz namunalar yaratilgan. Bir so‘z bilan aytganda, turmush ikir-chikirlaridan jahoniy, umumbashariy mavzularda yaratilgan asarlargacha hammasida Vatanning bir qirrasi, xos xususiyati, vataniy his-tuyg‘ular u yoki bu darajada aks etadi.

“Vatanim deb seni, uyg‘ondim” (Hamid Olimjon), “Bir Vatanning o‘g‘limanki, har taraf gul, lola, bog” (G‘afur G‘ulom) singari misralarda Vatanga muhabbat qalbdan otilib chiqayotganligi, o‘ta samimiyligi, haqqoniyligi bilan har bir o‘quvchi-kitobxonni o‘ziga maftun etadi. Davrlar o‘tgani sayin Vatanning poetik obrazini yaratishda yangiliklar, o‘zgarishlar muttasil yuz berishi tabiiy. Shuning uchun hozirgi paytda Vatan haqida yaratilayotgan poetik asarlar o‘tgan asrning 40-50-yillarida yaratilgan asarlardan keskin farq qiladi.

Bugungi she’riyat Vatan haqida havoyi, yuzaki, hayqiriqlardan iborat maddohlikni ko‘tarmaydi. Vatanning shunday poetik obrazini yaratish kerakki, unda yurakni qalqitib yuboradigan, larzaga soladigan, o‘ylantiradigan, Vatan oldidagi mas’uliyatini yodga soladigan o‘y-kechinmalar bo‘lishi kerak. Erkin Vohidovning “Vatan, to tanda jonim bor, Seningdirman, seningdirman”, Abdulla Oripovning “Vatanni kim ulug‘ bildi, aziz bildim men ul kasni, Vatan deb jo‘sh

ursa ko‘targum boshima xasni”, Shavkat Rahmonning “Sendan-da azizroq narsa yo‘qligin, Sochim oqarganda angladim Vatan”, Muhammad Yusufning “Qo‘ynimdagи iftixorim, bo‘ynimdagи tumorim, O‘zing mening ulug‘lardan ulug‘imsan, Vatanim” misralari shunday xususiyatga ega. Shu o‘rinda ta’kidlash lozimki, Sirojiddin Sayyid Vatan haqida kuylashning bugungi mezonlarini yaxshi tushunadigan, o‘zini huda-behudaga Vatanga fidoyi qilib ko‘rsatmaydigan, Vatan haqida rost so‘zlaydigan shoirlardan. Uning “*Har qarichi, har g‘ubori imlo, yurtim, Har bir toshi, har chinori mullo, yurtim*”, “*Beshigimni tebratgandir qaldirg‘ochlaring, Oy-u quyosh ko‘rpa solgan ayvonim, Vatan*”, “*Tiniqqina buloq bo‘lib oqib qolsam, Olloyorlar nazar qilgan jarlaringdan*”, “*Har xasida yuz ming bog‘ning qissasi, Chinorlari osmonlarning hassasi*”, “*Faqat dunyoda bir mangu chaman bor, Faqat Vatan mangu, Vatan betakror*”, “*Ozod bo‘lgan oyatlarin ko‘zlarga surtay, O‘z yurtiga qaytib kelgan Qur’onim, Vatan*”, “*Vatan nadir – anglang ranj-u ozoridan, So‘rang uni podshoh Bobur mozoridan*”, “*Bu diyorning ayvonlari nurga talosh, bu diyorning kayvonisi oy-u quyosh, Tomlar uzra cho‘zilib ko‘klar, oy, quyoshlarga, Uzum uzatib turgan ayvonlari Vatandir*” kabi misralari orqali Vatan obrazining poetik talqinini yangi bosqichga olib chiqdi.

XX asrning so‘nggi choragidagi lirikaning badiiy taraqqiyotini ta’minalashga xizmat qila boshlagan she’riy shakllar xilma-xilligi ijodiy individuallikni ham yuzaga chiqardi. Ijodkorning hayotni, ijtimoiy voqelikni yangicha talqin etish va badiiy estetik idrok etish an’analarining yuksalishi bilan ham uzviy bog‘liqdir.

Adabiyotshunos N.Shukurov bunday o‘zgarishlarni shunday qayd etgan edi: “Lirk asarning janrini aniqlash uchun misralar miqdori, bandlar tartibi, qofiyalash sitemasi bilan bog‘liq shakliy belgilar emas, mazmun, pafos, ifoda usuli, obrazli qurilish kabi belgilar hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Bu prinsip murabba, muxammas, musaddas, kabi poetik shakllarga ham tegishli”.<sup>85</sup>

Shu ma’noda Sirojiddin Sayyid asarlarining ham janrini belgilash, uning shaklini aniqlash bir qadar murakkab, ayni vaqtida nihoyatda dolzarb sanaladi.

<sup>85</sup> Шукуров ва бошқалар. Адабиётшуносликка кириш. Дарслик. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1970. – Б.181.

Buning sababi shuki, shoir kechinmalari ba’zan maxsus qoliplarni inkor qiladi, ba’zi she’rlari dostoniga, ayrim fardlar g‘azalga xos poetik mazmun ifodalaydi.

“Lirik asarlarning turfa xillari, janrlari va shakllari to‘g‘ridan-to‘g‘ri badiiy mazmunning mohiyatiga, uning namoyon bo‘lish tarziga bevosita daxldordir”.<sup>86</sup> Haqiqatan, shoir she’riyatidagi turli janr va shakllar poetik mazmunning mohiyat kasb etishida muhim vazifa o‘tagan.

Sirojiddin Sayyid she’riyatida Vatan mavzusi bir qancha **mumtoz** va **zamonaviy** she’riy janrlar va shakllar orqali ifoda etilgan. Har bir she’riy janr va shaklning tabiatidan kelib chiqib, Vatan tasvirining turli talqin va ifodalari namoyon bo‘ladi. Shoir Vatanning poetik timsolini yaratishda quyidagi mumtoz janrlarga murojaat qilganligini ko‘ramiz:

**Mumtoz janrlar:**

1-jadval

| №        | Janrlar  | I jild      | II jild      | III jild     | IV jild     |
|----------|----------|-------------|--------------|--------------|-------------|
| <b>1</b> | G‘azal   | <b>12/-</b> | <b>36/ 7</b> | <b>60/13</b> | <b>14/2</b> |
| <b>2</b> | Muxammas | <b>2/-</b>  | <b>5/-</b>   | <b>3/1</b>   | <b>20/1</b> |
| <b>3</b> | Masnaviy | <b>2/-</b>  | <b>10/4</b>  | <b>17/7</b>  | <b>15/-</b> |
| <b>4</b> | Fard     |             |              | <b>88/18</b> |             |
| <b>5</b> | Doston   |             |              | <b>1</b>     | <b>1</b>    |

*Izoh: Ushbu jadvalda janrlarning umumiyligi soni va yonida Vatan mavzusidagi she’rlar miqdori keltirilgan.*

**G‘azal** mumtoz adabiyotda eng oliy janr hisoblanadi, mumtoz, balki zamonaviy adabiyotda ham deyarli barcha shoirlar bu janrda o‘z imkoniyatini sinab ko‘rgan, o‘z salohiyati va imkoniyatidan kelib chiqib u yoki bu darajadagi g‘azallar yaratgan. Aslida g‘azal yagona vaznga ega bo‘lgan baytlardan tashkil topgan mumtoz janr hisoblanib, uning eng keng tarqalgan shakli poetikaga oid asarlarda 5-12 bayt deb belgilangan, ammo 5 baytdan 27 baytgacha bo‘lishi amaliyotda ko‘p kuzatilgan.

<sup>86</sup>Гегель. Сочинения. Лекции по эстетике. – Москва: ГИХЛ, 1958. Т.XIV. 320-стр.

Adabiyotshunoslikka oid turkiy tildagi ilk nazariy manba hisoblangan Shayx Ahmad Taroziyning “Funun ul-balogs‘a” asarida g‘azal shakli xususida shunday deyilgan: “G‘azalning aksari yigirma bayt bo‘lur. Va aqalli besh bayt.”<sup>87</sup> Ushbu janrda samarali ijod qilib, uni yangi bosqichga olib chiqqan Alisher Navoiy g‘azallarining aksariyatini 7, 9 va 11 baytli g‘azallar tashkil etgan. Yangi o‘zbek adabiyotida, asosan, barmoq vaznida ijod qilingan bo‘lsa-da, ammo bu janrda munosib asarlar yaratish an’anasi davom etdi. Habibiy, Sobir Abdulla, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Jamol Kamol, Mirzo Kenjabek va boshqa ijodkorlar janr rivojiga ulkan hissa qo‘shdi.

Umuman olganda, g‘azal janrida ko‘pchilik ijod qilgan bo‘lsa ham, ularning barchasiga bu janrning yuksak namunalarini yaratish nasib etmagan. Mumtoz she’riyat sir-asrorlarini teran anglagan, ustozlar an’analarini munosib o‘zlashtirgan va davom ettirolgan iste’dodli ijodkorlargina mumtoz janrlarda muvaffaqiyatli qalam tebrata olgan. Sirojiddin Sayyidni ham bu boradagi yetuk ijodkorlardan biri deyishimizga muayyan asoslarimiz bor.

Shoirning to‘rt jildlik “Asarlar”ining har bir jildida alohida bob sifatida berilgan mumtoz janrlar orasida g‘azallar miqdor jihatdan salmoqli o‘rin egallaydi. Ularni o‘rganar ekanmiz, avvalo, shoirning mumtoz adabiyot vakillari ijodini chuqur o‘rganganligi, ulardan ijodiy ta’sirlangani va aruz ilmidan yaxshigina xabardorligini kuzatdik.

Shoir ijodida turli baytlardagi g‘azallar mavjud bo‘lib, to‘rt jildli “Asarlar”i tahlili natijasida quyidagilar aniqlandi:

2-jadval

|                 | I jild      | II jild     | III jild     | IV jild     | jam'i        |
|-----------------|-------------|-------------|--------------|-------------|--------------|
| <b>4 baytli</b> |             | <b>2 ta</b> |              |             | <b>2 ta</b>  |
| <b>5 baytli</b> | <b>1 ta</b> | <b>7 ta</b> | <b>3 ta</b>  |             | <b>11 ta</b> |
| <b>6 baytli</b> | <b>4 ta</b> | <b>6 ta</b> | <b>4 ta</b>  | <b>1 ta</b> | <b>15 ta</b> |
| <b>7 baytli</b> | <b>6 ta</b> | <b>2 ta</b> | <b>12 ta</b> | <b>4 ta</b> | <b>24 ta</b> |

<sup>87</sup>Shayx Ahmad Taroziy. “Funun ul-balogs‘a”// Ўзбек тили ва адабиёти, 2002. – 1-son. – B.11.

| <b>8 baytli</b>  | <b>1 ta</b> | <b>3 ta</b> | <b>11 ta</b> | <b>4 ta</b> | <b>19 ta</b> |
|------------------|-------------|-------------|--------------|-------------|--------------|
| <b>9 baytli</b>  |             | <b>6 ta</b> | <b>6 ta</b>  | <b>2 ta</b> | <b>14 ta</b> |
| <b>10 baytli</b> |             | <b>1 ta</b> | <b>4 ta</b>  | <b>3 ta</b> | <b>8 ta</b>  |
| <b>11 baytli</b> |             |             | <b>1 ta</b>  | <b>1 ta</b> | <b>2 ta</b>  |
| <b>12 baytli</b> |             |             | <b>3 ta</b>  |             | <b>3 ta</b>  |
| <b>13 baytli</b> |             |             | <b>1 ta</b>  | <b>1 ta</b> | <b>2 ta</b>  |
| <b>14 baytli</b> |             |             | <b>1 ta</b>  |             | <b>1 ta</b>  |
| <b>18 baytli</b> |             |             | <b>1 ta</b>  |             | <b>1 ta</b>  |

Mazkur g‘azallar mazmunan rang-barang bo‘lib, ular orasida ijtimoiy ruhdagi g‘azallar ustunlik qiladi. G‘azallar qay mavzuda bo‘lmasin, barchasining zamirida Vatanga daxldorlik, xalq o‘tmishi va kelajagi, el tashvishi, yurt taraqqiyoti kabi tushunchalar mujassamlashgan. Sirojiddin Sayyid ijodida ushbu janrning mavzu ko‘لامи ancha keng. Ular orasida Vatan mavzusiga bag‘ishlangan g‘azallar ham talaygina. Shoirning “*Izhor*”, “*Hofiz g‘azali*”, “*Iftixor*”, “*Yosh shoirlarga*”, “*Tong*”, “*Mening shoirligim...*”, “*Yonib o‘tgil jahonda*”, “*Chamandirsan chamandan tashqarida*” kabi ko‘plab g‘azallarida Vatanning dunyoning jami go‘зal o‘лkalari ichra beqiyosligi, mangu va abadiylici, muqaddas yurtning bugungi dorilomon kunlari uchun avlodlar buyuk ajdodlar oldida hamisha qarzdorligi, o‘tmishdan saboq olib, keljak uchun qayg‘urish kabi g‘oyalar tarannum etilgan.

Shoir “*Izhor*” g‘azalida jahondagi nomdor yurtlarning go‘зalligini e’tirof etar ekan, biroq ularning hech biri o‘з yurtining Surxon-u Qo‘qonlariga teng bo‘lolmasligini qat’iy ta’kidlagan, shu yurtning qasida-yu dostonlari uni chin inson, haqiqiy vatanparvar shoir qilib ulg‘aytirganiga ishora qilgan:

*Na xush erur Istanbul-u Eron, Qohira,  
Surxon bo ‘lolmagan, biri Qo ‘qon bo ‘lolmagay.  
Har elatning o ‘z suyangan qo ‘shig ‘i bor, vale  
O ‘zbeginday qasida-yu doston bo ‘lolmagay. (II, 460)*

Shoirning Vatan haqidagi g‘azallarida insonlarni vatanparvarlikka chorlash g‘oyasi yetakchilik qiladi:

*Zavol ermas, kamol keltir ona yurtingga har soat,*

*U senga ham ona, ham yurt, senga ikki qanot bo‘lgay.* (III, 439)

Sirojiddin Sayyid “Chamandirsan chamandan tashqarida” g‘azalida Ona-Vatanning yangicha tasvirini chizadi. Mazmun jihatidan bir-biriga yaqin so‘zlar orqali misralarga chuqur ma’no singdiriladi:

*Chamandirsan chamandan tashqarida,*

*Chamanlar bari sandan tashqarida.* (III, 470)

She’rdagi ohang va ruh birinchi misralardayoq yurakka joylashadi. Mumtoz adabiyotdagi kabi nodirlik, ya’ni aruz vaznidagi musiqiylik sizni o‘ziga jalb etadi. Shoirona topqirlik va mahoratga tan bermasdan iloj yo‘q. Xuddi shunday lahzalardagina so‘z qudratining kuchiga imon keltirasiz. Keyingi baytda mazmun va mohiyat yana-da chuqurlashadi:

*Mening jonimsan, ey sarvi diloro,*

*Mening jonim badandan tashqarida.* (III, 470)

Shoirniing joni uning o‘zida (badanida), ammo Vatan ham jon qadarki, bu jon badandan tashqarida. Ya’ni ikki jonning egasi bitta.

Vatanni yashnatish uning sohibining ishi, hali u kafanga kirmagan ekan, shoir shu yurt uchun fidoyi bo‘lishga, umrini ezgulikka safarbar etishga chorlaydi:

*Nihol ek ezgulik bog‘iga, inson,*

*Yuribsan to kafandan tashqarida.* (III, 470)

Bittagina “to” old qo‘shimchasining o‘zi umrning intihosigacha bo‘lgan yo‘lni qamrab oladiki, bu, albatta, ulkan mohiyat va mazmun kasb etadi, kitobxonni mushohadaga undaydi.

*Vatan ichra safarlar ayla, ey dil,*

*Vatan bo‘lmas, Vatandan tashqarida.* (III, 470)

Vatan ichra safar qilish oddiy sayr emas, balki uning yukiga yelka tutish, uning bir farzand sifatidagi burchi haqida gap ketayotganligini anglaymiz. Shoir g‘azal

maqta’sida Vatan yagonaligiga urg‘u berar ekan, qalban va jisman u bilan birga bo‘lish sharafini ulug‘laydi.

**Muxammas** – har bandi besh misradan iborat she’riy janr. Nazariy manbalarda uning ikki turi mavjudligi qayd etiladi. Birinchisi, shoirning o‘z g‘azaliga muxammasi, ikkinchisi, boshqa bir shoirning g‘azaliga bog‘langan muxammasdir. Bunday muxammaslar Navoiy ijodida yetakchi o‘rin tutadi. Muxammas bog‘lash aslida ijodkor uchun qiyin vazifa. Chunki muayyan shoir g‘azali baytlariga qo‘shiladigan misralar bayt mazmuniga yana-da teranlik bag‘ishlashi, ko‘zda tutilgan badiiy estetik maqsadning ta’sirchan ifodalishiga xizmat qilishi lozim. Buning uchun muxammas ijodkori g‘azal ijodkorining fikr-o‘ylari, tuyg‘u va hayajonlarini chuqur his etishi, g‘azal yaratilayotgan lahzalardagi shoir ruhiy olamini tasavvur qila olishi va shu ruhiy olamga kira olishi zarur. Bunda eng ko‘p ibratni Navoiy yaratgan muxammaslardan olish mumkin, ular har bir ijodkor uchun namuna bo‘la oladi.

Bu o‘rinda birgina misol keltirish bilan cheklanamiz. Alisher Navoiyning mukammal asarlar to‘plami 1-jildidan “Badoye’ ul-bidoya” devoni o‘rin olgan. Bu devonda 5 ta muxammas keltirilgan. Shulardan 2 tasi Navoiyning o‘z g‘azaliga, 3 tasi ustozি Lutfiy g‘azallariga bog‘langan muxammaslardir. Lutfiyning “Ko‘kdadur har dam fig‘onim...” deb boshlanuvchi g‘azaliga bog‘langan muxammasda har bir bayt boshiga qo‘shiladigan uch misra baytlarda ifodalangan mazmunga shu qadar mos, mantiqan bog‘langanki, ikki daho so‘z san’atkorining fikr-o‘ylari, his-tuyg‘ulari shu qadar uyg‘unlik kasb etganidan har bir she’rxon hayratga tushadi.

Ishda qo‘yilgan maqsaddan kelib chiqib ta’kidlash joizki, Sirojiddin Sayyid ijodida muxammas janri alohida o‘rin tutadi. Shoir muxammaslarining aksariyati taxmis muxammaslardir. Bu muxammaslar Lutfiy, Atoyi, Hofiz Sheroyi, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Furqat, Sobir Termizi, Sidqiy Xondayliqiy singari ulug‘ so‘z san’atkorlarining g‘azallariga bog‘langan. Shoirning quyidagi muxammasi Sidqiy Xondayliqiyning Vatan mavzusidagi g‘azaliga bog‘langan bo‘lib, o‘z ijodiy tafakkuridagi Vatan tushunchasini uch misrada yetuk ifodalaydi:

*Bug ‘doy boshog ‘idan ungan so ‘zim – Vatan,  
Kimman axir sensiz men bir o ‘zim, Vatan?  
Olam aro mening yorug ‘yuzim Vatan,  
Jonim Vatan, tanim Vatan, ko ‘zim Vatan,  
Davron ko ‘rib, davr-u davron surg ‘on yerim.*<sup>88</sup>

Shoirning mustaqil muxammaslari orasida ham Vatan mavzusi kuylangan poetik mukammal muxammaslar mavjuddir. Uning “Jon-u dilim” muxammasi boshdan oyoq yurt tasviriga bag‘ishlangan. Har band so‘ngida “Ey, Vatan jon-u dilim, jon-u dilim nomingdadur, Yetti osmon jilvasi bir nurli ayyomingdadur” misralari naqorat sifatida keladi:

*Haq taolo qo ‘llagan yurt, sen valilar maskani,  
Har kaloming bir karomat, har g‘uloming bir g‘ani,  
Sen Buxoriylar bahori, Termiziylar gulshani,  
Ey Vatan, jon-u dilim, jon-u dilim nomingdadir,  
Yetti osmon jilvasi bir nurli ayyomingdadir.*

*Bitta g‘ishting, so ‘ylasa, olamga doston bo ‘lgusi,  
Har ko ‘ngil bunda fazo, har dil osmon bo ‘lgusi,  
Til chiqargan har o ‘g‘il, qiz O‘zbekiston bo ‘lgusi,  
Ey Vatan, jon-u dilim, jon-u dilim nomingdadir,  
Yetti osmon jilvasi bir nurli ayyomingdadir. (II, 462)*

Sirojiddin Sayyid ijodidan **masnaviy** janri ham salmoqli o‘rin olgan. Masnaviy janri taraqqiyotiga nazar tashlansa, mumtoz adabiyotda ham, zamonaviy adabiyotda ham bu janrda samarali ijod qilingan. Ahmad Taroziy “Funun ul-balogs‘a” asarida masnaviy ikki misradan iborat bo‘lib, ikki misra o‘zaro qofiyalangan bo‘lishi lozimligini va asosan, she’riy qissalar masnaviyda yozilganini ta’kidlab o‘tadi.<sup>89</sup> Tadqiqotlarda masnaviy Alisher Navoiy davriga kelib epik she’riyatning asosiy janriga aylangani, masnaviyda yuz berayotgan katta ijtimoiy voqealarni keng ko‘lamda yoritish, u yoki bu muammoni atroflicha

<sup>88</sup> Sirojiddin Sayyid. Matonat manzumasi. – Toshkent: “MASHHUR-PRESS”, 2018. – B.89.

<sup>89</sup> А.Тарозий. Фунун ул-балоға. Ўзбек тили ва адабиёти. Тошкент: 2002 йил, 1-сон. – Б. 84.

ishlangan syujet va obrazlar yordamida hal qila olish imkoniyati ko‘pligi haqli ta’kidlanadi.<sup>90</sup> Adabiyotshunos B.To‘xliyev masnaviyning janr xususiyati haqida gapirib, uning to‘rt jihatni haqida to‘xtaladi: 1) *masnaviy alohida, o‘ziga xos she’riy shakllardan biri*; 2) *masnaviydagi bayt misralari o‘zaro qofiyadosh bo‘ladi*; 3) *har bir bayt qofiya nuqtayi nazaridan mustaqildir*; 4) *masnaviy hajm va mavzu jihatidan chegaralangan emas*.<sup>91</sup> Haqiqatan ham, epik she’riyatda masnaviy – she’riy shakldan adabiy janr darajasigacha o‘sib chiqqan.

Masnaviyda yozilgan asarlarda qofiyalanish tarzi o‘ziga xos: asarning har baytida yangi, takrorlanmas, original qofiya keltira olish har bir ijodkorning mahorati, iste’dodi va boy ijodiy tajribasi bilan belgilanadi.

Sirojiddin Sayyid masnaviylarini kuzatganimizda, uning mumtoz adabiyot an’analarini munosib davom ettirgan ijodkor ekanligini, asarlariga jilo bergen namunalar yuksak mahorat bilan yaratilganligini kuzatdik. Masalan, uning “Darvozalar” she’ri zamonaviy masnaviy yo‘lida yozilgan:

*Mahkam bo‘lsak yurtni shikast etmasdilar,  
Qodiriyni balki olib ketmasdilar.*

*Bedarvoza shahar yo‘qdir, bobolardan  
Qolgan gap bu, olmadim men havolardan.* (II, 81)

Namuna sifatida keltirilgan misolda “etmasdilar-ketmasdilar”, “bobolardan-havolardan” singari to‘q qofiyalar misralar mazmunini bir zarbli, ta’sirli bo‘lishini ta’minlagan. Shoirning “Mard-u maydon o‘g‘lonlar” she’ri ham masnaviyda qofiyalangan:

*Shu tabarruk tuproq bizga azal Vatan,  
Betakror ham, muqaddas ham go‘zal Vatan.*

*Borligimiz – shunday Vatan bor uchundir,  
G‘urur uchun, nomus uchun, or uchundir!*

*Qudrat bergen, shiddat bergen jism-u tanga,*

<sup>90</sup> Қаранг: О.Носиров, С.Жамолов, М.Зиёвиддинов. Ўзбек классик шеърияти жанрлари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1979. – Б. 125.

<sup>91</sup> Тўхлиев Б. Юсуф Хос Ҳожибининг бадиий маҳорати. – Тошкент, 2005. – Б.9.

*Jonlar fido bo 'lsin deymiz shu Vatanga. (III, 412)*

Har baytdagi “azal-go ‘zal”, “bor-or”, “tanga-Vatanga” qofiyalari ohangdorlikni oshirgan, o‘ynoqilikni ta’minlagan. She’rning ravon o‘qilishida masnaviy qofiya muhim rol o‘ynagan. Shoiring boshqa masnaviy yo‘lida qofiyalangan she’rlarida ana shu xususiyat ajralib turadi. Lekin ularda aruzning qat’iy bir bahridan foydalanimagan. Faqat bunda mumtoz adabiyotimizdagи janrga shakliy o‘xhashlik mavjud, xolos.

**Fard** mumtoz adabiyotimizda hajm jihatdan eng kichik janr hisoblanadi. U atigi ikki misra – bir baytdan iborat bo‘ladi. Ammo fard ijodkori shu ikki misrada fikrning eng quyug‘i, qaymog‘i bo‘lgan xulosani berishi lozim. Fard so‘zining ma’nosi “yakka” degan ma’noni anglatadi. Adabiyotimiz tarixida Lutfiy, Alisher Navoiy fardning go‘zal namunalarini yaratgan.

Fard ijodkordan nihoyatda o‘tkir zakiylik, katta hayotiy tajriba talab etadi. Sirojiddin Sayyid buni his etgan holda fardlarda fikrning qaymog‘ini go‘zal tashbehlarda oolib berishga harakat qilgan. Ayniqsa, uning Vatan mavzusidagi fardlari puxta poetikasi, mazmun zalvori, shakliy mukammalligi bilan o‘zgacha badiiy ahamiyatga ega:

*Sen Vatanga Termiziylar ko‘zi-la solib nazar,*

*Ta’lim olsang, bo‘lgung oxir bir kuni sohibnazar. (III, 305)*

Keltirilgan misollarda Sirojiddin Sayyidga xos poetik tafakkur xususiyatlari ko‘rinib turibdi. Termiziylar ko‘zi bilan Vatanga nazar solish uchun, albatta, yuksak darajada bilimli bo‘lish lozim. Bu sharafga erishgan kishi Termiziydek sohibnazar bo‘lishi, alloma bo‘lib yetishishi, shubhasiz.

Yana bir fardda Vatanni doimiy o‘rganish lozimligi ta’kidlanadi, Vatanni qanchalik ko‘p va chuqur o‘rganilsa, u eng buyuk ustoz ekanligiga har qanday odam imon keltiradi:

*Bul Vatanni o‘rganib, har qancha bilsang – oz ekan,*

*Ul buyuk ustoz ekan, mangu buyuk ustoz ekan. (III, 306)*

Shoir nazdida Vatan mehri kishining jon rishtalariga singib ketsa, jism-u joni Vatanga bog‘lanib ketsa, u haqiqiy Vatanni kashf etgan bo‘ladi:

*Har kishi gar jism-u jon-u ko ‘nglida to ‘lgay Vatan –*

*Bul Vatan bo ‘lgay Vatan, bo ‘lgay Vatan, bo ‘lgay Vatan.* (III, 306)

Ikkinchisi misradagi badiiy takror fikrning poetik kuchini yana-da oshirib, birinchi misra g‘oyasini to‘ldiruvchi bong kabi yangragan.

Quyidagi fard ham Vatanga muhabbatni oshirishga qaratilgan bo‘lib, mashaqqatlar bilan Vatanga munosib bitta o‘g‘lon o‘stirmoq, yurt uchun bitta mustahkam qo‘rg‘on barpo etishga qiyoslanadi:

*Ranj chekib gar bitta o‘g‘lon o‘stirursan sen bukun –*

*Bitta qo‘rg‘on o‘stirursan asli o‘z yurting uchun.* (III, 307)

Fardlarning janriy xususiyatidan kelib chiqib mulohaza yuritadigan bo‘lsak, Sirojiddin Sayyid fardlarida ham fikrni ixcham, lo‘nda ifodalash, ulkan g‘oyani ikki misraga yorqin va ta’sirchan singdirish, aniq xulosa va dalillarni keltirish mahoratini kuzatamiz. Shoир fardlari Vatanni yana-da teranroq anglashda, vatanparvarlik g‘oyalarini kitobxon qalbiga singdirishda xalq maqollari va aforizmlar singari badiiy vazifa bajarishga xizmat qilgan.

Sirojiddin Sayyid hozirgi **zamonaviy** she’riy janrlar va shakllarda ham barakali ijod qilib kelmoqda. Xususan, beshlik, otilik, sakkizlik, o‘nlik she’riy shakllari, doston, qasida, to‘rtlik kabi janrlari shoир ijodining rang-barangligini namoyon etadi. Albatta, ijodkor to‘rtlik yoki beshlik yozaman deb qo‘liga qalam olmaydi, balki uning izmidan tashqarida, tanlagan mavzusi she’riy shaklni talab qiladi. Shoирning to‘rt jildlik to‘plamlarida janrlar va she’riy shakllarning qay darajada o‘rin olganligini quyidagi ma’lumotlardan bilib olsa bo‘ladi:

**Zamonaviy janrlar:**

**3-jadval**

| <b>№</b> | <b>Janrlar</b> | <b>I</b>   | <b>II</b>     | <b>III</b>  | <b>IV</b>     |
|----------|----------------|------------|---------------|-------------|---------------|
| <b>1</b> | Doston         | <b>6/6</b> | <b>1</b>      |             |               |
| <b>2</b> | Qasida         |            | <b>1</b>      |             | <b>2</b>      |
| <b>3</b> | To‘rtlik       | <b>7</b>   | <b>208/25</b> | <b>42/7</b> | <b>119/11</b> |

*Zamonaviy shakllar:*

**4-jadval**

| Nº       | Janrlar   | I        | II          | III        | IV         |
|----------|-----------|----------|-------------|------------|------------|
| <b>1</b> | Beshlik   | <b>2</b> | <b>22/7</b> | <b>8/4</b> | <b>2/2</b> |
| <b>2</b> | Oltilik   | <b>1</b> | <b>4/3</b>  | <b>6/5</b> | <b>2/1</b> |
| <b>3</b> | Sakkizlik | -        | <b>2/2</b>  | <b>3/2</b> | <b>1/1</b> |
| <b>4</b> | O'nlik    | -        | <b>1</b>    | <b>2/2</b> | -          |

*Izoh: Ushbu jadvallarda zamonaviy janr va shakllarning umumiy soni, yonida esa Vatan mavzusidagi she'rlar miqdori keltirilgan.*

Mumtoz adabiyotimizda to‘rt misradan iborat ruboiy, tuyuq, murabba’ janrlari mavjud bo‘lgan. Hozirgi she’riyatda to‘rt misradan iborat she’r to‘rtlik atamasi bilan yuritiladi va barmoq vaznining turli bo‘g‘inlarida yaratiladi. Zamonaviy she’riy janrlar orasida Sirojiddin Sayyid to‘rtliklari alohida o‘rin tutadi. Shoir to‘rtliklarda yuksak mahorat bilan oz so‘zga bir olam ma’no yuklagani uning ulug‘ so‘z san’atkori ekanligini tasdiqlaydi. Bu borada ayrim namunalarni ko‘zdan kechirishga va tahlil qilishga urinib ko‘ramiz:

*Mening Vatan ichra vatanlarim bor,*

*Mangu zavol bilmas chamanlarim bor.*

*Termiziylar yanglig‘ xazinalarim,*

*Buxoriylar kabi ma’danlarim bor.* (II, 359)

Shoir to‘rtliklarining mavzulari, qamrovi, salmog‘i, badiiy saviyasi turlichcha. Quyidagi to‘rtlikda ham Vatan, ona yurtga muhabbat, Vatan oldidagi burch va unga sadoqat tuyg‘ularini ifoda qilish yetakchilik qilgan:

*Odamzot hayoti jon va tandadir,*

*Tan qanda – jon anda, vatan andadir.*

*Yor-u diyorsiz lek xordir jon va tan,*

*Tan – Vatanga tandir, jon – Vatandadir.* (IV, 86)

Quyidagi to‘rtlikda esa Vatanning beqiyosligi, unga osongina erishib bo‘lmasligi, Vatanni saqlab qolish uchun cheksiz shijoat va matonat kerakligi

g‘oyasi ilgari surilgan. Shoir uyg‘oq ko‘ngilli el birlashsagina Vatan atalmish oliv imorat mustahkam bo‘lishini ta’kidlaydi:

*Vatan – matonatdir, shijoat – Vatan,*

*Butun el tiklagan imorat – Vatan.*

*Uyg‘oq ko‘ngillar-u beorom qalblar,*

*Bedor yuraklardan iborat Vatan. (IV, 86)*

Vatan mavzusidagi to‘rtliklarning shakl tabiatiga e’tibor berilsa, aksariyati 11 bo‘g‘inli, 6+5 tarzida turoqlangan. Mazmunning yetuk ifodasida, shakl va mazmun mutanosibligida bunday turoqlanish muhim vosita sanaladi. Boshqa qator to‘rtliklarda ham ijtimoiy, maishiy, axloqiy mavzularga qo‘l urilgan va ulardagi muhim didaktik xulosalar quyuq badiiy obrazlar va jonli detallar asosida berilgan. Bu Sirojiddin Sayyidning kichik janrlarni yaratishda ham katta mahoratga ega ekanligini ko‘rsatadi.

Shoir ijodida **beshlik** she’riy shakli ham mavjud. Shoirming “Bir farzand o‘stirganing”, “O‘zbekiston tonglarini bedor kutgan ko‘zlarim”, “Vatan” nomli beshliklarida Vatan tasvirining yetuk poetik talqini yaratilgan. Ular orasida quyidagi beshligi alohida o‘rin tutadi:

*Valilardan ibrat so ‘ylar juldur sahrolar,*

*So ‘ndi qancha sultanatlar qancha tug‘rolar.*

*Maqbaralar aytsin lekin, aytsin Zuhrolar:*

*Yer ostidan suhbat aylar hanuz Kubrolar,*

*Termiziylar bedor yotgan qo ‘rg‘onim, Vatan. (II, 188)*

Shoir ijodida **oltiliklar** ham mavjudki, ular Vatan tasvirining rang-barang talqinini yaratishda o‘zgacha mohiyat kasb etadi. Uning “Buyuk muallim” she’rini shu shakl namunasi sifatida keltirish mumkin:

*Men Vatanni o ‘rganmadim zaridan,*

*O ‘rganmadim uni hur yo paridan.*

*Kaftlarining chiziqlari – xati ham,*

*Ajinlari bo ‘ldi mening xaritam.*

*Shu xatlarda ko ‘rgandim ilk Vatanni,*

*O‘z onamdan o‘rgandim men Vatanni.* (III, 323)

She’r davomida Vatanning buyuk muallim ekanligi, shoir uchun yurtning so‘qmoqlari, buloqlari, xor-u xasi, rayhonlari-yu giyohlari, paykallari va egatlari ulug‘ ustoz yanglig‘ Vatanni o‘rgatganini faxr bilan yozadi.

Shoirning “Bu – sening uyingdir” she’ri **sakkizlik** shaklda yozilgan. Bu shaklda shoir fikrni yana-da batafsil ifoda etish, tadrijiy davom ettirish, yurt ta’rifini mukammal yoritish imkoniyatiga ega ekanligini ko‘rish mumkin:

*Bu dasht-u dalalar,  
Bog ‘lar ham mendan,  
Bu tuproq – bug ‘doybo ‘y,  
Handalak bo ‘yim.  
Sening ko ‘ksingdagi  
Dog ‘lar ham mendan,  
Bu – sening uyingdir,  
Bu – mening uyim.* (III, 410)

Sirojiddin Sayyidning “Ona yurt” she’rida ham Vatan madhi sakkizlik shakli orqali betakror ifodalanadi:

*Har o ‘g ‘loning – bir qo ‘rgon,  
Yurt ustuni, sinchidir.  
Uyda tinchi borlarga  
Zahmatlar o ‘tkinchidir.  
Olamda eng oliv baxt  
Eng avval el tinchidir.  
Bundan ortiq saodat,  
Faxr-u iftixor bo ‘lmas.* (II, 410)

Xullas, shoir she’riyatining obrazlar talqinida poetikaning o‘rni, uning xususiyatlarini shakllantirish uchun xizmat qilgan lirik kompozitsiya, lirik kechinma, lirik obraz kabi badiiy unsurlar shakl va mazmun mantiqiyligini hosil qilgan. Shoirning bir qator doston, qasida, g‘azal, muxammas, masnaviy, to‘rtlik, fard, kabi janlar, beshlik, otilik, sakkizlik, o‘nlik singari she’riy shakllardagi she’rlarining barcha-barchasida yuksak vatanparvarlikdan oziqlangan lirik qahramonning faxr-u iftixori, dard-u iztirobi kuzatiladi. Vatan obrazi talqinining

yangicha ko‘rinishlari turli shakllarda beriladiki, bu esa mazmunning originalligini, poetik mushohadaning falsafiyligini namoyon qilgan.

## **IKKINCHI BOB BO‘YICHA XULOSALAR**

1. Adabiyotshunoslikdagi kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, badiiy matndagi mazmun va shakl bir-biriga mutanosib bo‘lib, biri ikkinchini taqozo etadi, ular bir-birisiz o‘zligini ko‘rsata olmaydi. Shunga qaramay, mazmun tarixiy shart-sharoit, madaniy-ma’rifiy, adabiy-estetik tafakkur evrilishlariga muvofiq shaklga qaraganda tezroq o‘zgaradi. Bunday ustuvor xususiyatni Mustaqillik davri so‘z san’ati, shu jumladan, Sirojiddin Sayyid she’riy ijodi misolida aniq kuzatildi.

2. Shoir Sirojiddin Sayyidning istiqlol yillaridagi butun ijodi, xususan, ona yurt tasviriga bag‘ishlangan lirik asarlaridagi badiiy mazmun qatlamlari lirik qahramonning vatanparvarlik pafosini aks ettirgan, ularda Vatanning go‘zal tabiatini, shu zaminda yashab faoliyat ko‘rsatgan buyuk tarixiy shaxslarning nuroniy siymolari, shu bilan bir qatorda, zamonamiz qahramonlari – mehnat odamlarining ulug‘vor qalb manzaralari o‘zining betakror badiiy ifodasini topgan. Shoir ijodining badiiy-poetik olamida Vatanga bo‘lgan yuksak muhabbat, uning badiiy kashfi yetakchilik qilgan.

3. Shoir yangi tarixiy taraqqiyot davriga qadami qo‘ygan ona zaminga bo‘lgan samimi his-tuyg‘ularini badiiy ifoda etishda mumtoz she’riyatga xos lirik janrlardan samarali foydalana olgan. Bu borada u zamonaviy milliy she’riyatda yetakchi o‘rinda turibdi. Uning she’riy ijodida g‘azal, muxammas, masnaviy, fard janrlarida yaratilgan bir qancha lirik yaratmalar mavjud. Bu ro‘yxatda g‘azal avvalgi o‘rinni egallaydi. Shoirning to‘rt jildlik to‘plamiga jami 100 dan ortiq g‘azali kiritilganligi bu qadimiy janrga uning alohida ahamiyat berishini ko‘rsatadi.

4. Shoir zamonaviy she’riyatda vujudga kelib, milliy lirikada ommalashayotgan to‘rtlik, beshlik, otilik, sakkizlik, o‘nlik kabi she’riy shakllardan mahorat bilan foydalanib, ular vositasida Vatan ulug‘vorligi va undagi olajanob insonlar qalb olamining rang-barang xususiyatlarini san’atkorona mahorat bilan tasvirlagan. Bu esa ijodkorning lirik janr va she’riy shakllardan badiiy

mazmunni yuzaga chiqarishda katta tajriba va mahoratga ega ekanligini tasdiqlaydi.

5. Adabiyotimizda turfa xil janrdagi asarlarda Vatan tushunchasining badiiy talqini o‘z mukammaligini namoyon etib keldi. Shu jihatdan keyingi yillar she’riyatining yorqin iste’dodlaridan biri Sirojiddin Sayyid ijodida bu mavzuning turli tashbehlardagi badiiy talqini yetakchilik qilganligi kuzatildi.

6. Vatan mavzusining turfa xil ohanglarda tovlanishi va jilolanishi, lirik qahramonning tuyg‘ular, kechinmalarida yana-da teranlashganligini mazkur ishda ta’kidlash bilan bir qatorda, rang-baranglik kasb etishining bejiz emasligi Sirojiddin Sayyid she’riyati misolida asoslab berildi.

### **III. VATAN OBRAZI TALQINIDA IJODKOR USLUBINING BADIY-ESTETIK VAZIFASI**

#### **3.1-§. Vatan obrazi talqinida individual ijodiy uslubning namoyon bo‘lishi**

Ijodkorning individual uslubi uning badiiy olamini, poetik talqindagi mahoratini teranroq yoritish imkonini beradi. Ular borliq va insoniyatni badiiy talqin etar ekan, shu bilan birga o‘z ijodiy uslubini ham namoyon etadilar.

Adabiyotshunos A.Ulug‘ov qayd etishicha: “Ijodkor uslubining shakllanishida tashqi omillar ham ta’sir ko‘rsatadi. Masalan, har bir yozuvchi, shoir boshqa ijodkorlarning asarlari bilan tanishish jarayonida ulardan o‘rganib, ijodiy o‘zlashtiradi. Bu esa uning hayot hodisalalarini aks ettirish, inson obrazini gavdalantirishda o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. Yozuvchi, shoir voqealar jarayonini, qahramonlari qiyofasi, ularning xatti-harakati, holatini ular yashaydigan manzil manzaralarini qanday tasavvur qilsa, shunday ifodalaydi”<sup>92</sup>

Darhaqiqat, har bir ijodkor hayot voqeligiga o‘z nuqtayi nazaridan, olamni va insonni anglash, bu tushunchalarni badiiy in’ikos ettirish yo‘lidan boradi. Iste’dodli shoir Sirojiddin Sayyid tabiat oshuftasi, uning otashin kuychisi bo‘lib, bu orqali inson qalbidagi kechinmalarni, iztiroblar-u quvonchlarni badiiylik mezonlariga singdira olgan ijodkordir. U o‘zini, butun borlig‘ini tabiatdan ayro tasavvur qila olmaydi. Jonli va jonsiz tabiat shoir ijodida timsolli tushunchaga, obrazli birikmaga aylanadi. Ular jonlantiriladi, metaforik talqinlarni namoyon etadi. Tabiat ramzlaridan olam va odam haqida falsafiy mushohadalar yuritiladi. Ayni bu holat Vatanni tushunishda, uning rangin tasvirini yaratishda shoir uchun tayyor metafora, tayyor obrazli jumla, qolaversa, mohiyatga eltuvchi ilhom bo‘lib xizmat qiladi. Mazkur xususiyatlar uning she’riyatida asos vazifasini o‘taydi. Quyida biz shoirning o‘ziga xos uslubini Vatan haqidagi she’rlari misolida kuzatish asnosida, uning individual uslubi badiiy mukammallik kasb etganligini tahlil qilishga urinib ko‘ramiz.

---

<sup>92</sup> Ulug‘ov A. Adabiyotshunoslilik nazariyasi. Darslik. – Toshkent, 2018. – B.308.

“Sirojiddin she’riyatimizga o‘z daryolari, tog‘-u toshlari-yu yomg‘irlari, qaldirg‘ochlari-yu shamollari bilan toshqinlanib kirgan shoir. Uning eng suygan va sadoqatli mavzusi Vatan”.<sup>93</sup> Adabiyotshunos olim N.Rahimjonov ta’riflaganidek, shoirning uslubiy o‘ziga xosligi ham shunday talqinlarda jozibadorlik kasb etadi. Haqiqatan, Sirojiddin Sayyid she’riyati inson qalbining musavviri, tuyg‘ular tarbiyachisidir. Uning satrlariga singdirilgan falsafiy-estetik qarashlar zamiridagi o‘zlikni anglash umuminsoniy qadriyatlardan dalolat beradi. Shoir she’riyatimizga o‘ziga xos uslubi, o‘z aytar so‘zi, qalb amrining izhori bilan kirib kelgan ijodkorlardandir. Shoirning bir-biridan go‘zal, dillarga xushnudlik, orom, shodlik, ba’zan qalblarni tug‘yonga keltiruvchi, o‘quvchini anglashga, his etishga undovchi dardchil she’rlarida Vatanga muhabbat, tabiatga oshuftalik, do‘stga sadoqat, insonlarga mehr tuyg‘usiga yo‘g‘rilganligini his etish mumkin.

Sirojiddin Sayyid she’riyatining o‘q ildizini ona Vatan tuyg‘ularisiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Uning rang-barang mavzulardagi she’rlarida ham tug‘ilib o‘sgan qishlog‘i, dasht-u dalalari, qushlari, ustozlari, Surxon baxshilari, bolalikning beg‘ubor xotiralariga ko‘chgan voqeа-hodisalar, yoshlik kechmish-kechirmishlari, o‘z yurtidan yetishib chiqqan oddiy odamidan tortib, ziyoli olimigacha timsol, obrazda mujassamlashganligini kuzatish mumkin. Shoir o‘z bolaligi haqida yozganlaridan birida esa:

*Shoir bo ‘lib ketsam gar,*

*Bunga shu dasht-u qirlar,*

*Osmonlarning qo‘li bor, (I, 377) – deya olganida ham bizning qarashlarimizni asoslaydi. Bolalikning yorqin xotiralari, unga zavq-shavq ulashgan hayot, bularning barchasini zamirida inson kechinmalari, tuyg‘ulari qabariq tarzda ifodalangan. Shoirning bashoratona misralariga nazar solar ekanmiz: “Men shoirlikni o‘choqdagi o‘tlardan, tandirlariga yoqqan olovchlari, ulardagi cho‘g‘lar-u qo‘rlardan yuqtirdim desam aslo hayron bo‘lmang”, – deb yozgan edi. Ta’riflar zamirida ijodkorming “men”i mujassamlashganligini his etamiz.*

---

<sup>93</sup> Рахимжонов Н. Мустакиллик даври ўзбек шеърияти. – Тошкент: Фан, 2007. – B.152.

Adabiyotshunos, shoir va nosir Ulug‘bek Hamdam qayd etganidek: “Istiqlol davri o‘zbek she’riyati bu foydali yomg‘irdan so‘ng potirlab o‘sib chiqqan qo‘zigorin emas, aksincha, asrlar davomida tinimsiz o‘zgarib-yangilanib kelgan o‘lmas jarayonning qonuniy bir uzvi bo‘lib, o‘zida juda katta va ko‘pdan-ko‘p tajribalarni jamlagan g‘oyat murakkab va beba ho san’atimizning bir bo‘lagidir. U shunisi bilan o‘zidan avvalgi barcha davrlarga ham o‘xshamaydi, ham o‘xshaydi. O‘xhash jihat – o‘sha davrlar she’riyatidan o‘sib chiqqan, binobarin, ularning eng yashovchan unsurlarini o‘ziga meros qilib olgan. Farqli jihat – dunyoga keng ochilgan jamiyatning, xususan, uning bir a’zosi hisoblanmish shoirning ozod tafakkurini o‘zida aks ettiradi”.<sup>94</sup>

Darhaqiqat, istiqlol davri she’riyati, uzoq asrlik nazm gulshanining mantiqiy davomi, u birdan vujudga kelib qolgan emas, uning yillar zamiridagi zarvaraqlari, shoirning qalb hasratlari sifatida avloddan avlodga o‘tib yashab kelayotganligini ham qayd qilish lozim. Shunday bir davrda o‘z iste’dodini namoyon etayotgan o‘nlab, yuzlab ijodkorlarni qayd etish mumkin, ammo ularning har birining o‘z individual uslubi, hayotning mohiyatini anglashdagi poetik talqini ham mavjudligini unitib bo‘lmaydi.

Sirojiddin Sayyid she’riyatining xarakterli jihatlaridan biri, o‘z yurti tabiat, o‘z elining begi bo‘lgan shoirtabiat odamlari, ota-onasi, uyi, ayvonlari timsoli bilan bezatilgan, shoir she’riyatidagi libos xalq og‘zaki ijodi namunalaridagi tasvir ifodasiga xos va mos tarzda sintezlashib ketganligida ko‘rinadi. Poetik ohangning mavjudligi folklor an’analaridan oziqlanganligini yaxlit ko‘rsatib turadi. Bu ijod an’analarining yuksalib borishi, poetik obraz darajasiga ko‘tarilishida mavjud an’analarning o‘rni va ijodiy ta’sirchanligini ta’kidlash joiz.

Shoirning qalbidan otilib chiqayotgan dard, hasrat – bu asrdan asrga, avloddan avlodga o‘tib kelayotgan va yashovchanlik kasb etayotgan qarashlarning uzviyligida namoyon bo‘lgan. Shoirning shoir darajasiga olib chiqqan badiiylikdagi mahorati, individual uslubi bilan izohlanish mumkin.

<sup>94</sup> Hamdam U. Yangilanish ehtiyoji. Ilmiy-adabiy nashr. – Toshkent: Fan, 2007. – B.90.

Adabiyotshunos olima M.Davronova uslubni shunday izohlaydi: “Uslub – bu individual xususiyat, so‘z tarkib topgan jumla, she’riyatning ranginligi, badiiy va tarixiy asarlardagi matn tilining o‘ziga xos jihatlarini aks ettiruvchi san’atdir. Har bir davr o‘sha davrni aks ettiruvchi voqealari, o‘ziga xos jihatlari bilan ajralib turganidek, har bir davrning taraqqiyotini ko‘rsatuvchi, zamonni tasvirlovchi ijodkorlari mavjud. Bu ijodkorlar o‘z davrini aks ettirganda o‘sha davr illati va kamchiliklari va yutuqlarini o‘ziga xos yo‘lda tasvirlab beradilar”.<sup>95</sup> Haqiqatan, ijodkorning o‘ziga xos poetik ifoda shakli uning o‘z uslubini namoyon etadi. Shu jihatdan, baholaydigan bo‘lsak, Sirojiddin Sayyid she’riyatidagi ijtimoiy-falsafiy yo‘nalishning yuzaga kelishi, birinchidan, uning dasht va sahrolar bag‘ridan otilib chiqqanligi bo‘lsa, ikkinchidan, sho‘rolar siyosiy davrining nisbatan mo‘tadillashgan bir paytida ijodini boshlaganligi bilan izohlash ham mumkin. Bu esa shoirning qalb kechinmalarini borligicha lirik qahramon tuyg‘ulariga singdirilishiga keng imkon bergenligi, shoir she’riyatining novatorlik jihatni esa, davrning turfa xil to‘fonlarini, inson qalbidagi izardiablarni to‘lalicha poetik tasvirga singdirganligi bilan zamondosh ijodkorlaridan ajralib turishini ko‘rsatadi.

XX asr 80-yillariga kelib, she’riyatda mavzu va muammoli masalalar kengayib borgan bir tarixiy sharoitda, Vatan, erk, istiqlol, turkiy uluslar birligi, yorug‘lik va zimiston, sadoqat va xiyonat, xalqona tasvir, dostoniy ruh, ijodkorlar fitrati, manzaralari ufqini umumjahon darajasida olib chiqish ham ijodkordan katta poetik mahoratni, uning tafakkur dunyosini, anglash va his etish tuyg‘usini naqadar baland bo‘lishini ham talab etgan.

Shu jihatdan, shoirni shoir qilib tarbiyalagan eng asosiy omil uning oilaviy muhiti bilan bog‘lanishi ham bejiz emas, chunki shoir bir necha o‘rinda o‘zligini anglashda qadim bobolar qo‘shig‘ining momosi, onasi tomonidan aytilishi, uning qalbiga ilk tuyg‘ularning yuzaga chiqishiga, ijodkorona fikr yuritishiga asos bo‘lganligini qayd etadi. Bolalikning yorqin xotiralarini bayon etganda ham, Vatanning har go‘shasi qadrini anglaganda ham, qalb kechinmalarini boricha yuzaga chiqarganda ham, barchasi – uning so‘z san’atidan mohirona

<sup>95</sup> Давронова М. Ҳозирги адабий жараёнда услуб поэтикаси. Монография. – Тошкент, 2019. – Б.26.

foydalanganligidan dalolat beradi. Bu mulohazalarimizni qisqacha dalillashga harakat qilamiz:

Sirojiddin Sayyidning dastlabki she’ri “Vatan mehri” nomli Vatan haqidagi she’r bilan boshlanadi. Bunda ham, albatta, ramziy ifoda mavjud. Ijodkor poytaxt shahar Toshkentga ilm olish ilinjida, ya’ni ilmni, katta shoirlarni, kitoblarni, adabiy muhitni istab kelgan. Toshkentda universitet talabasi bo‘lgach esa, o‘z tug‘ilib o‘sgan qishlog‘ini, ota-onasini, bolaligi – podsholigini, ilk sevgisi – muhabbatini sog‘inadi. Har ikkala sog‘inch Vatan sog‘inchi tuyg‘usi bilan birlashib ketadi. Shuning uchun unga boylik kerakmas, shuhrat-amal kerakmas. Uning yolg‘iz tayanchi –Vatan mehri hisoblanadi:

*Gar odamlar so ‘rashsa mendan:*

*Bu dunyoda istaging nadir?*

*Ne istaysan, amal yo shuhrat,*

*Yo hisobsiz boylikmi bildir.*

*Lol bo ‘lmasdan berurman javob:*

*Bular menga aslo kerakmas.*

*Yolg‘iz istak qalbda hukmron,*

*Vatan mehri tark etmasa bas. (I, 10)*

Mazkur she’r dastlabki ijod namunasi bo‘lganligi uchun ham she’r satrlarini bezovchi badiiy san’atlar, poetik topilmalar, kashfiyotlar yarq etib ko‘zga tashlanmaydi. Ammo yosh shoirning beg‘ubor lirik qahramoni niyati xolis, orzular olami musaffo, ko‘ngil hayratlariga dog‘ tushmaganligini his etish murakkab emas. She’r ibtidosi tabiiy qalbdan tug‘ilgan. Shoир ruhiyati hayratomuz ezgu tuyg‘ular bilan to‘lib toshgan.

“Shoirlarki bor, birinchi qadamlaridanoq hammani lol qoldirib, tuyg‘ularini, hislarini, fikrlarini tutilmagan obrazlarga burkab, afsonalarning tushiga kirmagan so‘zlarda kuylay boshlashadi. Ularni “yosh shoir” degan tushunchaga sig‘dirish qiyin. Ular yoshi kichik bo‘lsa-da, shuuri, she’riy tafakkuri balog‘atga yetgan bo‘ladi” (O.Sharafiddinov) (I, 6). Ana shunday “tayyor shoir”lar toifasiga kiruvchi Sirojiddin Sayyidning poetik mahorati “Vatan mehri”, “Bolalik”, “Sog‘inch”,

“Otamga”, “Sariosiyo osmonlari” kabi ilk she’rlaridayoq ko‘zga tashlanadi, o‘z ovozi, o‘z uslubiga ega ekanligini isbotlaydi.

“Sariosiyo osmonlari” she’ri bolalikning yorqin xotiralari, unutilishga mahkum etilgan farzand iltijolari tasviridan iborat. Lirk qahramon yurti osmoniga murojaat qilib, o‘zini unutishini so‘raydi. Biroq qaytishini, albatta, eslatadi. Chunki yurtida bobosi kabi namozdan bosh ko‘tarmaydigan e’tiqodi mustahkam, otasi kabi faqat yaxshiliklar tilovchi duogo‘y qarindosh-urug‘lari – eli bor. Ularni unutib ketib bo‘lmaydi. Ular o‘zligi. Shoirligini ato etgan ertakona yurti, tog‘lari, dashtlari. Shoir qachondir qaytadi. Jamadoniga o‘zi yozgan kitoblari – tajribalarini joylab qaytadi. Vatan, ota-onas, el-u xeshlari, dasht-u dalalarining sog‘inchlari mehrini pokiza qalbiga joylab qaytadi:

*Sariosiyo osmonlari*

*Meni unuting!*

*Ammo esda tuting qaytaman.*

*Onamga tiriklik salomin ayta.*

*Singillarim – gul-rayhonlarim*

*Quyosh beshigidan uyg‘ongan paytda.*

*Hijron-u firoqning ko‘nglini g‘ashlab,*

*Qaytaman, qaytaman hayotni.*

*Donishmand purhikmat hayotni*

*Yelkalarim uzra to‘n kabi tashlab.* (I, 26)

Ozod Sharafiddinov e’tirof etgan “Singillarim – gul-rayhonlarim”, “Quyosh beshigidan uyg‘ongan paytda”, “... hayotni yelkalarim uzra to‘n kabi tashlab” kabi “afsonalarning tushiga kirmagan so‘zlarda kuylay olgan” shoir mahoratini, ijodkor sifatidagi badiiy uslubini alohida qayd etish lozim.

Tarixdan ma’lumki, uslub notiqlik san’ati sifatida o‘z mavqeyini bir qancha davr saqlab qoldi, bu esa Yevropada, aynan fransuz ritorikasida XVIII asrda “individual uslub” so‘zining yuzaga chiqishiga keng imkon bergen edi. Asrlar davomida shakllangan qarashlar zamirida individual uslub tushunchasi yana-da kengroq mohiyat kasb etdi hamda har bir ijodkor dunyoqarashini, tafakkur olamini

ifodalash yo'sini sifatida namoyon bo'ldi. Tushunchalar zamiridagi notiqlik san'ati keyinchalik, badiiyatning turli ko'rinishlarini ifodalashi bilan birgalikda, ijodkor individual xususiyatlarini yuzaga chiqishiga keng imkon beruvchi vosita bo'lib xizmat qilganligini ta'kidlash lozim. Uslub ijodkorning poetik mahorati mahsuli bo'lib, takrorlanmas talqinlarni namoyon etish san'ati hamdir.

Adabiyotshunos N.Shukurov ta'kidlaganidek: "Shoirlar o'z ijodlaridagi mushtarakliklar bilan emas, balki bir-biridan farq qilib turuvchi xususiyatlar bilan qiziqarlidir", – deya ta'kidlaydi.<sup>96</sup> Shu ma'noda, Sirojiddin Sayyidning adabiyotga kirib kelishidan o'z ovozi, o'ziga xos talqinlari, tasvir manerasi mavjud ediki, bu uning o'z individual uslubiga ega ijodkorligidan dalolat berar edi. XX asrning saksoninchi yillarida yozilgan, yo'qolib borayotgan nomsiz yurt haqidagi she'ri shoir dunyoqarashining umumbashariy xususiyat kasb eta borayotganligidan darak beradi. "Hayratlanmagan odam ta'sirlanmaydi, ta'sirlanmagan odam tarbiyalanmaydi" deganlaridek shoir o'z xalqiga, uning orzu-armonlariga, ayanchli kechmishiga qarab hayratlanadi. Shoirona hayrat esa ta'sirlantiradi, ta'sirchanlik uni millat, yurt qayg'usi bilan yonib yashashga o'rgatadi. Lirk qahramon odamlarning sallasiga qarab, shuningdek, oq saqolining haqqi-hurmati izzatini, hurmatini joyiga qo'yishi mumkin. Ammo ular kim, o'zlarining yetti avlodini, yurtini biladimi ular, shu iltifotga, hurmatga loyiqli? Shoirni shu kabi savollar qiynaydi, ba'zan esa juda qattiq iztirobga soladi:

*Tarix ajinlaring – ajriqlaringning*

*Yuz ming ildizi bor yuzingda.*

*Yulqib tashla va menga aytgin*

*Nomi nima edi bu yurtning. (I, 39)*

Shoir misradan misraga shiddatli tarzda ritorik savollarni qo'yadi, har bir xatti-harakatingda ota-bobolaring turq-u tarovati ufurib turganligini, yuzingdag'i nomatlub pardani yulqib tashla, o'zligingni namoyon qil, – deya murojaat etadi. "Nomi nima edi bu yurtning". Tili o'zbekcha, dini islom, urf-odatlari, tarixiy an'analarini bisyor, Temur kabi jahongirlarga ega bu xalq nomsiz. Oxiri yo'q,

<sup>96</sup> Шукурев Н. Фафур Ғуломнинг поэтик маҳорати. Монография. – Тошкент: Фан, 1966. – Б.144.

javobsiz savollar ijodkor qalbini larzaga keltiradi. Shoir nazarida Movarounnahr – jonli bir vujud, sevikli yor – Vatan. Barmoqlari bilan qisimlasa, barmoqlar tug‘onidan Jayxun va Sayhun soch kabi sirg‘alib o‘tadi. Yorning qo‘sh kokili singari yoyiladi, lekin qo‘sh kokil tangri ato etgan chehraga shodlik, quvonch olib kelmaydi. Siniq chehra, g‘amga botgan yuz – Movarounnahr ko‘zga tashlanadi. Lirik qahramon shunday boy an’analarga, go‘zal tabiatga, ulug‘ ajdodlarga ega millatni, xalqni tilini o‘zgartirib, izsiz yo‘qolib ketishini istamaydi. “*Yo ‘qotmoqchi bo ‘lsang menga ber*”, “*Dilimning tubida asrayman uni*”, “*Ismi yanglig‘ Sharq suluvining*” misralaridagi har bir qarashning o‘z tarixi mavjuddir.

Adabiyotshunos olim Nurboy Jabborov asosli ta’kidlaganidek, “Vatan va millatga muhabbat tuyg‘usi Sirojiddin Sayyid she’rlarining asl mohiyatini, mag‘zini belgilaydi. Shoir “rizq-ro‘zi halol, mangu xalq” farzandi ekanidan iftixor hissini tuyadi. “Azal bulbullarga oshiyon” bo‘lgan ona zamin “bog‘larini bosgan qarg‘alar ketgani”dan, yurtga sohiblik asl egalariga muyassar bo‘lishligini”<sup>97</sup> dil-dilidan istaydi.

*Qo ‘llarim o ‘tmishlar uzra tashlangan.*

*Dubulg‘alar yanglig‘ gumbazlar*

*Qo ‘limga ilashib uziladilar.*

*Minoralar uzra rivoyatlarning*

*Mangu bulutlari yurarlar suzib,*

*Fon Koufmanniki emasdир ular.*

*Qo ‘llarim o ‘tmishlar uzra tashlangan*

*Bir kitob izlaydi qo ‘llarim –*

*Charm muqovali harflari*

*Hurlar qoshidan ham nafis bir kitob*

*Ammo javonlaring*

*Tishsiz og ‘izlardek bo ‘m-bo ‘shdir, tarix. (I, 39)*

---

<sup>97</sup> Жабборов Н. Замон, мезон, шеърият. – Тошкент: Faafur Fулом номидаги нашриёт матбая-ижодий уйи, 2015. – Б.160.

Shoir jo'shib ketganda, o'zbekona she'riy mezonlardan chekinish kuzatiladi. Bunday she'riy shakl ba'zan qofiyasiz, bo'g'inlar tartibi teng oq she'rni eslatib yuborsa, ba'zan esa Nozim Hikmatona erkin she'rlarga yaqin kelib qoladi. Shoir uslubi, uning poetik mahorati mana shunday misralarda yana-da teranroq namoyon bo'ladi. Maqsad yangi, noan'anaviy poetik mushohadalar orqali fikr aytish, yovqur misralar bilan zang bosgan qalblarni uyg'otishdir. Mustamlaka tuzum bois jismoniy ko'zlar yumuq bo'lsa-da, qalb ko'zлari ochiq. O'sha ko'zlar bilan nimanidir izlaydi. Ota-bobolari e'tiqod qo'ygan din-u diyonatni – kitoblarni izlaydi. Najot faqat o'shalarda ekanini ich-ichidan anglaydi.

“Uslub – ijodkor siyratining aks etishi, siyrat – o'zlik, individuallik, hech kimnikiga o'xshamaydigan asos”<sup>98</sup>. Munaqqid e'tiroficha, uslub ijodkor ichki dunyosini, dunyoqarashini o'zida namoyon etadigan shoir o'ziga xosliklaridan hisoblanadi. Hali Vatan so'zini baralla aytish imkoniyati chegaralangan davrlarda ham haqiqiy shoir o'z sog'inchlarini yurti, tog'-u toshlari misolida badiiy detallarga yuklagan, ramziy ifodalarga singdirgan jihatlar bo'lgan. Shunday tasvir mahoratlari Sirojiddin Sayyid she'rlarining leytmotivini belgilaydi. Uning “Bobotog‘ gulxanlari” she'rida Vatan timsolining badiiy tasviri shoirona, poetik satrlarga muhrlangan. Olam yashillikka burkangan bahor pallalarida Bobotog‘ jannatiy go'shalarga aylanib ketadi. Quyosh bodroqdek bulutlar orasidan mo'ralab, tog'lar yuksakligidan sayhonliklarga bir qur nazar tashlab, shudring bosgan maysalar jimitdek, qizaloqlar sirg'alaridek yaltillab ajib manzara kashf etadi. Bunday paytlarda lirik qahramon ruhidagi dasht-u dalalar “yam-yashil ma'voga” aylanib, “yorug‘ dunyo yanglig” ko'ngli ham yorishib ketadi. Bu kabi ravzayi bog‘ go'zalligi shoir ko'ziga qurigan xasni aziz ko'rsatib, chaylani Vatanga aylantirib qo'yadi:

*Men sizni eslasam – sog'inchlarimda  
Boshlanadi issiq pallalar.  
Yam-yashil ma'voga aylanar birdan  
Ruhimdagи dasht-u dalalar.*

<sup>98</sup> Расулов А. Танқид, таҳлил, баҳолаш. – Тошкент: Фан, 2006. – Б.186.

*Yorug‘ dunyo yanglig‘ yorishar ko ‘nglim,  
 Yillar aylanadi,  
 Gullar chayqalar.  
 Men sizni eslasam –  
 Xas ham aziz ko ‘rinadi,  
 Vatanga aylanar olis chaylalar. (I, 97)*

Shoir Bobotog‘ gulxani – quyoshi – mehri bergan tuyg‘uni, birovlarning ko‘nglini isitmoq tuyg‘usini hech bir narsaga alishmasligini, bu tuyg‘ular bilan faqat o‘z xalqi qalbini, ertasini quyosh kabi, gulxanlar kabi yoritishni istaydi:

*Yonmoq birovrlarning isitmoq baxti!  
 Umrimni shu baxtga bag ‘shlayman men.  
 Siz bergan nurafshon tuyg‘uni esa  
 Somon yo ‘llariga alishmayman men. (I, 98)*

“Badiiy yuksak she’rlarda so‘z jonlidir. U o‘sish-o‘zgarishdagi tirik jon yoki o‘simlik singari turlanish xususiyatiga ega. She’rni qat’iy, usul-kesil tushuntirish ko‘pincha tahlilni bir yoqlamalikka olib keladi. Shu sabab she’rdagi so‘z tovlanishlarini e’tiborda tutib fikr yuritgan ma’qul. Zero, poetik ma’no cheksiz va sirlidir”.<sup>99</sup> Ayni ma’noda, ta’kidlash lozimki, Sirojiddin Sayyid she’riyatida Vatan mavzusi mazmunan keng poetik g‘oyani o‘zida mujassamlashtirgan bo‘lib, bu talqin xususiyati bevosita ijodkor uslubiga xos xususiyatdir. Shoирning “Xorazmga boraman” she’ri ramziy xarakterga ega bo‘lgan poetik iqrornomadir. Tarix sahifalaridan ma’lumki, Xorazm ilk o‘zbek davlatchiligiga tamal toshini qo‘ygan, “tarix so‘zidan ham qadimiyroq” davlatdir. Lirik qahramon Xorazm deganda o‘z yurtining shonli tarixini tushunadi:

*London nima menga? Chikogo nima?  
 Nimadir Parijning oq bilaklari?  
 Mening yuragimga yaqinroq erur  
 Jayhun sohillari, o‘t, baliqlari. (I, 135)*

---

<sup>99</sup> Мели С. Сўзу сўз. “Адабиёт фалсафаси”га чизгилар. – Тошкент: Шарқ, 2020. – Б.142.

Hofiz Sheroyi o‘z davrida dunyoning eng go‘zal shaharlari sanalmish Samarqand-u Buxoroni she’rlarida go‘zallik va madaniyat timsollari qilib tasvirlagan bo‘lsa, Muhammad Yusuf, Sirojiddin Sayyidlar London, Parij shaharlarini o‘z yurtlariga nisbatan obraz sifatida tasvirlaydi. Parijning eng jonon qizlari – kashfiyotlari, kishini lol qoldiradigan shaharsozlik madaniyati “*Jayhun sohillari, o‘t, baliqlari*” kabi shoirda qiziqish, havas uyg‘ota olmaydi. Chunki nabotot va jamodod olami uning tarixi, o‘zligi, yuragining bir parchasi ekanligini unutmaydi shoir.

*Xorazm – moziyning hozir orazi,*

*Xorazm – bolalik arazim.*

*Yillarki, sen tomon talpinadi dil,*

*Senga yetganim yo‘q hali, Xorazm.* (I, 136)

Shoir she’riyatidagi mahoratni qiyoslash maqsadida birgina Abdulla Oripovning “Pahlavon Mahmud qabri qoshida” nomli she’ridagi quyidagi misralarga e’tibor qarataylik:

*Madorsiz qo‘limga qalam olganda,*

*Yo uzoq yo‘llarda horib tolganda,*

*Bir nomard qoshida ojiz qolganda*

*Pahlavon Mahmuddan so‘radim madad.*<sup>100</sup>

Shoirning mazkur misralarida juda katta falsafiy ma’no mujassamlashganligini kuzatamiz, u o‘z she’rida salaflarning ijodiy an’analarga sodiq qolgani holda, bu falsafiy fikrni yana-da rivojlantirishga, o‘zi anglagan haqiqatlarni bayon etishga, go‘zal satrlarga singdirishga harakat qilganligiga ishonch hosil qilamiz:

*Pahlavon Mahmudni endi tanidim,*

*Senga yetganim yo‘q tarix biladi.*

*Xorazm, men senga yetmog ‘im uchun*

*Butun abadiyat kamlik qiladi!* (I, 136)

---

<sup>100</sup> Орипов А. Йиллар армони. Шеърлар ва достонлар. – Тошкент. Фафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1987. – Б.182.

Endigina Pahlavon Mahmudni tanidim, hali necha-necha pahlavon Mahmudlar bor, deydi shoir. Sening tarixingni o‘rganish uchun “mingta Firdavsiy” kerak bo‘lganidek, mening ham Xorazmga yetishimga (tarixini o‘rganishga) “butun bir abadiyat kamliq qiladi”, demoqda lirik qahramon. Bu iztiroblar zamirida hayotiylik, ijodkor badiiy mahorati mujassamlashganki, buning asosida ijodkor uslubi tobora yuksaklarga tomon teranlashib borayotganligini ko‘rish mumkin.

Muhammad Yusufning “Iqror” she’ridagi qaydlar, shoirning o‘ziga xos tashbehlari orqali uning o‘z uslubini namoyon qilsa, Sirojiddin Sayyid misralaridagi o‘ziga xoslik, ohangdorlik, talmeh san’ati orqali, tashbehona poetik ifodalarning badiiy talqinini kuzatamiz. Har ikki ijodkorning lirik qahramoni o‘z qarashlariga, tuyg‘u-kechinmalariga ega ekanligi bilan alohida ajralib turadi.

*Yillardan yillarga evrilar yillar,  
Orzular yastanib chaman bo ‘lgaylar.  
Mehringdan suv ichib o’sgan ko ‘ngillar  
Ulg‘ayib el bo ‘lgay, Vatan bo ‘lgaylar.  
Oftobtaxtim mening, oytaxtim mening,  
Olamga ostonam – poytaxtim mening.* (III, 153)

Sirojiddin Sayyid she’riyatini o‘rganish davomida uning barcha talqinlarida o‘ziga xos ifoda shakllarini, badiiy mukammallik kasb etgan qarashlarni, uning ijodkorona yondashuvini, eng muhimi, betakror uslub egasi ekanligini kuzatdik. Shoirning Vatan haqidagi o‘nlab, yuzlab she’rlarida ilgari surilgan qarashlar va talqinlar bir-birini takrorlamaydi. Ularning asosida ijodkor “men”ining o‘ziga xos poetik ifoda shakllarining rang-barangligini ko‘zga tashlanib turadi.

“Uslub – metodning aniq namoyon bo‘lishidir, metod o‘z-o‘zicha yozuvchi ijodiy ishining yo‘nalishini belgilaydi, xolos, lekin uning individual sifatlarini emas”.<sup>101</sup> Qayd qilinganidek, individual belgilar har bir ijodkorning o‘ziga xos uslubini namoyon etishiga asos bo‘ladi, shuning uchun yuqorida biz tanishib

<sup>101</sup> Тимофеев Л.И. Основы теории литературы. – Москва: Учпедгиз, 1959. – Б.155.

chiqqan va tahlilga jalb etilgan misralarda har ikki ijodkorning o‘z qarashlari, kechinmalarining yetakchilik qilishi, ularni bir-biridan farqlanishga olib kelgan.

She’rshunos olim U.To‘ychiyev shunday qayd qiladi: “Tasvirlash, ifoda orqali yozuvchi o‘zini ko‘rsatadigan birdan-bir maydondir... Har bir asarda yangi mavzu, yangi voqeа aks etadi, bu hol yozuvchidan yangi badiiy arsenal tizimni talab qiladi, yangi izlanish boshlanadi. Uslub shu jarayonda o‘sib, takomillashib boradi”.<sup>102</sup> Darhaqiqat, uslubning asardan asarga o‘sib borishi, ijodkorning tinimsiz izlanishi, ijodkorlik omillarining kengayishi, mavjud an’analardan oziqlanishi bilan chambarchas bog‘liqdir. Shuning uchun ijodkor mumtoz adabiy an’analardan, jahon she’riyatidagi yetakchi tamoyillardan tinimsiz oziqlanadi, buning zamirida ijodiy izlanishlar samarasi bo‘y ko‘rsatadi.

Adabiyotshunos D.To‘rayev: “XX asr oxiri – XXI asr boshlaridagi izlanishlar va yangilanishlar, evrilishlar mahsuli bo‘lgan istiqlol davri adabiyoti xalqimiz badiiy tafakkurida o‘ziga xos taraqqiyot xususiyati va tamoyillariga ega bo‘lgan muhim bosqich hisoblanadi. Chunki bu adabiyotda millatni, o‘zligini anglash, millat va Vatan istiqboli, o‘zlikni anglash, umumbashariy g‘oyalarni ulug‘lash kabi fazilatlar yetakchilik qilayotir”,<sup>103</sup> – deya ta’kidlagan edi. Biz yuqorida Abdulla Oripov, Sirojiddin Sayyid, Muhammad Yusuflarning she’rlarini qiyosiy tahlil qilganimizda xuddi shu holatning guvohi bo‘lgan edik, bunda she’riyatdagi asosiy mavzu ham o‘zlikni anglashga xizmat qildirishi bilan izohlanmoqda. Shuning uchun ham, bu davr she’riyatining yetakchi estetik tamoyillari uzoq davrlar osha shakllanganidan dalolat beradi.

She’riy asar qanday paydo bo‘ladi, uning siri nimada, qanday qilib she’rxonning ko‘nglini zabit etish, uni hayratlantirish mumkin? Bu savollarga shoirlar, adabiyotshunos olimlar ko‘plab fikrlar bildirishgan. Rus tanqidchisi M.Isakovskiy fikrlari bu borada anchayin, e’tiborlidir: “...sen bir she’r yozginki, bu she’rning yozilishi faqat o‘zingga, boshqa shoirga emas, faqat sening o‘zinggagina

<sup>102</sup> Тўйчиев У. Ўзбек адабиётида бадиийлик мезонлари ва уларнинг маромлари. Ўқув кўлланма. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2011. – Б.371.

<sup>103</sup> Тўраев Д. Рангин тасвирлар жилоси. Адабий-танқидий мақолалар. – Тошкент: Академнашр, 2014. – Б.121-122.

xos bo‘lsin, biror mavzuda mustaqil o‘zing nima ayta olsang, faqat shuni, o‘z fikringni ayt. Chunki turmushdan olgan bir voqeani o‘zing ko‘rgansan, o‘ylagansan, his qilgansan, o‘zing anglagansan va o‘zing xulosa chiqargansan. Shuning bilan birga bu voqea, faqat shoir va ma’lum doiradagi odamlar uchungina bo‘lmay, balki, eng muhimi, keng kitobxonlar ommasi uchun ahamiyatli bo‘lishi kerak”<sup>104</sup>.

Albatta, bunday mezon talablariga javob beradigan she’rni yaratish uchun shoir chinakam iste’dod sohibi bo‘lishi lozim. Vatan, millat mavzuidagi she’rlarda bu mas’uliyat yana-da oshadi. Bu mavzularda yaratilgan she’r haqiqiy badiiy kashfiyot bo‘lgan taqdirdagina she’rxon dilini zabit eta oladi. Sirojiddin Sayyid ijodida Vatanni ulug‘lagan, millatni sharaflagan, uning tarixini o‘rganib, yorqin sahifalaridan g‘ururlangan, millat sha’ni toptalgan tarixning noxush lahzalaridan iztirob chekkan she’rlar ko‘p. Har bir she’r shoirning hayotni o‘ta zakiylik bilan ko‘rishi, mushohada etishi oqibatida tug‘ilganligini bu she’rlarni mutolaa qilish jarayonida yaqqol ko‘rish mumkin. Tashbehlar sodda, fikrlar sodda, qiyoslash, tahlillar asosidagi mushohadalar sodda, ammo ko‘ngilga tegib ketadigan, dilni qo‘zg‘atadigan poetik xulosa, butun she’rdagi badiiy manzara o‘ziga xos. “Vatan matonatdir, Vatan – shijoat, Butun el tiklagan imorat – Vatan” (III, 336), deydi “Istiqlol” she’rida.

Shoirning “Sulton Ulug‘bek so‘zi” she’ri “Sharq taronalari” xalqaro musiqa festivali uchun yozilgan. Unda millat zakosidan faxrlanish tuyg‘usi mujassam. She’r Ulug‘bekning hozirgi avlodlarga murojaati tarzida yaratilgan. Unda ilm ulug‘lanadi, o‘zbek xalqining ilm-u zakovati sharaflanadi. O‘z davrida hukmdor bo‘lgan Ulug‘bek ilm-fan ravnaqiga homiylik qilib, rasadxona qurban, falak sirlarin o‘rganishda fanga mislsiz yangiliklar olib kirgan ulug‘ olim ham. U bugungi avlodlarga ilm olishning foydasi, ilmli kishining kuch-qudrati haqida nasihat qiladi. Jadid ma’rifatparvarlari ham o‘z davrida millatni millat qiladigan narsa ma’rifat, ilm sirlarini egallash deb hisoblaganlar va butun millatni ma’rifatli

<sup>104</sup> Исаковский М. Поэзиянинг “сир”и хақида,—Бадиий ижод ҳақида. — Тошкент: F. Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1960. — Б.30.

bo‘lishga chorlaganlar. Furqat “Ko‘ngillarning sururi ilmdandur, Ko‘rar ko‘zlarning nuri ilmdandur” desa, H.H.Niyoziy “Ilm ista, ilm, istag‘il zinhor ilm” deya zamondoshlariga xitob qiladi. Sirojiddin Sayyidning esa Ulug‘bek tilidan:

*Ilm oling, ilmning yo‘q qiyosi,*

*Ilm ham misli yulduzlar ziyosi.*

*Ilm birlan gul-u zar aylagaysiz,*

*Vatan bog‘in munavvar aylagaysiz. (III, 339)*

deyishi jadid ma’rifatparvarlari fikrlariga hamohang jaranglaydi.

“Vatan berilmagay” she’rida vatanparvarlik tuyg‘usi balqib turadi. Nima uchun Vatan berilmaydi, olinmaydi ham u? Chunki Vatan qismat, kimga qanday Vatan nasib etishi Olloh ixtiyorida. Vatanda tug‘ildingmi, Vataning bormi, to o‘lguncha unga sodiq bo‘lishing, uni asrab-avaylashing, birovlarga berib qo‘ymasliging shart. Buning sababi oddiy:

*Otalar bir umr zahmatlar chekkay,*

*Ro‘zg‘orning tinchi-yu butligi uchun.*

*Farzandlar shul sabab jonlarin tikkay*

*Shu yer ona Vatan, yurtligi uchun. (II, 344)*

Millat sha’ni, shavkati, or-nomusi har narsadan ulug‘ va mo‘tabar. Ammo hamisha ham uni pok saqlash, e’zozlash, ulug‘lash lozimligi haqida o‘ylayvermaymiz, o‘zimizni bu mas’uliyat oldida qanchalik javobgar, burchli ekanligimizni imtihon qilmaymiz. Shoir esa imtihon qiladi, o‘zini ham, o‘zgani ham Vatan oldida, uning sha’n-shavkati, or-nomusi oldida qanchalik mas’uliyatlari ekanligini taftish qiladi. Bu misralar Vatan haqida jo‘n o‘ylayotganlar, dumbul fikrli, sayoz mushohada etuvchilarni sergaklantiradi:

*Azaldan sha’n ila shavkatli o‘zbek,*

*Maddohlar ayturlar bukunkim so‘z bek!*

*Chirik kalavadan to‘qilgan bo‘zdek,*

*Ipni o‘zimizga eshib yashaymiz.*

*Chuqurlar qazdik, lek chuqur bilmadik,  
Ona tilimizni fikr qilmadik.  
Bergan non-tuziga shukur qilmadik,  
Qachon biz yurt uchun toshib yashaymiz? (II, 355)*

Mustaqillikkacha bo‘lgan davrda yaratilgan she’rlarda isyonkorlik, ozodlikka talpinish ruhi ustuvor. Ayniqsa, o‘tgan asrning 80-yillari ikkinchi yarmidan e’tiboran erkinlik epkinlari esa boshladi, ozodlik sasi millat ruhiga yangi kuch bag‘ishlay boshladi. Shoirlar, adiblar, olimlar, barcha ziyolilar millatni uyg‘otish, xalqni ozodlikka chorlash, istibdod kishanlarini parchalab tashlashga intildilar. Ana shu tarixiy pallada shoirlar haq gapni aytishda, tarixning o‘qilmagan sahifalarini tiklashda, millatning ko‘ksini tog‘day ko‘tarishga butun jon-u jahonini bag‘ishlashga tayyor fidoyi insonlar ekanliklarini namoyon etishdi. Ular safida Sirojiddin Sayyid ham borligi o‘sha davrda yaratgan qator she’rlari, dostonlari, hadislar mazmunini tavsif etishga bag‘ishlangan she’rlari, nasriy ohanglardagi asarlarida ko‘rinadi. “Tanazzul” dramatik dostoni uchun yozilgan she’r ana shunday asarlardan biri. Har bandi olti misradan tashkil topgan she’rda millat sha’ni, xalq taqdiri haqida kuyunchaklik bilan fikr yuritiladi, undagi achchiq haqiqat kishi qalbini larzaga soladi:

*Kecha bir ezilgan mo‘minni ko‘rdim,  
Mo‘min na ozg‘in cho‘p, o‘tinni ko‘rdim.  
Cho‘kkani ko‘zlarida yurtimni ko‘rdim,  
Yurtimning o‘ngarmas mungini ko‘rdim. (II, 18)*

Bu – tanazzul belgilari. Buyuk daholar yetishib chiqqan yurt mustamlakachilik zulmi ostida ulkan fojealarni boshidan kechirdi. Qancha-qancha zakovat egalari mahv etildi, millat sha’ni, g‘ururi poymol etildi. Ozodlikka erishilgach, yo‘qotilgan qadriyatlar qayta tiklandi, millatning, xalqning egilgan qaddi rostlandi. Shunday paytda o‘tmishning alamli xotiralarini eslash, istibdod xalqni qanday balolarga giriftor etganligini anglash, his etish juda muhim. Bu Vatanni o‘sib kelayotgan avlod sevishi, qadrlashi uchun, erk, ozodlik nashidasи qanchalik totli ekanligini his etish uchun ham juda zarur.

“Vatanni o‘rganish” she’ri mustaqillikning ilk yilida yozilgan. Unda ozodlikning shukronasi, tarix bergan saboqlar yordamida Vatanni anglash, unga yetishishga intilish, Vatanni ko‘z qorachig‘idek asrash tuyg‘usi ufurib turadi. Bandlarning ko‘pi “Vatan. Vatan. Vatan. Vatan.” (II, 75) degan ta’kid bilan tugaydi. “Frankfurt safari” she’ri xorijga sayohat chog‘ida ko‘rganlarini o‘z Vatanidagi o‘zgarishlar bilan qiyoslash orqali ozodlik, erkinlik tuyg‘ularning azizligini chuqurroq his etish mumkinligiga urg‘u beradi. Xorijda ko‘rganlarini lirik qahramon hazil-mutoyiba yo‘sinda milliy urf-odatlarimiz, qadriyatlarimiz bilan chog‘ishtiradi va bizning millatimiz singari mehnatkash, mehmondo‘st, bag‘rikeng xalq yo‘qligini ta’kidlaydi. Nemislarni maqtaydi, ozoda, saranjom-sarishta xalq, ammo odamlari bir oz tundroq tuyuladi, ular orasida semizlari yo‘q, bari oriq, buning sababi ular qazi yemas ekanlar. Yana ular shoshib yurishmaydi, banklari baland binolarda joylashgan, ammo salomni ham tekinga olishmaydi. Bizda esa butunlay boshqacha. Nemislarning To‘polonday soyi yo‘q, nos tupuradigan joyi ham yo‘q, ammo teraklari, tollari bor va bu yerda choyxona qursa bo‘lar ekan. Xullas, nemislar bilan bordi-keldi qilish mumkin. Buning uchun hamma yo‘llar ochiq. Chunki O‘zbekiston ozodlikka erishgan, o‘ziga bek, o‘z kelajagini o‘zi qurayotgan erkin mamlakat. Nemislardan biz hisob-kitobli bo‘lishni o‘rgansak. Nemislar bizdan mehmondo‘stlikni o‘rgansin.

*Keling, ko‘ring, Buxoroni, Xivani,  
Samarqandni kezing minib tevani.  
Uzoqlashsak bo‘lmas bir-birimizdan,  
Dollar sizdan kelib tursa, osh bizdan.* (II, 158)

Hazil asnosida aytilgan bu fikrlar samimiyl, do‘ston, chin yurakdan ekanligi bilan xarakterlidir. Haqiqatan ham mustaqillik yillarda Vatanimiz dunyo bilan bo‘ylashadigan, har qanday xorijiy davlatni o‘z boyligi, imkoniyatlari bilan qiziqtiradigan bo‘ldi. Ammo endi kim kelsa istagan narsasini olib ketolmaydi, balki o‘rtada puxta hisob-kitob, oldi-berdi qoidasi mavjud. O‘zbekiston tenglar ichida teng bo‘lib, har qanday boy-badavlat davlatni o‘zi bilan hisoblashishga majbur eta oladigan qudratga ega. She’rdan ana shu ruhni uqib olish qiyin emas.

Shoir lirik qahramonining dard-u hasratlari juda og‘ir, murakkab davning his-tuyg‘ulariga berilar ekan, uning qalbidagi alamlarning chegarasi yo‘qdek, chunki bu iztiroblarning zamirida insoniyatning uzoq o‘tmishi, tarixi mujassamlashgan. Yillar davomida iztiroblar iskanjasida yashagan inson qismatining turli qirralarini, uning fojialarini, birlasha olmagan millatning tanazzulini mungli satrlarga singdiradi. Talqinlar zamiridagi hasratlar, lirik qahramonning naqadar, falsafiy mushohada yuritishidan, uning qalbidagi ayanchli, kechirib bo‘lmas hasratlarning mahsuli sifatida yuzaga chiqayotganligidan dalolat beradi. Lirik qahramonning har bir tushunchasi kitobxонни teranroq fikr yuritishga, olam va odamga yana-da yaqinroq nazar solishga keng imkon beradi. Bu talqinlarning zamirida ijodkorning uzoq izlanishlari, ijodni “dard” deb tushunishi ham bejiz emasligini anglay boshlaymiz. Shoирning lirik qahramoniga singdirilgan tushunchalarning asosida, olamni kashf etishdagi poetik uslubi yetakchilik qilishini anglay boshlaymiz.

Shoirlar poetik maqsad va g‘oyalarini turli janrlar ko‘rinishida namoyon qilishga intildilar. “Uslub hayotni obrazli o‘zlashtirishda qo‘llaniladigan ifoda usuli, kitobxонни ishontirish va jalb qilish usulidir”,<sup>105</sup> degan tushunchalar zamirida ham asosli mulohaza mavjud. Shu nuqtayi nazardan qaralganda, hech mubolag‘asiz Sirojiddin Sayyid she’riyatidagi o‘ziga xosliklarning ifodasi mahorat bilan misralarga singdirilgan. Uning she’riyatida tarixiylikka ham, zamonaviylikka ham estetik munosabatda bo‘lish Vatan va millat manfaatlari bilan uzviy bog‘lanib ketadi. Zotan, shoир she’riyatida Vatan, shaxs erkinligi birinchi darajaga ko‘tarilganligini e’tirof etish zarur. Yurt qadrini va qaddini baland ko‘tarish Sirojiddin Sayyidning e’tiqodi, burchiga aylangan. Shuning uchun uning she’riyatida “g‘urur-iftixor tuyg‘ularining tarixiy ildizlarini ko‘rsatuvchi o‘ymushohadalar badiiy pafos sifatida ifodalananayotir”<sup>106</sup> (N.Rahimjonov). Bu qarashlar zamirida, ijodkorning yillar davomidagi tinimsiz izlanishlari, mashaqqatli

<sup>105</sup> Хропченко М.Б. Творческая индивидуальность писателя и развитие литература. – М., 1970. 109-стр.

<sup>106</sup> Рахимжонов Н. Мустакиллик даври ўзбек шеърияти. – Т: “Фан”, 2007 – Б.153.

mehnati, qalbidagi armonlarning “quyma” tarzda misralarga singdirilishi bilan izohlanadi.

“Uslub – yozuvchining faqat o‘zigagina taalluqli bo‘lgan badiiy tasvirlash mahorati, uning dunyoqarashi, hayot tajribasi, hikoyalash ohangi, leksik va stilistik tayyorgarligi, bir so‘z bilan aytganda, badiiy asarning mazmuni va shakliga ko‘chgan uning o‘z individual qiyofasidir”<sup>107</sup>. O.Shpengler “Yevropa tongi” nomli tadqiqotida uslub muammosiga alohida ahamiyat qaratib shunday yozadi: “U uslubni madaniyatning o‘ziga xos xarakteri, davrning muhim belgisi sifatida tan oladi. Uning uchun uslub u yoki bu davrni aniq namoyon etuvchi hissiyotning metafizik shakli, “ma’naviyatning atmosferasi”dir. Uslub san’at, shaxs yoki biror bir predmet yoki material tanlamaydi. U tabiiy jarayonning bir ko‘rinishi bo‘lgan metafizik stixiya sifatida o‘zining yo‘lidagi barcha jarayonni bo‘ysundiradi. Davrni ifoda etuvchi jarayonga aylanadi. Uslub – madaniyatning qomati”, degan qarashlarni ilgari surgan edi.<sup>108</sup> Qayd qilinganidek uslub – ijodkor “men”ini namoyon etuvchi badiiy unsur sifatida namoyon bo‘ladi.

Sirojiddin Sayyidning “Dunyo qissasi” she’ri garchand umumbashariy miqyosdagi asar bo‘lsa-da, ammo obraz, timsollar shoirning o‘z yurtidan, o‘z kechmishlaridan olingan. Lirk qahramonning tafakkur tarzi Vatan kabi muqaddas So‘z dard-u dunyosiga yo‘g‘rilgan ma’nolarda anglashiladi. “She’riyat original poetik obrazlarsiz yalong‘och haykaldan ortiq narsa emas. She’rni she’r qilish uchun, unga jon ato etmoq uchun poetik obrazlar, detallar bilan bir qatorda teran fikr kerak” (O.Sharafiddinov) (I,8). She’r ana shunday teran fikrlarga boy, Sirojiddin Sayyidona tasvir uslubiga ega. Uning she’rlarida ritorika kuchli. Mazkur she’rda ham ritorik so‘roq gaplar, murojaatlar, kinoyalar yetakchilik qiladi. Shoir poetik g‘oyasi ushbu stilistik ko‘rinishlar bilan kitobxon qalbini ishg‘ol qiladi. Shoirona mardonavorlik, shoirona haqiqatlar xalqqa murojaatlar orqali ifodalangan:

<sup>107</sup> Шукуров Н., Хотамов Н. ва бошқалар. Адабиётшуносликка кириш. Дарслик. – Тошкент, Ўқитувчи, 1979. – Б.216.

<sup>108</sup> Шпенглер О. Закат Европы. Очерки морфологии мировой истории. – Т. 1.: Гештальт и действительность./ О. Шпенглер: пер. с нем., вступ. ст. и примеч. К. А. Свасьяна. – М.: Мысль, 1993. – 663 с.

*Donolaring raftoringni izlab ketgan,*  
*Nayranglaring bag ‘irlaring tig ‘lab ketgan.*  
*Kun ko ‘rmayin butun umr yig ‘lab ketgan,*  
*Alar bari nahot endi nodon chiqar.*  
*Men ham sening kuylaringda to ‘kilganman,*  
*Mehr istab qumlardagi yulg ‘undayman.*  
*Ko ‘nglim qolgan sendan ham, o’z ko ‘nglimdan ham,*  
*Menga bergen ul gullaring so ‘lg ‘on chiqar.* (II, 58)

Dunyoning kori-xayri bilan lirik qahramon qiziqib ko‘rgan. Uning borlig‘idan mehr istashi qumdag‘i, sahrodag‘i yulg‘un kabidir. Saratonda yomg‘ir istagan (arz-dod qilgan) yulg‘unning mukofoti, ajri garm sel shamol, jazirama issiq ekanligidan shoir xabardor. Shu boisdan xalqini baxtli ko‘ra olmagan shoir ko‘ngli dunyodan ham, o‘zidan ham qolgan. Chunki unga tutqazgan “gullari so‘lg‘on”, istiqlol haqidagi orzulari tug‘ilmay o‘lgan, sarob bo‘lib chiqqan.

Iste’dodli shoir Sirojiddin Sayyid Vatanimizning murakkab tarixi, buyuk o‘tmishini talqin etish bilan cheklanmaydi, bugungi ozod Vatanni ko‘rib, qalban mag‘rurlanadi, undagi muhabbatdan kitobxon ham qalblari jo‘sib kuylagisi, shoirning lirik qahramoniga hamohang mulohaza yuritishgisi, kechinmalarini his etgisi kelishi tabiiy. Shu jihatdan, shoirning “Yangi uylar qasidasi” xuddi biz qayd etgan qarashlarni asoslaydi:

*Har yangi uy – yangi tilak,*  
*yangi maqsad, hur niyatdir.*  
*Bugun qo ‘yan har bir g‘ishting –*  
*hur Vatandir, hurriyatdir.*  
*Yurtimning ko ‘rk-jamoliga*  
*Boqib daryo misol, do ‘stlar,*  
*mening to ‘lib toshgim kelar,*  
*Shu uylar, shu binolarga*  
*Mening ham she’riy kitobimni*  
*Bir g‘isht kabi qo ‘shgim kelar.* (III, 366)

Sirojiddin Sayyidning xalqona uslubi har bir o‘quvchi qalbiga tezda singib ketadi, anglash, his etish uning qalb kechinmalarida namoyon bo‘ladi, kitobxonni oniy lahzada o‘ziga jalg etadi. She’rlaridagi soddalik va samimiylilik, sehr, ma’no teranligi insoniy burch, vatanparvarlik xususida fikrlashga, mulohaza yuritishga chorlaydi. Bu haqida so‘z yuritgan adabiyotshunos Izzat Sulton yozadi: “Uslub badiiy ijodning yana bir asosiy xususiyati bilan chambarchas bog‘liq hodisadir: badiiy adabiyotning har bir asari konkret ijrochi (yozuvchi) tomonidan yaratiladi. Yozuvchi shaxsiyati o‘ziga xos bir qancha xususiyatlarga (masalan, hayotni boshqalar bilmagan yoki kam bilgan tomondan bilish, o‘quvchini hayajonga soladigan asar yozishning o‘ziga xos usullarini ijod etish va mavjud usullarni mukammallashtira borishi kabi) ega bo‘lsagina asar muvaffaqiyatli chiqadi. Yozuvchi hatto bir asarda ishlatgan vosita va usullarni boshqa asarlarda ishlatish imkoniyatiga har vaqt ham ega bo‘la bermaydi; yangi hayotiy material ko‘pincha yangi vositalar topishni zarur qilib qo‘yadi. Mana shu sabablarga ko‘ra, badiiy ijod xilma-xil izlanishlar va topilmalar maydonidir”.<sup>109</sup>

Asosli ta’kidlanganidek, ijodkorning har bir she’ri yangi bir asarki, uning o‘ziga xos mazmuni mohiyatni, ijodkor uslubini namoyon etib, yaxlitlashtirib boradi. Hayotga munosabatda ham xuddi shu tushunchalarni anglagan, his etgan ijodkorgina, turfa xil asarlarni maydonga keltiradiki, buning zamirida nafaqat talant, ijodiy maqaqqat va izlanishlar samarasi ham mujassamlashgandir.

Sirojiddin Sayyid tuyg‘ularida ham shunday asosni kuzatish mumkin, chunki “haqiqiy she’r baxti”ga muyassar bo‘lish, shoirning omadi chopganligidan, uning shoir sifatidagi alohidaligidan dalolatdir. Ayniqsa, Sirojiddin Sayyid ijodiyotini yaxlit olib ko‘rganimizda bu kabi xususiyatlarni o‘zida namoyon qila olgan “nozik san’at shoiri” (Sh.Rahmon) desak, hech bir mubolag‘a qilmagan bo‘lamiz.

Ijodkorlik qalbdan otilib chiqayotgan toza buloq suvidek tiniq, shu bilan qalbga orom berib, tashnalikni qondirganidek, haqiqiy san’at asari ham insonning ma’naviy olamini boyitadi, uning qalb qa’ridagi dardlariga hamohang qadam

<sup>109</sup> Султон И. Адабиёт назарияси. Дарслик. – Тошкент: Ўқитувчи, 1986. – Б.401.

tashlaydi. Bu esa ijodkordan she’riyatni, uning mohiyatini anglashgina emas, bu dardni, quvonchni o‘z uslubida bayon etishni ham talab etadi. Ana shunday ijodiy jarayonda Sirojiddin Sayyidning poetik mahorati yana-da teranlashadi. Insonning qalbini kashf etishdagi obrazlar olamini, uning kechinmalarini yuzaga chiqarish imkonini beradi, bularning zamirida ijodkorning individual uslub mahorati mavjuddir.

Shoir poetik obrazlarida zamondoshlarimiz orzu-o‘ylari, kechmish-kechirmishlari o‘z badiiy ifodasini topgan, bu esa ijodkorning individual uslubidan dalolat beradi. Uning har bir asari yaxlit bir asar sifatida shakllangunga qadar muallif juda katta izlanishlarni, ijodiy mashaqqatlarni boshidan kechiradiki, bu muallifning iste’dodini namoyon qilishga imkon yaratadi.

Shuningdek, yetuk ijodkorlarning ijodini tinimsiz o‘rganish ham shoir she’riyatining izchilllikda mukammallahuviga, poetik talqinlarning o‘ziga xosligini ta’minalashga, ijodkorning individual uslubini yaxlit holda, yuksak tuyg‘ularni, kechinmalarni ifodalash imkonining kengayishiga xizmat qilgan. Shoir she’riyatining yangilanishi har bir she’rida bo‘rtib ko‘rinishi bilan birgalikda, davr ruhiyatini ifodalashga xizmat qilgan.

### **3.2-§. Badiiy publitsistik uslubning Vatan obrazi talqinidagi o‘rni**

So‘z san’atkorlarining asosiy qismi ijodiy jarayonning xususiyatlarini badiiy publitsistikada ham namoyon etib kelmoqda. Keyingi yillarda badiiy publitsistikaning o‘ziga xos taraqqiyotini bir qator ijodkorlarning yaratgan asarlarida kuzatamiz. Chunki inson ruhiyatining, uning kechinmalarini badiiy aks ettirish jarayonlarining turfa xil ko‘rinishlari shakllanib va taraqqiy etib keldi. Adabiyot va san’at asarlarida inson fikri hayot manzaralarini badiiylashtirar ekan, uning turfa xil shakllari, ko‘rinishlari yuzaga keldiki, bu esa so‘z san’atining badiiy in’ikosini namoyon etdi. Publitsistikaning bosh va asosiy xususiyati ham, fikr va tushunchani mantiqiy izchilllikda ifodalab, kechinmalarni nasrda badiiy aks ettirishidadir.

Publitsistikaning asosida turli tushunchalar mujassamlashgan bo‘lib, tushunchani quruq ifodalashni emas, davr va muhit tushunchalarini qizg‘in ijtimoiy mulohazalar orqali ifodalab berishga intiladi. Rus olimi qayd etganidek: “Yozuvchi-publitsist o‘zini hayajonlantirgan ijtimoiy voqeа va hodisalarni badiiylik mezonlari asosida qayd etadi. Haqiqiy publitsistika tushuncha va emotSIONALLIKNING dialektik birligidan hosil bo‘ladi. Publitsistika yangi faktlarni xabar qilish, ayrim mantiqiy konstruksiyalar va boshqa yordamchi vositalar asosida emotSIONALLIKKA erishsish usulidir”.<sup>110</sup>

Rus tanqidchisi V.G.Belinskiy “Poeziyaning xil va turlarga bo‘linishi” asarida uni poeziya, proza va dramaturgiya turlariga bo‘ladi va har bir tur ichidagi janrlarning xususiyatlarini ilmiy tavsiflab beradi. O‘zbek adabiyotshunosligida ham nazm, nasr, drama turlari va ularga mansub janrlar yuzasidan ko‘p ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan. Nasr epik tur bo‘lib, unga mansub ba’zi janr va xususiyatlar boshqa turlarda ham uchraydi. Shuning uchun adabiy turlar lirika, epos, drama kabi uchta katta guruhgа ajratiladi. Izzat Sultonning “Adabiyot nazariyasi” kitobida adabiy turlar va janrlar haqida fikr yuritilib, ularning farqli va mushtarak tomonlari to‘g‘risida ancha mukammal nazariy ma’lumotlar berilgan. Jumladan, “Adabiy asarlarni turlar va janrlarga taqsim etish, guruhash har bir adabiy turning xususiyatlarini aniqroq tushunib olish uchun qo‘llanilgan shartli bir usuldir. Aslida adabiy turlar orasida keskin farq yo‘q”,<sup>111</sup> deyiladi. Adabiyotshunos olim D.Quronovning “Adabiyotshunoslikka kirish” darsligida voqeabandlik epik turga xos asosiy xususiyat ekanligi, nasrda yozilgan har qanday asar ham epik turga mansub bo‘lmasligi ta’kidlanadi. “Epik asarda, – deydi munaqqid, – plastik elementlar bilan bir qatorda noplistik elementlar ham mavjud bo‘lib, bu elementlar muallif obrazini tasavvur qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Epik asarning noplistik elementlari deyilganda muallifning mushohadalari, fikrlari, tasvir predmetiga hissiy munosabati kabilar tushuniladi”.<sup>112</sup>

<sup>110</sup> Черипахов М.С. Проблемы теории публицистики. – Москва: Мысл, 1971. 132-133-стр.

<sup>111</sup> Султонов Иzzат, Адабиёт назарияси, дарслик, Қайта ишланган ва тўлдирилган учинчи нашри. – Тошкент: Ўқитувчи, 2005. – Б.156.

<sup>112</sup> Курунов Дилмурод, Адабиётшуносликка кириш. Дарслик. – Тошкент: Фан, 2007. – Б.174.

Nasrda ijod qiluvchi adiblar lirikada, nazmda ijod qiluvchilar nasrda mumtoz namunalar yaratishi ajablanarli hol emas. Ko‘plab roman va qissalar yaratgan atoqli adib Oybek she’riyatda o‘nlab dostonlar, ajoyib lirik she’rlar muallifi hamdir. G‘afur G‘ulom she’riyatda qanchalik buyuk so‘z ustasi bo‘lsa, uning nasriy asarlari ham shunchalik ona tilimizning jozibasi, boyligini namoyish etadi. Umuman, adabiyotning barcha turlari va janrlarida ijod qilish ko‘pgina ijodkorlarga xosdir.

Darhaqiqat, publitsistika tuyg‘uga kuchli ta’sir ko‘rsatadigan haqiqiy emotSIONALLIKNI vujudga keltiruvchi asosiy vositadir. Tushuncha va obrazlilikning publitsistikada tutgan o‘rni, o‘zaro munosabatida namoyon bo‘ladi. Shuning uchun publitsistik asarlarda tushuncha va obrazlilik uning asosiy xususiyati sifatida e’tirof etilishi ham beziz emas. Shu bilan bir qatorda publisist voqelik faktlarini ilmiy-badiiy jihatdan klassifikatsiya qilish, ma’lumotlarni o‘zaro dialektik birlikda aks ettirish, hayot voqelining ijodkor tushunchalari bilan uzviy birlikda ifodalanishini ta’minlashga ham xizmat qilishi zarurligini unutmaslik kerak. Shuning uchun publitsistikada tushuncha va badiiy obraz o‘zaro muvofiqlashadi. Ammo obraz doimo tushunchani izohlab to‘ldirib, yaxlitlashtirib kelishi ham tabiiydir. Tushuncha asosida obraz shakllanadi. “Ilmiy-nazariy va badiiy obrazli tafakkurning bir-biriga qo‘silib, chirmashib ketganligi, yaxlit bir butunligi, publitsistikada mavjud hodisa bo‘lib qolmasdan, balki zaruriy holatdir”.<sup>113</sup>

Nazariy tushunchalar shundan dalolat beradiki, publitsistikada badiiy adabiyotga xos hayot manzaralarini aks ettirishga xizmat qiladigan badiiy obraz emas, balki ifoda obrazi yetakchilik qilishi ham beziz emas. Ammo ijodkorning qarashlari, nuqtayi nazarining mahsuli bo‘lgan obraz ham tushunchaning shakllanishiga, voqelikning badiiy mukammalligini ta’minlashga qaratilganligini ham qayd etish kerak. Chunki publitsistikada obrazning ikki xususiyati yetakchilik qiladi, bunda so‘z va tushuncha obrazli ifoda shakli bo‘lsa, badiiy adabiyotga xos obrazlilik ham o‘ziga xos tarzda namoyon bo‘ladi. Publitsistikada badiiy g‘oyaning

---

<sup>113</sup> Прохоров Е. Публистика в жизни общества. – Москва: Издательство МГУ, 1968. 8-9-стр.

yuzaga chiqishini tushunchaning pafos darajasiga ko‘tarilishi bilan izohlash mumkin.

Publitsistika rivoji uzoq asrlarni o‘z ichiga oladi. Badiiy ijod jarayonida qalam tebratgan barcha ijodkorlar ijodida maxsus yoki boshqa asarlari tarkibida badiiy publitsistikaga murojaat qiladi. Bu jihat uning ochiqligi, hammaga tushunarli ekanligi, ifoda shaklining murakkab emasligi bilan belgilanadi. “Publitsistik xususiyatlар “Qobusnama” (XII asr)da yaqqol ko‘zga tashlanadi. Navoiyning “Majolis un-nafois”, “Munshaot”, “Mahbub ul-qulub” asarlarida publitsistikaning tugal xususiyatlari uchraydi. Navoiyning Abdurahmon Jomiy, Pahlavon Muhammad, Sayyid Hasan Ardasher va boshqalar haqidagi adabiy portretlarini publitsistik ocherklar, deb atash mumkin”<sup>114</sup>. Publitsistik maqolalar jadidlar ijodida alohida yuksaldi. M.Behbudi, A.Fitrat, A.Cho‘lpon, A.Avloniy, M.Abdurashidxonov kabi ulug‘ siymolarning turli jurnal va gazeta sahifalarida nashr etilgan ijod namunalarini qayd etib o‘tish o‘rinlidir.

Sirojiddin Sayyid ham hozirgi zamon adabiyotimizning shunday ijodkorlardan biri. Shoир “Asarlar”ining har bir jildi so‘ngida “Nasriy ohanglarda” bo‘limi bor. Unda shoир o‘zining nasrdagi iste’dodini sinab ko‘rgandek, hayot, umr, yashash mazmuni, dunyo-yu dunning turfa tovlanishlari haqidagi mulohazalari, mushohadalari, xulosalari bilan o‘rtoqlashadi. Uning ijodidagi publitsistik asarlarning poetik mukammalligi, badiiy funksiyasi noyob iste’dod sohibi ekanligidan dalolat beradi. Shoирning publitsistik ruhdagi asarlarida Vatan, buyuk tariximiz, Mustaqil O‘zbekistonning aziz farzandlari, uning zarrin nurlari juda go‘zal tarzda o‘z ifodasini topib kelganligini kuzatish mumkin. Har qanday jamiyatning qarashlari, mafkurasi, uning bolalik xotiralari bilan uzviylikda, o‘zlikni namoyon etishi, tabiiy hol.

Abdulla Oripov shogirdi – Sirojiddin Sayyid ijodiga to‘xtalar ekan, quyidagi iliq fikrlarni bildiradi: “Iloyo, har kimga hayotida iftixor nasib etsin. Iftixorning go‘zal shakl-u shamoyillari ko‘p. Ularning eng avvali, albatta, xalq-u Vataningdir! Undan so‘ngra, balkim, ustoz-u shogirdlar. Shu ma’noda, jumladan, men o‘zimni

<sup>114</sup><https://uz.wikipedia.org/wiki/PUBLITSISTIKA#:~:text>

nihoyatda baxtli insonlardan biri, deb hisoblayman. Ulug‘ xalqim, buyuk ustozlarim, ko‘z-ko‘z qilishga arzigulik sofdil shogird ukalarim bor. Shoyon she’riyatimizda esa ana shunday iftixorlarimizdan biri, shubhasiz, Sirojiddin Sayyiddir”.<sup>115</sup> Ustoz e’tiroflaridagi Vatanga urg‘u berilganlikning ramziy xususiyati shundaki, shogirdi ijodida Vatan mavzusi hamon bosh mavzulardan biri sifatida kitobxonlar e’tiborini qozonib kelmoqda.

Sirojiddin Sayyidning publitsistik asarlarida ham, Vatan, millatparvarlik, tarix va zamonaviylik g‘oyalari mujassamlashgan. Uning qarashlarining mahsuli bo‘lgan tushunchalar zamiridagi hayotiylikning badiiy in’ikosi, insonning o‘zligini anglash, tarixiy davr voqeligi va sharoitlariga teranroq nazar solish imkonini beradi. Bu tushunchalar Istiqlol bergen sharoitni, ijtimoiy muhitni, uning o‘ziga xos tamoyillarini teranroq anglashga bo‘lgan ehtiyojni shakllantiradi. Ijodkorning “*Vatan barchamizga buyuk onadir*” maqolasida shoir o‘zining mustamlaka davrida birinchi sinfga borganligini xotirlaydi va mustaqillik davri bolalariga yaratilgan sharoitlar bilan solishtirib, ularning naqadar baxtli ekanligini uqtirib shunday yozadi: “*Mening goh mahzun, goh o‘kinchli, ba’zan rangli, ba’zida oq-qora bolalik lavhalarimdan bugungi zamonda yetuk insonlar bo‘lib yetishmoqlari uchun barcha amaliy va ma’naviy-ma’rifiy shart-sharoitlar, imkoniyatlarga musharraf, ongli idrokli ukalarim o‘zlariga kerakli xulosani chiqarib oladi, – deb o‘ylayman*” (I, 376-377), – deb yozadi shoir. Darhaqiqat, bu o‘rinlarda, bolalikning yorqin xotiralari asosida, davrning ijtimoiy muhitning o‘ziga xos tamoyillari bilan bиргаликда, bugungi yoshlarga berilgan imkoniyatlar, sharoitlarning farqli jihatlari haqida xulosalar chiqarishga, o‘quvchini hayotni anglashga, uni tushunishga qaratilgan tushunchalar obrazli tasvirlanganligini kuzatish mumkin.

Birinchi jılddan o‘rin olgan nasriy asarlarga “**Birinchi so‘z**” degan umumiyl nom bilan berilgan. “*Vatan barchamizga buyuk onadir*” nasriy asarining janri belgilanmagan. Uni oddiygina tarjimayi hol deyish mumkin, ammo unda tarjimayi holda aks ettirilishi lozim bo‘lgan ko‘pgina o‘rinlar tushirib qoldirilgan. Yoki esse

<sup>115</sup> Орипов А. Ҳар кимга ифтихор насиб этсин. Қаранг: Сирожиддин Саййид. Асарлар. II жилд. – Т.: “SHARQ” нашриёти. 2018. – Б.7.

deyish mumkindir. Nima bo‘lganda ham u badiiy asar va shoir-adibning hayotiy kuzatishlari, shu kuzatishlardan kelib chiqqan hayot va yashash mazmuni to‘g‘risidagi falsafiy mushohadalardan iborat.

Har bir kishi Vatanda tug‘ilib, Vatanda kamol topadi. Vatanning buyukligi inson voyaga yetgani sayin uning aql-idroki, tafakkuri va dunyoqarashida qayta-qayta kashf etilib, yuksalib boraveradi. Ayniqsa, Vatanda yuz berayotgan o‘zgarishlar, buyuk evrilishlar ko‘z o‘ngingda sodir bo‘lsa, ularda seningni-da ozmi-ko‘pmi hissang bo‘lsa, Vatanning buyukligini, buyuk onaligini dil-dildan his etasan.

Shoir va adib uzoq bolalik yillarini xotirlab, bugungi kunning mo‘jizalari bilan qiyoslaydi. Bu qiyoslashlar so‘ngida chiqariladigan xulosalarmi ibrat, hikmatga yo‘yadi. Chunki u ilk maktabga borgan chog‘idagidan hozirgi vaqt, holat, Vatan jamoli, uning kelajakda yana-da buyuk bo‘lajagiga imkoniyatlar behad, behisob ekanligi orasida juda katta farq bor. Bunday imkoniyatni Istiqlol baxsh etganligi ayon. “Istiqlol navnihollari, chechaklari va mevalari bo‘lmish aziz uka-singillarim uchun bizning bolalik davrimizdagi ko‘p holatlar, gaplar va manzaralar, qanday maktablarda o‘qib, qanday sharoitlarda yashaganimiz, albatta, cho‘pchak-latifa bo‘lib tuyulishi, tabiiy”(I, 376). Bu satrlar mag‘zida o‘tmish bilan bugunning muqoyasasida shoir bolaligi o‘tgan yillar bilan hozirgi mustaqillik yillarida jonajon O‘zbekistonimiz qiyofasi, manzarasi orasida osmon bilan yerchalik farq borligini his etish mumkin. Essening “Birinchi so‘z” qismida ilk ijod sehri, murg‘ak bola qalbiga she’r ilhami zavqini solgan omillar, bolalikning o‘chmas xotiralari, onaga bo‘lgan buyuk mehr o‘z ifodasini topgan. Xotiralar nasrda yozilgan bo‘lsa ham, she’r kabi o‘qiladi, kishi qalbiga she’r zavqini soladi. Satrlar qa’ridan musiqiy sado kelgandek bo‘ladi, bolalikning har bir nurli xotirasi haqida aytilgan gaplar yurakni orziqtirib yuboradi: “O‘t-o‘tin, o‘choq-olov, tandir-non, yana o‘t, yana o‘tin-bolaligim mana shu aziz va qadrdon so‘zlar qurshovida o‘tdi. O‘tinim, o‘tinlarim –bolalik o‘tinchlarnim, o‘smirlilik o‘kinchlarnim” (I, 380) kabi tasvirlarda publitsistik ruh ifodasini kuzatamiz.

Munaqqid I.G‘afurov “Noyob so‘zlar poeziyasi” maqolasida ijodkorlar so‘z boyligining ortib borishidagi bir ijodiy tajriba haqida e’tiborli fikr bildirgan: “Ijodkorlarda kam qo‘llanilgan yoki umuman, tilning jonli amaliyotidan qolgan, iste’moldan chiqib ketgan deymiz yoki noyob shevalardagina yashayotgan so‘zlarni matn muxoraba maydoniga olib kirishga kuchli mayllar, ishqibozliklar – o‘z badiiy lafz olamini boyitish, jozibali qilishga intilishlar badiiy mahoratning bir ko‘rsatkichi sifatida amal qilib keladi”.<sup>116</sup> Sirojiddin Sayyid ijodida ham ayni xilni kuzatish mumkin. Esseda *chola* – qo‘ra, *shoxavr* – sel, yomg‘ir, *nimtana* – qalin olacha matodan tikiladigan ayollarning yopinchig‘i kabi shevaga xos so‘zlar qo‘llanilgan. Ular o‘z o‘rnida ishlatilgani sabab matnga singib ketgan va ma’lum estetik vazifa bajargan. “Yangi daftar va siyoh isi. Yillar va egatlar”, “Mehnat imtihoni. Birinchi maosh”, “Budapesht. Budapesht!”, “Chayladagi oq bulut” kabi boblarda ham ulg‘ayish yillari, hayot sinovlaridan saboqlar chiqarib, oldinga intilishning zavqi, sururi, ulardan olingan taassurotlarning mahsuli – falsafiy mushohadalar o‘ziga xos, ravan, sodda berilishi asar qimmatini oshirishga xizmat qilgan. “Asragil” (Tabiat daftariga bitiklar) bobi kishi qalbini larzaga solish xususiyatiga ega. Unda tabiat jarohatlaridan dahshatga tushgan shoir hayqirig‘i jaranglaydi. Bu uning sinfdosh do‘sti bilan uzoq vaqtdan keyingi uchrashuvi, ikki do‘stning bolalikni eslashi, ammo bugungi kunga kelib bolalikdagi beg‘ubor osmondan asar ham qolmaganligidan o‘kinch har qanday odamni tabiat taqdiri haqida jiddiy o‘ylashga majbur etadi.

Shoirning bolalik xotirotlarini o‘qiganingiz sari uning bolaligidagi murakkab sharoitlar bilan tanishasiz: “*Bu noningizni yemayman!*” *deganimda, qiyin, qabohat zamonlarning taxir zog‘ora nonlarini urib-urib yedirganlari ko‘zimga yosh, ko‘nglimga so‘z bergen bo‘lsa ajabmas...* *Bolalikdagi qancha matallar-u ertaklar esimdan chiqib ketdi, “Ko‘moch” deb atalmish u sehr-u sinoatning ta’mi bilan tafti, uning quvonchlaru-yu iztiroblari esa hamon men bilan. Bu mening shoirlik qismatimdagи onamning mehri bilan muhtojliklari qo‘rida pishgan, go‘dak chog‘larimdayoq ma’nisiga yetganim, anglaganim, fahmiga borib ong va*

<sup>116</sup> Faфуров И. Мангу латофат. 2-китоб. – Тошкент: SHARQ, 2008. – Б. 283.

*qalbimga joylaganim ilk yombi so'zim deb o'ylayman*"(I, 378). Shoir shu qiyinchiliklar uni shoiryurak qilib tarbiyalaganini yashirmaydi. U ta'riflagan o'choq, tandir, qumg'on-u qo'rlar – bular hammasi Vatanning timsollari.

Shoirning bu kechinmalari zamirida murakkab hayotni, bolalik xotiralari asosida shakllantirish, bugungi yoshlarning go'zal hayoti va turmushini anglash, his etish, shu bilan bir qatorda, Istiqlol bergen ne'matlarning go'zalliklarini, hayotning davomiyligi-yu, uning o'zgarishlari bilan bir qatorda, kechagi kunni ham unutmaslikka undaydi. Shoirning qalb iztiroblari bejiz emas, hayotni anglash bilan birqalikda tasavvur qilish, bugungi kunning ulug'ligini, uning inson qadri, mohiyatini anglashga bo'lgan intilishlarining mahsulidir. Qayd qilingan qiyoslardan anglashiladiki, davr, muhit insonni tarbiyalaydi, ammo o'sha og'ir, murakkab sharoitda ham shoirning so'z qudratini anglashi bejiz emas edi.

**“Bolalikning davlat madhiyasi”** – “*Hovlimizda – o'choq, tandir, yog'och so'ri, o'tinxona va og'ilxona oralig'ida, tomorqamiz bilan oshxonamiz o'rtasida erta tongdan to kechga qadar, yil o'n ikki oy katta bir ro'zg'or-mamlakatning qizg'in hayoti davom etar, bu mamlakatning tinchi, osh-non, issiqsovug'ini ta'minlab turish otamning zimmasida, uning saranjom-sarishtaligiga esa onam kayvoni edilar*” (I, 380). Bu timsollar orqali Vatanning timsollari kengaya boradi. Ular Vatanning bir uzvi sifatida gavdalanadi. Uning har bir bolalik xotirasida Vatanning aksi yaqqol ko'zga tashlanadi. Shuning uchun ham, Vatan oiladan-ostonadan boshlanadi, – deyilgani ayni haqiqat.

Sirojiddin Sayyidning publisistik asarlari bir qaraganda, bolalik xotiralari bilan uzviy birlikda namoyon bo'ladigandek, taassurotni uyg'otsa-da, ammo Vatanning ulug'ligini, uning azizligini oiladan boshlab anglash lozimligini ham teranroq his etishga undaydi. Shoirning asarlari orqali davrning murakkab, ammo achchiq haqiqatlari bilan tanishar ekanmiz, shoirning qalb iztiroblarini yana-da ko'proq anglay boshlaymiz. Murakkab davrning qarashlari, mafkuraviy tayziqlari, inson qadrini, uning mehnatini, bolalikning yorqin lahzalarini o'g'irlaganligining, yoshlikning go'zal oniy lahzalarini yillar shamoli uchirib ketganligining guvohi bo'lamiz.

Shoirning “**Yangi daftar va siyoh isi. Yillar va egatlar**”ida shunday asosli qarashlarni qayd etilganligini, bular bejiz emasligini anglay boshlaymiz: “Sinf rahbarimiz Ozoda opa sinfdosh qizchalarni bir qatorga tizib shunday ashula o‘rgatadi:

*Paxta ekomiz birga, terlar to ‘komiz birga.*

*Oltin terib Vatanga sovg‘a etomiz birga,*

*Ho-o-o,*

“*Sovg‘a etomiz birga*”. (I, 396)

Shoir publitsistikasidagi jo‘shqinlik, ohangdorlik, uning qalb iztiroblari sifatida otilib chiqadi, kitobxon qalbini larzaga soladi. Shunday lahzalarda ham milliy qadriyatlarni unutmaslikka, uning qadrini anglashga ehtiyoj tuyadi.

Shoirning “**Men ketarman ayta-ayta oxiri...**” maqolasida “*Tog‘ so‘qmoqlariday uzun qancha dostonlar aytib, buloqlar suviday tiniq baytlar so‘ylab, el-ulus ko‘ngliga she’riy daryolarni joylashtirgan*” Vahob shoir haqida so‘z yuritib, uning vatanparvar shaxs, xalqparvar shoir ekanligini ta’kidlaydi. “*Uning jonli-tirik devonlari shu xalq edi... Xalqona, dardchil va samimi sheshe’r-u dostonlari el ko‘nglining javonlaridan joy olgan edi*” (II, 391) deya ta’riflaydi. Shoir yurtidan chiqqqan har bir shoirini, oqinini, merganini, cho‘ponini qadrlaydi. Bularning zamirida Vatanga, uning qadriyatlariga bo‘lgan muhabbatning mujassami o‘z ifodasini topgan.

“**Jevachining o‘g‘li**” publitsistik maqolasida xalq orasidan chiqqan Nusratillo jevachining o‘g‘li Sa’dulla mergan haqida hikoya qiladi. Shu kichik hikoya orqali Sirojiddin Sayyid qishloqdoshi jevachining o‘g‘li, Vatan yo‘lida shahid ketgan Valibeklar hayoti misolida butun millat qismatini, yurt taqdirini, davr ruhini aks ettiradi. Vahob shoirning Valibekka atab yozgan marsiyasini keltiradi:

*Tanangda Zarnigor jomang, Valibek,*

*Eranlar yo‘llagan nomang, Valibek.*

*Qiyin ishlarni tindirgan Valibek,*

*Musulmonlikka ko‘ndirgan Valibek...*

Misralardagi soddalik inson qismatini, uning taqdirini Vatan mavzusi bilan uzviylikda his ettiradi. Shoirning qalb qa’ridagi iztiroblari, anglagan haqiqatlari, yillar davomidagi saboqlari Vatanni anglash, uni anglash uchun o‘zligini, ma’naviy olamini boyitish zarurligi alohida qayd etiladiki, bu ijodkorning publitsistikadagi badiiy mahoratini ham namoyon etganligi bilan izohlanadi.

Shoirning “**Ey, menga daryoday dil bergen Vatan**” maqolasidagi quyidagi satrlarga diqqat qilaylik: “*Otam aqlimizni tanigandan boshlab bir umr shu so‘zlarini takrorlab o‘tdi: “Bolam, men bormanmi, yo‘qmanmi, bobongning Vatanini obod qilinglar”*” (III, 490). Maqola shu so‘zlar bilan boshlanadi. Bu fikrlar ajdodlardan yangrayotgan aks-sado yanglig‘ eshitiladi. Shoir Oybibi momoning, ya’ni momosining “*Bolalarim, qayda yursanglar ham Vatanlaringga qaytinglar!*” degan so‘zlarini ham qayta-qayta eslaydi.

Xalqimizda o‘z hovlingni, ko‘z ochgan tuprog‘ingni, bolaliking kechgan, har bir qarichi qadrdon bo‘lib ketgan xonadoningni Vatan deb atash azaliy qadriyatga aylangan. Kimki oilasi uchun xalqona tarzda aytganda, boshpanasiga ega bo‘lar ekan, u o‘z Vataniga ega bo‘ladi. Ota o‘gitidagi Vatan va Oybibi momo ta’kidlagan Vatanda ana shu kichik Vatan nazarda tutilgan. Tom ma’nodagi Vatan axir ostonadan boshlanadi. Taqdir taqozosi bilan siz qayerda yashasangiz yoki umr kechirsangiz o‘sha siz tug‘ilgan ma’vo va sizga Vatanni tanitgan ostona yuragingiz tubida yashaydi. Dil tubidagi shu’la yanglig‘ nur sochib turgan xonadonni, bog‘ni, bo‘sag‘ani unutib bo‘ladimi?! Ular tushlarimizga kirib chiqadi... Oppoq tonglardan mujda beradi. Eng go‘zal tuyg‘ular doyasi, avvalo, Vatan. Ijodkor qalbi esa doimo teran tuyg‘ular bilan tirik.

Shoir yuragiga Vatan tuyg‘usini singdirgan asl muqaddas so‘zlar haqida so‘z yuritadi. Mamasaid bobosidan qolgan katta bog‘ni “*Vatan – bog‘; bog‘ – Vatan*” deb ta’riflaydi. Bu xotiralarida ham Nusratillo jevachi va uning o‘g‘li Sa’dulla mergan ularning mardligi, jasoratidan so‘zlaydi. “*Vatan bobo*”, Usta Tojiddin, Bekmirza malimlar haqida yozadi. Bularning bari bir tushuncha – Vatan tushunchasi atrofida birlashadi.

“Vatanni o‘rganish” maqolasida Sirojiddin Sayyid o‘z yurti Surxondan chiqqan ulug‘ adib Shukur Xolmirzayev haqida so‘z yuritadi. Uning asarlari “harorati” haqida yoza turib, uning “nasridagi bir yo‘nalish – yurt, Vatan, ona tuproq mavzusining yuksakligi, adib bu mavzuni butun umri davomida bo‘lakcha mehr va sinchkovlik bilan ifodalagani”ni e’tirof etadi.

Buyuk Vatanning buyuk ijodkorlari uning qalbiga ilk “cho‘g”ni solganligini, uning sarhadlari ila shu darajaga yetganligini his eta boshlaymiz. “*Yosh, tajribasiz bo‘lishimizga qaramasdan “O’n sakkizga kirmagan kim bor” asaridan ko‘proq ta’sir etgan, bizning Vatan, tarix, adabiyot haqidagi tasavvur va bilimimizni tom ma’noda ag‘dar-to‘ntar qilib bergen mo‘jazgina “Qadim Baqtriya tuprog‘ida” esse-hikoyasini misol keltirish mumkin*” (III, 561). Sirojiddin Sayyid qalbida Vatanga cheksiz muhabbat sabab uni boshqa mavzudagi asarlardan ko‘ra kindik qoni to‘kilgan tuproq, uning tarixi qiziqtiradi.

Shoir bu essedan olgan taassurotlarini, hayratlarini yashirmaydi va mahorat bilan bizga yetkazadi: “*Biz mana shu Vatanni – Shukur akamiz yurak qoni-yu umrini sarflab, sog‘ligi bilan oilaviy farog‘ati, dunyo hashami-yu rohatidan kechib butun hayotini baxsh etgancha so‘zma-so‘z, betma-bet, tepama-tepa yozib qoldirgan shu aziz, sersog‘inch Vatanni o‘rganmoqqa kirishdik*”. Vatanni bobosining o‘gitlaridan, Oybibi momosi aytgan qo‘shiqlardan, onasi pishirgan ko‘mochlardan, otasi chekkan zahmatlardan anglay boshlagan shoir Shukur Xolmirzayevning Vatanga bu qadar yuksak muhabbatidan, hattoki yurting siniq sopolini-da ulug‘laganidan qattiq ta’sirlanadi, Vatanni o‘rganishga ahd qiladi. Buni shoirning “Vatanni o‘rganish”, “Ustodi avval” kabi ko‘plab she’rlarida ko‘rishimiz mumkin. Shukur Xolmirzayevdan ta’sirlanish o‘laroq, Sirojiddin Sayyid Vatanning xor-u xasini-da muqaddas biladi.

Haqiqatan, Shukur Xolmirzayev uchun Surxon va Boysun dunyoda tengi yo‘q yurt. Uning har bir qarich tuprog‘i tarix, har bir toshi moziydan yodgorlik. Tabiatini tasvirlab yozgan publitsistik asarlari Vatanning timsoliy qirralari. Aytish mumkinki, bular hammasi hali o‘z tadqiqotchilarini kutmoqda. Sirojiddin Sayyidning ushbu maqolasiga ham shunday tadqiqotlardan biri sifatida qaralsa

arziydi. Shukur Xolmirzayev ijodini o‘rganish va uning biografiyasiga murojaat qilish, tadqiqotga tortish adabiyotshunosligimizning eng muhim vazifalaridan biri.

Sirojiddin Sayyidning yana bir nasriy asari – “**Vatan bo‘lmas Vatandan tashqarida**” maqolasi shoirning ijodkor sifatida pozitsiyasi, yuksak ijodiy ideali, eng muhim va yetakchi estetik qarashlarini o‘rganish va ularga baho berishda muhim ahamiyatga ega. Maqola yosh kitobxonlar bilan “Online Video” muloqot darsi asosida yuzaga kelgan va Xalq ta’limi vazirligiga qarashli Multimedia umumta’lim dasturlarini rivojlantirish markazi binosida bo‘lib o‘tgan. Unda Qoraqalpog‘iston Respublikasi, barcha viloyatlar, Toshkent shahri maktablari o‘quvchilari, mamlakat Axborot-resurs markazlari faol a’zolari ishtirok etishgan.

Online video muloqotda uning ishtirokchilari O‘zbekiston Xalq shoiri Sirojiddin Sayyidga o‘zlarini qiziqtirgan savollar bilan murojaat qilishgan. Savollarning ko‘pchiligi badiiy ijod sehri, ijodkor zimmasidagi mas’uliyat, Vatan, ona yurtga muhabbat tuyg‘ularini she’riyatda aks ettirishdagi muvaffaqiyatlar siri, bugungi milliy adabiyotimizdagи asosiy tamoyillar nimalarda namoyon bo‘layotgani to‘g‘risida bo‘ladi. Bu savollarga shoir Sirojiddin Sayyid jonli misollar asosida bat afsil javob berishga harakat qilgan.

“Kundajuvoz qishlog‘i haqida ko‘p yozgansiz. “Kundajuvoz” so‘zining ma’nosini aytib bersangiz” degan savolga javob berar ekan, bolalik xotiralari, otabobolaridan eshitgan uzoq tarix hikoyalar shoir yodiga quyilib keladi: “*Navro ‘zboy otlig ‘ davlatmand bobokalonimiz ko‘p chorva-qo‘ylari bilan Samarqanddan kelib, shu betakror ma’voni Vatan qilgan degan gurunglarni momolarimizdan ko‘p eshitganmiz... Vajjak degan darada Quyi Dushoxning etagida Mamasayid bobomning katta bog‘i bor. ... Kundajuvoz Qadim qishloq. Ma’nosi suv tegirmon, juvoz, juvozning kundasi bilan bog‘liq. Moyjuvoz bilan ham aloqador jihatlari bor*” (IV, 510). Bu fikrlar nihoyatda samimiylar va har qanday kishida o‘z Vataniga, tug‘ilib o‘sgan yurtiga muhabbatini alangalatadi, uning tarixini bilishga undaydi.

Sirojiddin Sayyidning nasriy asarlari uning ijodiy kamolot yo‘lida olib borayotgan izlanishlari samarasi bo‘lib, Vatanning yuksak poetik obrazini yaratishdagi iste’dodining yana bir qirrasini namoyon etgan.

Sirojiddin Sayyid ijodining ma'lum bir qismini tashkil etuvchi publitsistik asarlarida Vatan tushunchasi, uning mohiyati sodda, ammo fikr va tuyg'uning yaxlitligini, olam va odamning anglash tamoyillari asosida yuzaga chiqqanligini alohida qayd etish mumkin. Shoir publitsistikasidagi qarashlar, tushunchalar, obrazlilik va badiiy obrazning o'ziga xos tamoyillari, ijodkorning badiiy mahoratidan dalolat bergen.

Shoirning publitsistikasidagi talqinlar, mavzu ko'laming barchasi insoniyatni, Vatanni anglash tamoyillariga asoslanganligini ko'ramiz. Chunki shoirning ilk bolalik xotiralari mujassamlashgan publitsistik asarlaridan tortib, Vatanni, dunyoni anglashga bo'lgan jarayonlarining asosida ijodkor fantaziysi, hayotni his etish tamoyillari mujassamlashganligini kuzatish mumkin.

Badiiy adabiyotda (ayniqsa, she'riyatda) timsollar orqali Vatan obrazini yaratib, kitobxonda juda katta taassurot qoldirish asnosida muddaoga erishsa, publitsistika ham hujjatlar vositasi, real voqelik va subyektiv imkoniyatlar bilan shu maqsadga intiladi. Adabiyot va publitsistikaning quroli so'z ekan, bu vobastalik qo'shganot bo'lib yashayveradi. Ayni holatni Sirojiddin Sayyid ijodi misolida tahlil va tadqiq qilishda kuzatdik.

### **UCHINCHI BOB BO'YICHA XULOSALAR**

1. Badiiy adabiyotga qadam qo'ygan har bir ijodkorning o'z qarashlari, poetik talqinlari mavjud bo'ladi, bu esa uning tafakkur dunyosidan, olamni anglash va badiiy talqin etish mahoratidan dalolat beradi. Sirojiddin Sayyidning dunyoqarashi, tafakkuri, olam va odamni anglashdagi ijodiy konsepsiysi individual uslubini namoyon etishga xizmat qilgan.

2. Shoir ijodining individualligi shundaki, unda ham xalqonalik, ham tarixiylik, ham falsafiylik talqinlari mayjud. Birgina ijodkorda uslubning bir necha qirralari mavjudligi uning yuksak badiiy mahoratidan darak beradi. Bu uslublar umumlashmasi Vatan obrazini yoritishda ijodkorning serqirraligini namoyon etgan.

3. Shoir publitsistikasidagi o‘ziga xos tasvir an’analarining badiiyligi shundan dalolat beradiki, Vatanni anglash tamoyillari oiladan, ostonadan boshlanishiga urg‘u berilishi va undagi talqinlarning jo‘shqinligi, obraz yaratishdagi, tushuncha va talqinning dialektik birligining namoyon etilishi ijodkorning bu janr taraqqiyotidagi o‘rnini ham asoslaydi.

4. Sirojiddin Sayyidning publitsistikasida tushuncha va obraz, hayot voqelagini o‘ziga xos badiylashtirish jarayonlarining barchasi, insonning, kitobxonning o‘zligini anglashga bevosita xizmat qilishi ham asoslandi. Buning asosida milliy qadriyatlar birgalikda davr ziddiyatlari ham badiylashtirilgan.

## UMUMIY XULOSALAR

Sirojiddin Sayyid she'riy va publitsistik ijodini, undagi poetik obraz, xususan, Vatan obrazining tasvir masalalarini tadqiq qilish bo'yicha olib borgan tadqiqtomiz natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Istiqlol davri adabiyotida barcha zamonlarda kuylangan Vatan, ozodlik, mustaqillik mavzulari yanada dolzarb ko'rinish olganligi, Sirojiddin Sayyid ijodida Vatan, millat, hurriyat, tarix, ajdodlar jasorati, yurtga sodiqlik mavzulari, ayniqsa, bo'rtib ko'rinishi, Vatanning poetik obrazi, ona-yurt tushunchalarining betakror tasvirlari shoir she'riyatida yangicha ifodasini topganligi, Erk, Vatan, millat kabi umuminsoniy tushunchalari shoir lirikasiga chuqur mazmun-mohiyat bag'ishlab, poetik mushohada ijtimoiy voqelikni his qilish hamda tasvirlashda o'ziga xoslik kasb etishi, poetik idrok, undagi obraz va tasvirlar uyg'unligi shaxs va Vatan tushunchalarini ruhan yaqinlashtirgani ochib berilgan.

2. Xalq og'zaki ijodining turli janrlarida insoniyatning qarashlari, orzu-umidlari mujassamlashgan. Shuningdek, ularda insonning hayotiy kechmishi, orzu-umidlari, dard-alamlari bilan birga yurtga sadoqat, uni asrab-avaylash, dushmanidan himoya qilish, mardlik va jasorat tuyg'ulari teran badiiy ifodasini topgan. Xalq orasida tarqalgan dostonlar, qo'shiqlar, rivoyat va afsonalar, maqol va matallar hamda ilk yozma manbalar insoniyat badiiy tafakkuri tarixi uzoq davrlarga borib taqalishini tasdiqlashi yoritilgan.

3. Xalq og'zaki ijodi va mumtoz an'analardan oziqlangan XX asr she'riyatida Vatan tushunchasining badiiy talqini o'z mukammaligini namoyon etib keldi. Iste'dodli shoir Sirojiddin Sayyid ijodida bu mavzuning turli tashbehlardagi badiiy talqini o'z ifodasini topgan. Shoir she'riyatida Vatan mavzusining turfa rangin bo'yoqlarda tasvirlanishi, lirk qahramonning tuyg'u-kechinmalarida yanada teranlashganligini kuzatishimiz mumkin. Xalq og'zaki ijodidagi dostonlar, ertak-u rivoyatlarni eshitib ulg'aygan shoir ijodiga poetik talqin nuqtayi nazaridan ham sezilarli ta'siri kuzatildi.

4. Har bir davr uchun xos bo'lган adabiy an'analarga izdoshlik, janrlarning shakliy-mazmuniy yangilanishi, g'oyaviy-badiiy jihatdan boyishida an'ana va

yangilanishlarning uyg‘unlashuvi Sirojiddin Sayiid she’riyati uchun ham xos. Shoир she’riyati an’anaviylik asosida shakllanar ekan, uslubi, poetik obraz yaratish mahorati, ramzlar silsilasi va milliy an’analar qatidagi yangicha bir ko‘rinishlarda namoyon bo‘lishi, tabiiydir. An’anaviylik milliylikka asoslangan vorisiylikning har bir davr uchun ijodiy o‘ziga xosligini dalillaydi.

5. Mumtoz adabiyotimizning yetuk vakillari Mahmud Koshg‘ariy, Yusuf xos Hojib, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur ijodida Vatan va vatanparvarlik g‘oyalari keng tarannum etilgan. Sirojiddin Sayyid ular asarlarini o‘ganib, ijodiy o‘zlashtirib, Vatanning poetik tasvirini yoritishda mumtoz adabiyotimiz namoyondalari g‘oyalariга hamohang badiiy mukammal asarlar yaratgani, to‘rt jildlik “Asarlar”ining har bir jildida aruz vaznida yaratilgan she’rlar o‘rin olgani, shoирning mumtoz adabiyot an’analarini munosib davom ettirib kelayotgani tahlilga tortildi.

6. O‘tgan asr adog‘idagi qarashlar, tafakkurdagi evrilishlar olam va odamnigina emas, globallashuv jarayonidagi hayotni anglash imkonini ham yaratdiki, bu jahon she’riyatidagi turfa talqinlarning keyingi yillar she’riyatiga singdirilishi, bu poetik talqinlardan Sirojiddin Sayyid ham sezilarli darajada “oziqlangan”ligi, shoирning tarjimonlik mahorati, tarjima asarlaridagi Vatan tasvirining shoир ijodi bulan uyg‘unlashuvi va adabiy ta’sir masalalari bir qator jahon shoirlari ijodi misolida qiyoslash natijasida tahlil etilgan.

7. Sirojiddin Sayyid she’riyatida poetik shakl va mazmunning ifoda birligi, uning tasvirdagi o‘ziga xos tamoyillari haqidagi tushunchalarda, shakl va mazmun dialektik birligi ijodkorning badiiy poetik mushohadaning o‘ziga xos qirralarini ochishga xizmat qiladi. Shoир ona-Vatanga bo‘lgan samimiyl his-tuyg‘ularini, muhabbatini badiiy ifoda etishda mumtoz she’riyatga xos lirkjanrlardan samarali foydalangan. U mumtoz lirikaning g‘azal, muxamma, masnaviy, fard janrlaridan, zamonaviy she’riyatda vujudga kelib, milliy lirkada ommalashayotgan doston, qasida, to‘rtlik kabi janrlar; beshlik, otilik, sakkizlik, o‘nlik kabi she’riy shakllardan mahorat bilan foydalanib, ular vositasida Vatan ulug‘vorligi va undagi

olijanob insonlar qalb olamining rang-barang xususiyatlarini san'atkorona tasvirlagan.

8. She'rshunoslikda lirik qahramon ruhiyati tasvirida poetik obraz tushunchasi muhim ahamiyat kasb etadi. Badiiy mazmunni shaklga mos tarzda ifodalash ham Vatan mavzusining poetik obraz darajasiga ko'tarilishidagi ijodkor mahoratini namoyon qiladi. Sirojiddin Sayyid ijodida "bug'doy", "o'choq", "qumg'on", "so'ri", "gulxan", "daraxt", "makon", "suruv", "ayvon" kabi narsa, buyum, tushunchalar bilan bog'liq obrazlar va detallar lirik qahramon tuyg'ularini ifodalashda ma'lum vosita vazifasini o'taydi. Birgina Vatan turli timsollarda: "*sigir sog'ayotgan ayol*", "*xayol surayotgan kelin*", "*beshikda yotgan bolalar*", "*yangi ko'ylak kiygan qizaloq*", "*unib chiqqan ismaloq*", "*olisga termulgan tol*", "*dasht-u qirlardagi lolalar*", "*sokingina yonayotgan gulxanlar*", "*Yor-yor"lar ham o'lanlar*"da ifodalanishini ko'rishimiz mumkin.

9. Sirojiddin Sayyidning badiiy mahoratini yuzaga chiqaruvchi xarakterli jihat, bu – ijodkor induvudual uslubining o'ziga xosligidir. Uning ijodiy uslubida ko'zga tashlanadigan xalqona ifoda tarzi, poetik tasvirning yuqori pafosda kuylanishi, she'riyatida mumtoz va jahon an'analarining uyg'unlashuvi shoir ijodining original va betakrorligini ko'rsatadi. Shu bilan birga hayot voqeahodisalarini chuqur mushohada qilish, hissiy kechinmalarning sodda ifodasi Sirojiddin Sayyid individual uslubining bosh belgisi sifatida ko'zga tashlanadi.

10. Sirojiddin Sayyidning publitsistik asarlariidagi Vatan mavzusining badiiy ifodasida ham bolalik xotiralari bilan yo'g'rilgan qarashlar bilan birgalikda, davr va muhit xususiyatlarini ochib berishga qaratilgan hayotiy kechinmalar mujassamlashganligi asoslandi. Har bir davrning mafkuraviy qarashlariga xos poetik talqinlarning yuzaga kelish sabablari ko'rsatib berildi. Shoir publitsistikasining yetakchi xususiyatlari, mazmun-mohiyati o'quvchini hayotga teran nigoh tashlashga undaydi. Shu bilan birga o'zlikni anglash, ona zaminga bo'lgan muhabbat, Vatan oldida mas'uliyatli bo'lish kabi fazilatlardan bahs etadi. Uning publitsistikasi bugungi kitobxonning tarix haqidagi mushohadalarini, fikr-

qarashlarini, tushunchalarini boyitish bilan bir qatorda, mustaqil Vatanning mohiyatini, buguni va ertasini anglashga qaratilgani bilan ahamiyatlidir.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

### **I. Normativ-huquqiy hujjatlar va metodologik ahamiyatga molik nashrlar:**

1. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан қурамиз. – Тошкент: “Ўзбекистон” НМИУ, 2017. – 488 б.

2. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргалиқда барпо этамиз. – Тошкент: “Ўзбекистон”, 2016. – 56 б.

3. Мирзиёев Ш.М. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш – юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. – Тошкент: “Ўзбекистон”, 2017. – 48 б.

4. Мирзиёев Ш.М. Китоб маҳсулотларини чоп этиш ва тарқатиш тизимини ривожлантириш, китоб мутолааси ва китобхонлик маданиятини ошириш ҳамда тарғибот қилиш бўйича комиссия тузиш тўғрисида // Президент Фармони. / Халқ сўзи, 2017 йил 13 январь. – №9. – Б.1.

5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Қарори. Китоб маҳсулотларини нашр этиш ва тарқатиш тизимини ривожлантириш, китоб мутолааси ва китобхонлик маданиятини ошириш ҳамда тарғиб қилиш бўйича комплекс чора-тадбирлар дастури тўғрисида. 13.09.2017 й. ПҚ-3271

### **II. Ilmiy-nazariy adabiyotlar**

#### **1) Milliy nashrlar**

6. Арасту. Поэтика. -Тошкент: Faafur Fulom nomidagi adabiёт va san'at nashriёti, 1980. – 60 б.
7. Белинский В.Г. Адабий орзуладар. –Тошкент: Адабиёт va санъат nashriёti, 1979. – 262 б.
8. Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари. – Тошкент: Ўзбекистон, 2002. – 560 б.

9. Болтабоев Ҳ. Шарқ мумтоз поэтикаси. Манба ва талқинлар. – Тошкент: “Ўзбекистон Миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2006. – 300 б.
10. Boynazarov F. Jahon adabiyoti. – Toshkent: “Musiqा” nashriyoti, 2006 – В. 160.
11. Вохидов Э. Шоиру шеъру шуур. –Тошкент: Ёш гвардия, 1987. – 160 б.
12. Давронова М. Ҳозирги адабий жараёнда услугуб поэтикаси. Монография. – Тошкент: Наврӯз, 2019. –136 б.
13. Добролюбов Н.А. Адабий-танқидий мақолалар. –Тошкент, 1959. – 468 б.
14. Дониёрова Ш. Ижодкор ва услугуб. –Тошкент: Турон замин зиё, 2014. – 88 б.
15. Ёқубов Ҳ. Ўзбек прозасида услугуб ранг-баранглиги // Ўзбек адабиётида жанрлар типологияси ва услублар ранг-баранглиги. – Тошкент: Фан, 1983. - 173 б.
16. Жабборов Н. Мезон. Замон. Мезон. Шеърият. – Тошкент, Fafur Fулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 2015. – 304 б.
17. Жаббор Э. Миф ва бадиий тафаккур. –Тошкент, Фан, 2019. – 312 б.
18. Жамол Камол. Лирик шеърият. –Тошкент: Фан, 1986. – 143 б.
19. Жирмунский В.М. “Алпомиш ҳақида эпик достон ва Гомернинг “Одессея”си// “Алпомиш” – ўзбек ҳалқ қаҳрамонлик эпоси. – Тошкент: Фан, 1999. – 63-70-6.
20. Жуманазаров У. Халқ прозаси ва ижтимоий тарихий ҳаёт. Ўқув қўлланма. – Жиззах: Сангзор, – 2006. –180 б.
21. Жуманазаров У. Жасорат ва садоқат талқини. – Тошкент: Фан, 2002. – 168 б.
22. Жуманазаров У. Тарих, афсона ва дин. – Тошкент, 1990. – 230 б.
23. Жуманазаров У. Эргашев А. Бахшичилик санъати ва достончилик мактаблари. Ўқув қўлланма. – Тошкент: “Innovatsiya-Ziyo”, 2021. – 101 б.

24. Жуманазаров У. Эргашев А. Бўстонлардан аъло ўзинг бир бўстон. Монография. – Тошкент: “Innovatsiya-Ziyo”, 2021. – 135 б.
25. Жўрақулов У. Назарий поэтика масалалари. – Тошкент: Faafur Fулом номидаги нашриёт-матбаа уйи. 2015. – 356 б.
26. Исаковский М. Поэзиянинг “сир”и ҳақида. //Бадиий ижод ҳақида. – Тошкент: Faafur Fулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1960. – 238 б.
27. Исоқов Ё. Сўз санъати сўзлиги. – Тошкент: Ўзбекистон, 2014. – 304 б.
28. Йўлдошев Қ. Ёниқ сўз. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2006. – 488 б.
29. Йўлдошев Қ. Сўз ёлқини. – Тошкент: Faafur Fулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2009. - 504 б.
30. Каримов Б. Руҳият алифбоси. – Тошкент: Faafur Fулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи. 2008. – 364 б.
31. Каримов Н. XX аср адабиёти манзаралари. Биринчи китоб. – Тошкент, Ўзбекистон, 2008. – 228 б.
32. Каримов Н. Шеърий шакллар ва услубий йўналишлар// Ўзбек адабиётида жанрлар типологияси ва услублар ранг-баранглиги. – Тошкент: Фан, 1983. – 193 б.
33. Каримов Ҳ. Истиқлол даври адабиёти. Дарслик. – Тошкент: “Янги нашр”, 2010. – 364 б.
34. Каримов Ҳ. Истиқлол даври шеърияти. – Тошкент: Зарқалам, 2005. – 128 б.
35. Мамажонов С. Ранглар ва оҳанглар. – Тошкент: Faafur Fулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1978. – 238 б.
36. Маҳмудов М. Талант ва ижод фалсафаси. – Тошкент: Faafur Fулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1976. – 288 б.
37. Мели Сувон. Сўзу сўз. “Адабиёт фалсафаси”га чизгилар. – Тошкент: Шарқ, 2020. – 528 б.
38. Мирзаев Т. Силсила достонлар. Гўрўғли. Ўзбек халқ достонлари. Айтувчи Раҳматилла шоир Юсуф ўғли. – Тошкент: Шарқ, 2006. – 334 б.

39. Норматов У. Ижод сеҳри. – Тошкент: Шарқ, 2007. – 352 б.
40. Расулов А. Бадиийлик – бозавол янгилик. – Тошкент: Шарқ, 2007. – 336 б.
41. Расулов А. Танқид, таҳлил, баҳолаш. – Тошкент, Фан. 2006. – 240 б.
42. Раҳимжонов Н. Истиқлол ва бугунги адабиёт. – Тошкент: Ўқитувчи, 2012. – 328 б.
43. Раҳимжонов Н. Бадиий сўз эстетикаси. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт- матбаа ижодий уйи, 2017. – 236 б.
44. Раҳимжонов Н. Мустақиллик даври шеърияти. – Тошкент: Фан, 2007. – 259 б.
45. Раҳмон Н. Турк ҳоқонлиги. Тошкент: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 1993. – 168 б.
46. Саримсоқов Б. Бадиийлик асослари ва мезонлари. – Тошкент: BOOKMANY PRINT, 2022. – 252 б.
47. Собиров О. Ойбек ижодида фольклор. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1975. – 104 б;
48. Солижонов Й. Лирика нафосати, насрнинг назокати. (Адабий-танқидий мақолалари). – Тошкент: Адабиёт учқунлари, 2018. – 268 б.
49. Сувонова Ж. Усмон Азим шеъриятида бадиий тафаккур. – Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2021. – 136 б.
50. Султон И. Адабиёт назарияси. 2-нашри. – Тошкент: Ўқитувчи, 1986. – 408 б.
51. Тоғаев О. Ўзбек бадиий публицистикаси. Назария ва маҳорат масаласи. – Тошкент: Фан, 1973. – 210 б.
52. Тўйчиев У. Ўзбек адабиётида бадиийлик мезонлари ва уларнинг маромлари. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2011. – 394 б.
53. Тўраев Д. Рангин тасвирлар жилоси. Адабий-танқидий мақолалар. – Тошкент: Академнашр, 2014. – 186 б.

54. Тўхлиев Б. Юсуф Хос Ҳожибнинг бадий маҳорати. – Тошкент: 2005. – 120 б.
55. Умуроғ Ҳ. Адабиёт назарияси. – Тошкент: “SHARQ”, 2002. – 116 б.
56. Умуроғ Ҳ. Тирик шеърлар поэтикаси. – Тошкент: Наврӯз, 2015. – 128 б.
57. Умуроғ Ҳ., Носиров А. Адабиётшунослик назарияси. Дарслик. – Самарқанд: СамДУ нашри, 2021. 270 б.
58. Умуроға Г. Шоира Зулфиянинг бадий олами. Монография. – Тошкент: Наврӯз, 2014. – 100 б.
59. Ўзбек фольклори очерклари. Уч томлик. Иккинчи том. Тошкент: Фан, 1989. – 270 б.
60. Ўзбек халқ оғзаки поэтик ижоди. Тошкент: Ўқитувчи, 1990. – 128 б.
61. Холова М. Ўзбек модерн шеърияти: тарихи ва назарияси. – Тошкент: Муҳаррир, – 116 б.
62. Чернишевский В.Г. Таңланган адабий-танқидий мақолалар. – Тошкент: 1956. – 451 б.
63. Шарипова Л. XX асрнинг 70-80-йиллари ўзбек шериятида фольклоризмлар. – Тошкент: Фан, 2011. – 138 б.
64. Шарипова Л. Шеърият ва фольклор. XX асрнинг иккинчи ярми ўзбек шеърияти мисолида. – Тошкент: Наврӯз, 2019. – 204 б.
65. Шукуров Н. Ғафур Ғуломнинг поэтик маҳорати. Монография. – Тошкент: Фан, 1966. – 144 б.
66. Якубов И. Бадиий-эстетик сўз сехри. – Тошкент: 2011. – 588 б.
67. Қаюмов А. Асарлар. 10 жилдлик. 10-жилд. Қадимият обидалари. – Тошкент: MUMTOZ SO‘Z, 2010. – 232 б.
68. Қаҳҳор А. Ёшлилар билан сухбат (нутқ, мақола, сухбат, тақриз ва ёзишмалар) — Тошкент: Ёш гвардия, -1968. – 144 б.
69. Қосимов Б. ва бошқ. Миллий уйғониш даври ўзбек адабиёти Тошкент: Маънавият, 2004 – 127 б.
70. Qobilov U. Nubuvvat motivi va mumtoz poetika. Monografiya. – Samarqand: SamDU nashri, 2019. – 158 b.

71. Куронов Д. Назарий қайдлар. –Тошкент: Академнашр. 2018. –128 б.
72. Куронов Д. Адабиётшуносликка кириш. Дарслик. – Тошкент, Фан, 2007. – 174 б.
73. Qosimov U. Adabiy-estetik tafakkur: A.Navoiy, A.Qodiriy, A.Qahhor, T.Murod. Monografiya. – Toshkent, 2023. – 180 b.
74. Qosimov U. Hayot va ijod saboqlari. Maqolalar, xotiralar, tarjimalar. – Toshkent: Oltin kitob, 2023. -356 b.
75. Кўчкорова М. Бадиий сўз ва руҳият манзаралари. – Тошкент: Мұхаррир, 2011. – 232 б.
76. Кўшжонов М. Ҳаёт – адабиёт кўзгусида. Адабий-танқидий мақолалар. – Тошкент: Fafur Fулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1985. – 221 б.
77. Faфurov И. Мангу латофат. Бадиалар, рисолалар. 2-китоб. – Тошкент: Шарқ, 2008. – 464 б.
78. Faфurov И. Ноёб сўзлар поэзияси. Мангу латофат. Бадиалар, рисолалар, 2-китоб. – Тошкент: SHARQ нашриёти, 2008. – 283 б.
79. Ҳақкул И. Ижод иклими. –Тошкент: Фан, 2009. –360 б.
80. Ҳақкулов И. “Хамса” бадииятига доир, “Алишер Навоий “Хамса”си (тадқиқотлар)”, Тошкент, “Фан” нашриёти, 1986. – 122 б.
81. Ҳақкулов И. Занжирбанд шеър қошида. Навоий сабоқлари. – Тошкент: Юлдузча, 1989. – 214 б.
82. Ҳамдамов У. Янги ўзбек шеърияти. –Тошкент: Мұхаррир, 2010. – 362 б.

## **2) Xorijiy nashrlar**

83. Альфонсов В. Поэзия Бориса Пастернака. – Л. 1990. – 172 с.
84. Античные теории языка и стиля : антология текстов Текст. / общ. ред. О. М. Фрейденберг. СПб.: Алетейя, 1996. – 366 с.
85. Вишневский К.Д. Мир глазами поэта. – М.: 1979. – 168 с.
86. Выходцев П.С. На стихе двух художественных культур (Проблема

- фольклоризма в литературе) // Русский фольклор. Том XIX. – Л., 1979. 3-31с.
87. Гегель. Сочинения. Лекции по эстетике. – Москва: ГИХЛ, 1958. Т.XIV. – 320 с.
88. Жирмунский В.М., Зарипов Х.Г. Узбекский народный героический эпос. – М: 1948. с.
89. Иванисанко В.И. Поэзия, жизнь. Человек. – Москва: Сов.писатель, 1962. –228 с.
90. Кожинов В.В. Как пишут стихи. – Москва: Просвещение. 1970. – С. 160;
91. Кузьмичев И.К. Введение в общее литературоведение XXI века. - Нижний Новгород. 2001. - 318 с.
92. Медриш Д.Н. Литература и фольклорная традиция. – Саратов, 1980. – 294 с.
93. Мирзаев Т. Вопросы сравнительного изучения “Алпомиш” и “Алып Мынаш”// фольклорное наследие народов Сибири и Дальнего Востока. – Горно - Алтайск, 1986, – 110-112 с.
94. Озеров Л. Начало и концы. – Москва: Сов.Россия, 1989. – 279 с.
95. Поляков М. Вопросы поэтики и художественной семантики. – Москва: Сов.писатель, 1986. – 480 с.
96. Поспелов Г.Н. Теория литературы. –М., Высшая школа. 1978. – 351 с.
97. Поспелов Н.Г. Лирика среди литературных родов. – М.: Искусство, 1976. – 177 с.
98. Потебня А.А. Теоретическая поэтика. – М.: Наука, 1990. – 156 с.
99. Прохоров Е. Публицистика в жизни общества. – Москва, Издательство МГУ, 1968. – 258 с.
100. Сильман Т.И. Теория стиля. – Москва, Искусство, 1968. – 228 с.
101. Тамарченко Н.Д. Теория литературы. В двух томах. 1-том. Учебное пособие. 3-е издание. – Москва: Академия, 2008. – 512 с.
102. Тимофеев Л.И. Основы теории литературы. –М., Просвещение. 1966.

– 478 с.

103. Хазагеров Г., Лобанов И. Основы теории литературы. – Ростов на Дон, Феникс, 2009. – 316 с.
104. Хропченко М.Б. Творческая индивидуальность писателя и развитие литератур. – Москва: 1970. – 109 с.

### **III. Lug‘atlar**

105. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. Тўрт томлик. I-IV томлар. – Тошкент: Фан, 1983, 1984, 1985. – 1235 б.
106. Литературный энциклопедический словарь Текст. / под общ. ред. В. М. Кожевникова, Л. А. Николаева. – Москва: Советская энциклопедия, 1987. – 752 с.т
107. Куронов Д., Мамажанов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. –Тошкент: Академнашр, 2013. – 177 б.

### **IV. Badiiy adabiyotlar**

108. Алишер Навоий. Фарход ва Ширин (Насрий баёни билан). – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1989. – 591 б.
109. Alisher Navoiy. Arba'in. To‘la asarlar to‘plami, O‘ninchи jild. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2013. – 581 b.
110. Alisher Navoiy. G‘aroyib us-sig‘ar. To‘la asarlar to‘plami, Birinchi jild. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2013. – 737 b.
111. Alisher Navoiy. Hayrat ul-abror. To‘la asarlar to‘plami, Oltinchi jild. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2013. – 283 b.
112. Alisher Navoiy. Vaqfiya. To‘la asarlar to‘plami, To‘qqizinchi jild. – Toshkent : G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2013. – 645 b.

113. Алишер Навоий. Маҳбуб ул-қулуб. Муқаммал асарлар тўплами. Йигирма жилдлик. 14-жилд. -Тошкент: Фан, 1998. – 276 б.
114. Алишер Навоий. Хамса. Садди Искандарий. Тўла асарлар тўплами, Саккизинчи жилд.– Тошкент:Faфур Гулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2011. – 432 б.
115. Бобур Захириддин Муҳаммад. Назм дурдоналари. – Тошкент: Шарқ, 1996. – 122 б.
116. Воҳидов Э. Сайланма. Ишқ савдоси. Биринчи жилд. – Тошкент: Шарқ, 2000 – 243 б.
117. Воҳидов Э. Сайланма. Кўнгил нидоси. Тўртинчи жилд. – Тошкент: Шарқ, 2001– 276 б.
118. Воҳидов Э. Сайланма. Умр дарёси. Учинчи жилд. – Т Тошкент: Шарқ, 2001– 271 б.
119. Воҳидов Э. Сайланма. Шеър дунёси. Иккинчи жилд. – Тошкент: Шарқ, 2001– 249 б.
120. Zokirjon Furqat. Ishqingda ko‘yib, jono... – Toshkent: Adabiyot, 2021. –112 b.
121. Матжон. О. Эркин ҳаволарда. Битиклар, драматик достон, шеърий қисса, шеърлар. – Тошкент: Faфур Гулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1997. – 264 б.
122. Муҳаммад Юсуф. Сайланма. – Тошкент: Шарқ, 2001. – 234 б.
123. Муҳаммад Юсуф. Халқ бўл, элим. Тўпловчи ва нашрга тайёрловчи Н.Саломова. – Тошкент: Ўзбекистон, 2019. – 208 б.
124. Орипов А. Адолат кўзгуси. Шеърлар, мақолалар, сухбатлар, таржималар. – Тошкент: Адолат, 2005. – 400 б.
125. Орипов А. Йиллар армони. Шеърлар ва достонлар. – Тошкент: Faфур Гулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1987. – 592 б.
126. Орипов А. Танланган асарлар. 6-жилд. Қуёш бекати. –Тошкент: Шарқ, 2010. – 348 б.

127. Рауф Парфи. Туркистан Рұхы. Сайланма. – Тошкент: Шарқ, 2013. – 320 б.
128. Раҳмон Шавкат. Сайланма. – Тошкент: Шарқ, 1997. – 384 б.
129. Сайид С. Қалдирғочларга бер айвонларингни. Сайланма. – Тошкент: 2005. – 208 б.
130. Сайид Сирожиддин. Асарлар. I жилд. Шеърлар. Достонлар. Насрий оҳангларда. – Тошкент: Шарқ, 2018. – 480 б.
131. Сайид Сирожиддин. Асарлар. II жилд. Шеърлар. Достонлар. Қирқ ҳадис. Насрий оҳангларда. – Тошкент: Шарқ, 2018. – 568 б.
132. Сайид Сирожиддин. Асарлар. III жилд. Шеърлар. Достон. Ғазал дафтари. Насрий оҳангларда. – Тошкент: Шарқ, 2019. – 576 б.
133. Сайид Сирожиддин. Асарлар. IV жилд. “Хамса” ҳайратлари маърифий достон. Тун билан тонг. Тўртликлар. Шеърлар. Ғазал дафтари. Таржималар. Насрий оҳангларда. – Тошкент: Шарқ, 2018. – 608 б.
134. Sirojiddin Sayyid. Matonat manzumasi. – Toshkent: “MASHHUR-PRESS”, 2018. –89 b.
135. Сергей Есенин. Форс тароналари. Э.Воҳидов таржимаси. – Тошкент: Янги аср авлоди , 2007. –132 б.
136. Усмон Азим. Уйғониш азоби. – Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1992. – 320 б.
137. Юсуф Ҳос Ҳожиб. Кутадғу билиг. . – Тошкент : Akademnashr, 2015. – 205 б.
138. Ўзбек халқ ижоди ёдгорликлари. Алномиш, I жилд. – Тошкент: 2015. –568 б.
139. Қадимий ҳикматлар. – Тошкент: Faafur Fулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1987. – 204 б.

## **V. Dissertatsiya va avtoreferatlar**

140. Doshanova G. Hozirgi o‘zbek she’riyatida kichik lirkil shakllar takomili. Fil.fan.bo‘yicha fal.d-ri (PhD) disser.avtoref. – Urganch, 2022. – 62 b.
141. Нарзикулова М. “Сабъаи сайёр” достонида фольклоризм ва ўзбек фольклорида Баҳром сюжетининг талқини. Филол. фан.номз... дисс. автореферати. – Тошкент, 2006.
142. Oripova G. Mustaqillik davri o‘zbek lirikasi. Filol.fan.d-ri...disser. avtoref. - Farg‘ona, 2024. – 82 b.
143. Раимова С. Мустақиллик даври ўзбек шеъриятида диний-маърифий мавзунинг бадиий талқини. Фил.фан. бўйича фалсафа доктори (PhD) диссер.автoref. – Тошкент: 2021. – 132 б.
144. Холиқова Д. Ҳозирги ўзбек шеъриятида фольклор анъаналари ва бадиий маҳорат: Филол. фан номз.... дисс. автореф. – Тошкент, 2011. – 48 б.
145. Хўжаев Т. XIV аср биринчи ярми ўзбек адабиёти ва фольклори: Филол. фан. номзоди ...дисс. – Тошкент, 1996. – 131 б.
146. Шарипова Л.Ф. 80-90-йиллар ўзбек шеъриятида фольклоризмлар: филол фан номзод ... дисс. – Т., 2008. – 138 б.

## **VI. Ilmiy to‘plam, jurnal va gazetalardagi maqolalar**

147. Акрамов Г. Миф ва ёзма адабиёт муносабатига доир (Нашрга тайёрловчи М.Жўраев) // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент: Фан, 1996. 4-сон .74 б.
148. Жабборов Н. Икки қилич аро. Шарқ юлдузи. – Тошкент, 2023. – №11
149. Сувонқулов И., Жуманазаров У. “Алпомиш”нинг “Одессея”га алоқаси борми?// Хорижий филология, Самарқанд, 2002, 48-53-бетлар.
150. Хўжаев Т. Мификс образ ва ёзма адабиёт // Адабий мерос. – Тошкент, 1991.
151. Ғафуров И. Инқилоб ҳамиша ҳаракатда // Ўзбекистон адабиёти ва санъати, 1984. – №19.

## **VII. Internet saytlari**

152. <http://ziyouz.uz>
153. <http://ziyonet.uz>
154. <http://jahonadabiyoti.uz>
155. <http://ijod.uz>
156. [http://www.dissercat.com.](http://www.dissercat.com)
157. [http://www.associatedcontent.com/article/108492/genre\\_theory\\_classifying\\_literary\\_works.html.](http://www.associatedcontent.com/article/108492/genre_theory_classifying_literary_works.html)
158. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Publitsistika#:~:text>